

A.A. ALIYEV

# Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish



O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI  
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A.A. ALIYEV

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI  
DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA  
SOLISH**

KASB-HUNAR KOLLEJLARI  
UCHUN O'QUV QO'LLANMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi ilmiy-uslubiy birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonida.. bakalavriatning 5340500 – Bojxona ishi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI  
MILLIJY JAMIYATI NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2007

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, bozor munosabatlarining asosiy tamoyillari amalda bo'lishi davlat tomonidan, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash va umummilliy manfaatlarni himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat(TIF)ni tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi. TIFni tartibga solish bo'yicha davlat organlarining faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin bu faoliyatning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning hududiy jihatdan katta-kichikligidan, jahon xo'jaligida tutgan o'rni, tashqi va ichki siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mazkur o'quv qo'llanma bojxona ishi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya etiladi.

**65.428**

**A49**

**Aliyev A.A.**

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish:** O'quv qo'l./  
A.A. Aliyev; O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta-maxsus ta'lim vazirligi,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. — T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2007. — 176 b.

**ББК 65.428**

**ISBN 978-9943-319-35-6**

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2007.

## KIRISH

Hozirgi kunda davlatlar o‘rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi bozor islohotlari munosabatlarining yangi strategiyasi asosiy yo‘nalishlaridan biri – tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu munosabatlar bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasí, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan jihatlarni, shu jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta’minlash, eksport va import munosabatlarda ilg‘or siljishlarni rag‘batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo‘naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo‘nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish davlat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatning o‘ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o‘zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqeni saqlab qolish va kengaytirishni ta’minlovchi maqbul darajadagi proteksionizm va erkin savdo siyosati qo‘llanilishini taqozo etadi. O‘tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o‘zini erkin bozor girdobiga tashlab qo‘ya olmaydi.

Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug‘iladi. Bozor munosabatlariga o‘tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning davlat tomonidan tartibga solinishi, ayniqsa, muhimdir. Bu esa, birinchi navbatda, tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini

tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yurgizishni talab etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, bozor munosabatlarning asosiy tamoyillari amalda bo'lishi davlat tomonidan, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash va umummilliyl manfaatlarni himoya qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat(TIF)ni tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi. TIFni tartibga solish bo'yicha davlat organlarining faoliyati deyarli barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi. Lekin bu faoliyatning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsad va vazifalari har bir mamlakatning hududiy jihatdan katta-kichikligidan, jahon xo'jaligida tutgan o'rni, tashqi va ichki siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish masalalarini o'rganish I.A.Hamedov, A.Alimovlarning 2001-yilda chop etilgan "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari" nomli darsligida o'z aksini topgan. TIFni davlat tomonidan tartibga solish turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu usullar sinflanish belgilari (mezonlari)ga ko'ra iqtisodiy va ma'muriy, tarif va notarif usul-lariga bo'linadi.

TIFni tartibga solishning iqtisodiy usullari savdo siyosatining vositalari – bojxona bojlari, soliqlar (QQS, aksiz solig'i va boshqalar) va bojxona yig'imlariga asoslanadi. Bu vositalarini qo'llash orqali davlatning tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari manfaatlariiga ta'sir ko'rsatadi. Ular ko'proq bozor munosabatlari tabiatiga mos keladi va shu sabab hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi.

Ma'muriy usullar tarkibiga davlat qoidalari, me'yirlari, taqiqqlashtari kiradi. Bular yordamida davlat bevosita tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga ta'sir ko'rsatib, ular faoliyatlarining turli jihatlarini jamiyat manfaatlari yo'lida chegaralaydi. Ma'muriy usullar hamma hollarda ham, o'z tabiatiga ko'ra, bozor muno-

sabatlariga muvofiq kelmaydi va shuning uchun ham ularni qo'llash kundan-kunga kamayib borayapti.

Tarif usullari TIFni tartibga solishning iqtisodiy usullari asosasi hisoblanadi. Boj tariflarining TIFni tartibga solishdagi alohida ahamiyati shundaki, ular boshqa iqtisodiy usullaridan holi holda o'rganishni taqozo etadi. Tarif orqali tartibga solish asosan ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilishga qaratilgan. Tarif orqali tartibga solish tizimida olib kirish bojlari hal qiluvchi rol o'yнaydilar.

Eksport bojlari bozor munosabatlari tabiatiga zid deb sanaladi, xalqaro va mintaqaviy ittifoqlar va kelishuvlar ulardan xalqaro savdoda foydalanishni tavsiya etmaydi. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan olib kirilayotgan tovarlar turlari xilmashil va doimo o'zgarib turadi. Yoki belgilanishiga, yoki iste'mol xususiyatlari va sifatiga ko'ra o'xshash tovarlar yurtimiz ishlab chiqaruvchilari tomonidan tayyorlanyapti.

Lekin shunday tovarlar borki, ular mamlakatimiz ichki bozoriga faqat boshqa mamlakatlardan olib kelinadi. Bular qatoriga choy, kofe, kakao, tabiiy kauchuk, sitrus mevalari va boshqalar kiradi.

Ko'p hollarda import tovarlari mahalliy tovarlarga monand bo'lib, ular bilan raqobat qiladi. Shuning uchun bunday tovarlarga nisbatan olib kirish bojlari jahon miqyosidagi va milliy miqyosdagi harajat va narxlarni hosil qilayotgan nisbatlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlab chiqarish harajatlari va baholar o'rtasidagi nisbat mahsulot turlari va guruhlari bo'yicha keng miqyosda o'zgarishi mumkin. Bu esa olib kirish bojlarini mahsulot turlari va guruhlari bo'yicha tabaqalashtirish lozimligini belgilaydi.

Olib kirilayotgan tovarlar turlarining chegaralanganligi va om-maviy ravishda olib kirilishida bojxona bojlari stavkalari har bir mahsulotga alohida holda yoki ularning har biriga nisbatan mos asosiy ko'rsatkichlariga qarab belgilanishi mumkin. Erkin bozor munosabatlariga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiy islohotlar strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri jahon xo'jaligiga

a'zo davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish va takomillashtirishdan iborat.

Mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi, barqaror rivojlanishi, uning jahon xo'jaligi tizimiga muvaffaqiyatli integrallashuvi ko'p jihatdan tashqi savdo faoliyati, uning transport va bojxona xizmatlari, xalqaro savdoning globallashuvi talabiariga mos ravishda takomillashuviga bog'liq.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy sohani boshqarishning o'ziga xos tizimlarini tezkor shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi yo'llarini mustaqil belgilab olish vazifasi yo'lga qo'yilgan edi.

Ayni paytda, respublika hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va zaruriy huquqiy asoslarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy mamlakatlar jismoniy va yuridik shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga imkon berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi bu ishlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur qonunning 17-moddasiga ko'ra uiar quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta siyosati orqali amalga oshirish;
- soliq siyosati orqali tartibga solish;
- tarif va notarif yo'l-yo'riqlar orqali tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarни qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy chekllovlar o'rnatish hamda tovarlarning

ayrim turlarini eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'matish;

- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish.

Respublikada olib borilayotgan «Ochiq eshiklar siyosati» – savdo-iqtisodiy aloqalarni erkin va jadal rivojlantirib borish, ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda teng huquqli va o'zaro foydali aloqalarini kengaytirish, raqobat va hamkorlik o'rtasidagi haqiqiy muvozanatni ta'minlash, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublikaga olib kiradigan xorijiy investorlar va alohida mamlakatlarga nisbatan qulay savdo rejimini shakllantirish, xalqaro huquqiy me'yorlarning milliy me'yorlarga nisbatan ustuvorligini tan olish, GATT/JST tamoyillari va qoidalariga amal qilish asosida tashqi savdo rejimini bosqichma-bosqich erkinlashtirish va respublikaning mazkur tashkilotga integratsiyalashgan holda kirib borishini ta'minlash singari bir qator maqsadlarga qaratilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo'yicha faol chora-tadbirlar ko'rildi. Hozirgi paytda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri respublika hukumati tomonidan ichki valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganligidir.

Ko'pgina mamlakatlar o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarning xalqaro bozorlarda ayirboshlashni yaxshilash maqsadida ularni xalqaro standart talablariga moslashtirishga harakat qiladi. O'zbekistonda ham tashqi savdo faoliyatini boshqarishda bir qator iqtisodiy usullardan foydalaniladi. Xususan, O'zbekiston hududiga olib kirilayotgan tovarlar respublikada amal qiladigan texnik, farmakologik, sanitar, vetrinar, fitosanitar, ekologik standart talablariga javob berishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan standart va talablarga javob bermaydigan, sertifikatsiz, maxsus belgisiz tovarlarni mamlakat hududiga olib kiring taqiqlanadi. Respublika hukumati importni kamaytirishga, sa-

noatni rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Xususan, don, go'sht, sut mahsulotlari importini kamaytirishga qaratilgan keskin chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, sifatsiz, narxi baland yoki noqonuniy import qilingan mahsulotlarga ega bo'lgan importyorni chet el valyutasiga ega bo'lmasliklarini kafolatlovchi chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

So'nggi yillarda respublika hukumati tomonidan tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirilishi, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik siyosatning amalga oshirilishi va xalqaro savdo tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yilishi respublika tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlash, muddati uzaytirilgan tashqi qarzdorlikni kamaytirish imkonini berdi.

O'zbekiston 16-yil mobaynida mustaqil rivojlanish asnosida 30 dan ortiq xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi bo'ldi. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro moliya korporatsiyasi, Jahon banki guruhiga kiruvchi bir qancha tashkilotlar va Bretton Vuds tizimidagi ko'plab institutlarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston 1994-yilning iyun oyida JSTda kuzatuvchilik maqomini qo'lga kiritgan edi. 1994-yilning dekabrida esa respublika hukumati tomonidan O'zbekistonning JSTga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi to'g'risida ariza topshirildi. 1995-yilning yanvarida esa O'zbekistonning JSTga qo'shilishi bo'yicha maxsus Ishchi guruhি tuzildi. Rasmiy delegatsiyalarimiz JSTning Singapur (1996 y.), Jeneva (1998 y.) va Sietl (1998 y.) da bo'lib o'tgan vazirlar darasidagi anjumanlarda ishtirok etishdi.<sup>1</sup> 1998-yilning sentyabr oyida O'zbekiston hukumati JST kotibiyatiga respublikaning tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumini taqdim etdi va uning rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu masala yuzasidan Avstraliya, Yevropa Ittifoqi, Yangi Zelandiya va AQSH hukumatlarining savolnomalari olindi va shunga muvofiq JST Kotibiyatiga javobgar tayyorlandi.

<sup>1</sup> O'zR TIAAda 2004-yilning 5-17-yanvarida "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalar rahbarlarining malakasini oshirish kursi" tarqatma ma'lumotlari asosida.

2002-yilning 17 iyulida esa Shveytsariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha tashkil qilingan ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Bunda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumning yangi tahriri ko'rib chiqildi. Mazkur majlis natijalari bo'yicha bir qator mamlakatlar tomonidan Memorandum bo'yicha yozma sharh va savolnomalar taqdim etildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi davomida kelib tushgan savolnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizga qo'yilgan asosiy talablar a'zolikka da'vogar mamlakatlariga qo'yilgan umumiy talablarga to'liq mos keladi. Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, tashqi iqtisodiy faoliyat moddiy, moliyaviy va zakovat boyliklarining mamlakatlar o'rtasida almashinishining turli yo'nalishlari, shakllari va vositalarini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Bu istalgan mamlakat iqtisodiyotidagi eng murakkab soha bo'lib, uni o'rganish uchun atroflicha yondoshishni taqozo etadi.

Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarining xorijiy sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshira oladigan mutaxassislarga ehtiyojini ta'minlashda talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari va muammolari to'g'risida yetarli bilim hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

## **1-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT (TİF): MOHIYATI, AHAMIYATI VA MAQSADLARI**

### **REJA:**

- 1. Tashqi iqtisodiy aloqalar tushunchasi, mohiyati va tasnisi.**
- 2. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir.**
- 3. Tashqi savdo – tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shaklidir.**

Sivilizatsianing rivojlanishi alohida olingan davlatlarni xalqaro xo'jalik aloqalariga muntazam ravishda jalb etishga olib keladi, bu esa yagona jahon iqtisodiyotini barpo etishga imkon yaratadi. Dunyodagi barcha mamlakatlar umumiy iqtisodiy qonunlarga ko'ra rivojlanadi, ya'ni ular xalqaro munosabatlar iqtisodiy xarakterining ustuvor bo'lishini shartlaydi.

Ehtiyojlarning doimo murakkablashib boradigan tarkibi, resurslarning juda kamligi va olisdaligi nafaqat alohida davlat ichidagi hududlar, ba'ski turli davlatlar va jahon mintaqalari o'rtaida ham yanada samaraliroq ayrboshlash vositalarini talab etadi.

O'zbekistonda ko'plab korxona va birlashmalar, korporatsiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda, xorijlik investorlar ishtirokida yirik investitsiya joyihalarini amalga oshirmoqda, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligini kengaytirmoqda va chuqurlashtirmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ushbu shakllari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Anna shu ta'sir natijalarining tahlili va xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishini hisobga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini belgilash tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchalarining mazmuni to'g'risida aniq tasavvurga asoslanishi kerak.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlari**

va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning subyektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir.

Davlat subyektlariga o'z zimmasiga davlat tomonidan yuklangan huquq va majburiyatlarning tasarrufchilari kiradi. Bular o'zini o'zi boshqaradigan hududlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar (aksiyadorlik jamiyatlari, davlat korxonalari, kichik va o'rta korxonalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, xususiy tadbirkorlar va hokazolardir.

Binobarin, tashqi iqtisodiy aloqalar – aniq bir mamlakatning boshqa mamlakatlari bilan xalqaro mehnat taqsimotiga, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xil munosabatlaridir. **Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayoni.**

Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va fanni ixtisoslashtirish, xo'jalik hayotini baynalmannallashtirish jarayonidan obyektiv ravishda kelib chiqadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi alohida olingan mamlakatlarning o'zaro aloqalari va bir-biriga bog'liqligining kuchayishi bilan belgilanadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining iqtisodiy mazmuni birgalikdag'i ishlab chiqarishni tashkil etish usullarida ifodalanadi. Bunda turli mamlakatlarning korxonalari muayyan tovar yoki xizmatlarni tayyorlashga ixtisoslashadi, so'ngra ularni ayirboshlaydilar. Tovar ayirboshlash pulli yoki pulsiz asosda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pchilik hollarda ayirboshlash asosan birinchi variant bo'yicha yuz beradi, ya'ni xorijdan mahsulot oladigan taraf uning egasiga barcha harajatlarni to'laydi. Turli tuhfalar, inson-parvarlik yordamlari, ishlarni muvofiqlashtirish, umumiy qarorlarni muhokama va qabul qilish, tajriba almashish, standartlarning xalqaro miqyosda bixillashtirilishi, atrof muhitni muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar va hokazolar ayirboshlashning pulsiz turlariga kiradi.

Shunday qilib, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari turli sohalarda: tashqi savdo, fan-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, valyuta-moliya va kredit, axborot, madaniyat va sport turlari, mehnat resurslarini olib o'tishda o'matiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning ana shu turlarini quyidagi shakllarga birlashtirish mumkin: savdo (tovarlarni ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish), qo'shma tadbirkorlik, hamkorlikning boshqa turlari. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida ayniqsa keng tarqalgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro savdoga zamonaviy qarashlar bir necha nazariyalarni o'z ichiga oladi. Ular Adam Smit allaqachon ta'riflab bergan mutlaq ustunlik nazariyasidan (1776-yil) boshlanadi. Nazariyotchi har bir mamlakatda boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha kam chiqimlar bilan tovarlar va xizmatlarning muayyan turlarinin ishlab chiqarishga imkon beradigan mutlaq ustunlik mavjudligini isbotlab berdi (bunday ustunlik tabiiy tusda bo'lishi yoki iqtisodiy rivojlanish jarayonida egallanishi mumkin). Savdo o'zaro foydali bo'lishi uchun mamlakatlarning har biri shunday mutlaq ustunlikka ega bo'lishi kerak, lekin u ishlab chiqarish faoliyatining turli yo'nalishlaridan o'rinn olishi lozim. Turli davlatlar iqtisodiy faoliyatini ixtisoslashtirishning asosiy shart-sharoitlaridan biri ham ana shundadir. Smit nazariyasidan ixtisoslashtirish qanchalik chuqur bo'lsa, mamlakat oladigan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

D.Rikardonning «Siyosiy iqtisod va soliq solish asoslari» (1817-yil) kitobida taklif qilingan qiyosiy ustunlik nazariyasiga ko'ra mutlaq ustunliklarga ega bo'lmagan mamlakatlar ham tashqi savdodan foyda olishlari mumkin. Amalda hamma makon va hamma zamonda mavjud bo'ladigan ichki va tashqi narxlar o'tasidagi tafovutlar tufayli istalgan mamlakatda ularni ishlab chiqarish mavjud chiqimlar nisbatida qolganlarini ishlab chiqarish-

ga qaraganda ancha foydali bo'lgan va ularni ayirboshlash o'z ishlab chiqarishga qaraganda foydaliroq bo'ladigan tovar yoki xizmatlar doimo topiladi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi almashtirish chiqimlari hisobining muhim ekanligini ko'rsatadi.

Demak, XIX asrdayoq ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish albatta qo'shimcha mahsulot birligini ishlab chiqarishga olib kessim, almashtirish chiqimlarining ildam o'sishi bilan birga borishi isbotlab berilgan. Buning ma'nosi shuki, yanada ixtisoslashtira borish maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi.

Shunday qilib, qiyosiy ustunliklar nazariyasi quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: xalqaro savdodan olinadigan eng ko'p yutuq qisman (to'liq emas!) ixtisoslashtirish sharoitida yuz beradi, ya'ni milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning obyektiv chegaralari mavjud.

Xeksher-Olinning savdo nazariyasi sifatida mashhur bo'lgan nazariya birinchi o'ringa ishlab chiqarish chiqimlarini emas, balki qanday resurslar ana shu chiqimlarga kirishini qo'yadi, chunki mamlakatlar chiqimlarida ularda ortiqcha mavjud bo'lgan resurslar foydalilanilgan tovariarni eksport qilishga intiladilar. Bunda ichki talabni ishlab chiqarilishi uchun resurslar mo'l-ko'l bo'lgan mahsulotlar bilan to'ldirish omiliga muhim rol ajratiladi.

Ushbu nazariyalar uchun amerikalik mashhur iqtisodchi Vasiliy Leontev taklif etgan muayyan tuzatishlar zarur. U ishlab chiqarish omillarining bir xil emasligini qayd etadi, bu omillarni taqchil yoki mo'l-ko'l omillar sifatida ko'rib chiqish mumkin. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi nisbatan cheklangan sharoitda yuqori malakali mutaxassislarning nisbatan ortiqchaligi ko'zga tashlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa malakasiz mehnatning katta harajatlarni talab etadigan mahsulotni eksport qilishga intiladi. Ikkala holda ham mehnatni ko'p talab qiladigan mahsulot eksporti yuz beradi. Lekin ular turli xarakterga ega. Shu bilan birga tabiiy resurslarga boy ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport qilish ko'p sarmoya talab qiladi, chunki xomashyoni qazib olish katta mablag'larni taqozo etadi.

Keyingi paytda tashqi savdo yo'nalishini tovarlarning hayotiy sikli nazariyasidan kelib chiqib tushuntiradigan marketologik nazariya paydo bo'ldi.

Ushbu nazariyaga ko'ra har qanday mahsulotning hayot sikli bir necha bosqichdan – joriy etish, o'sish, yetuklik va tushkunlikdan iborat bo'ladi. Lekin, bosqichlarning o'zi ichki va tashqi bozorlar bo'yicha notejis navbatlashadi. Ayni shu narsa ishlab chiqarishni ichki bozordan tashqi bozorga qayta yo'llash shartlari va vaqtini belgilaydi.

Xalqaro savdo – miqyos samarasini bilan ham tushuntiriladi. Nazariy jihatdan olganda u mikroiqtisodiy hodisalarga kiritiladi hamda mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha chiqimlari va hajmlari dinamikasini qiyoslashga asoslanadi. Agar ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirganda, o'rtacha chiqimlar mahsulot birligiga hisoblanganda qisqarsa, miqyos samarasini – musbat, ko'rsatilgan ko'rsatkichlar dinamikasi tamoyillari teskari nisbatda bo'lsa – manfiy bo'ladi.

Rivojlanish jarayonida ko'plab mamlakatlarning (ayniqsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarning) ta'minlanganligi baravarlashgani sababli ham mutloq, ham qiyosiy ustunliklar uchun asos yo'qoladi. Miqyos samarasini beradigan ommaviy ishlab chiqarish ta'minlangan taqdirdagina xalqaro savdo foydali bo'ladi. Buning uchun bozor sig'imi asosiy omilga aylanadi, uni alohida olingan mamlakatlar ichida ta'minlash qiyin. Bunga, odatda, jahon bozoridagi operatsiyalar hisobiga erishiladi. Yagona integratsiyalangan bozorning shakllanishi shunga olib keladiki, iste'molchilarga ko'p miqdordagi mahsulot ancha past narxlarda taklif qilinadi. Shu tariqa, mikroiqtisodiy muammolar makroiqtisodiy darajaga o'tadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchisi bo'lgan firmanın daromadi milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyalashuvi darajasiga bog'liqdir.

Boshqa nazariy qarashlar ham mavjud. Lekin ular orasida, birinchidan, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida keng tarqalgan, ikkinchidan, makroiqtisodiy darajada ifodalangani, va uchin-

chidan, eng umumlashganligi bilan ajralib turadiganini ko'rib o'tamiz.

Xalqaro savdo mazmuniga doir biz bayon etgan barcha yondoshuvlarni ancha osonlik bilan dastlabki ikki qarashga kirlitsa bo'ladi. Zero, ma'lumki, mamlakatda ortiqcha bo'lgan resurslar sarflanadigan mahsulot sham, tovarlar hayot tsikli ham, miyos samaralari ham – ularning barchasi ishlab chiqarish chiqimlariga bevosita bog'liq. Shuning uchun dastlabki ikki qarash – eng universal doktrinalar bo'lib, qolgani va esa ularni aniqlash-tirish hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, xalqaro savdo – tashqi iqtisodiy faoliyat barcha qolgan shakllari va turlarining boshlang'ich, muvofiqlashtiruvchi va ko'paytiruvchi negizi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning xorijiy sarmoyani jalb etishdek shaklining samaradorligi ham uning darajasiga bog'liq. Savdodagi qonun hujjatlari tomonidan belgilangan boshqa cheklashlar investitsiya jarayonlarida aks etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblana-di. Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar sivilizatsiya mahsulotidir. Ular davlatlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi va birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga ayniqsa feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo'jalikdan tovar-pul munosabatlariga o'tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarni rivojlantirishga, tovar ayirboshlashida keskin sakrashni tug'dirishga, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalminal aloqalar va xalqaro ayirboshlashlar kengayishi, chuqurlashishiga olib keldi.

Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar barcha turdag'i resurslarning davlatlar va boshqa davlatlarning iqtisodiy subyektlari o'rtaсидаги harakati paytida yuzaga keladigan ishlab chiqarish – iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Ushbu ikki taraflama munosabatlar davlat iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalo, uning ishlab chiqarish, savdo, investitsiyaga oid va moliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati uning funksiyalarida aniqlanadi. Quyidagilar ana shunday funksiyalar hisoblanadi:

- tabiiy resurslar, ularning ashyoviy va qiymat shaklidagi mehnat natijasi bilan xalqaro ayrboshlashni tashkil etish va xizmat ko'rsatish;
- xalqaro mehnat taqsimoti mahsulotlari iste'mol qiymatining xalqaro miqyosdagi e'tirofi;
- xalqaro pul muomalasini tashkil etish.

Birinchi funksiya — tabiiy resurslar sifatida qazib olinadigan mahsulotlar va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonida olinadigan mahsulotlarni ularning ashyoviy hamda qiymat shaklidagi mehnat natijalari bozori orqali aniq iste'molchilarga yetkazishdan iborat bo'ladi. Ayrboshlashni tashkil etish ayni vaqtida ayrboshlashga xizmat ko'rsatishni ham nazarda tutadi.

Ikkinci funksiya — bajarish jarayonida tovar-pul munosabatlari harakatining yakunlanishi va pulni xalqaro mehnat taqsimoti mahsulotiga ayrboshlash tugashi yuz beradi. Buning natijasida mahsulotning iste'mol qiymati (yoki amaliy qiymati) xalqaro e'tirofga sazovor bo'ladi.

Uchinchi funksiya — turli xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida pulning uzlusiz harakati uchun shart-sharoit yaratishdir.

Ayni vaqtida tashqi iqtisodiy aloqalar davlatning iqtisodiy tizimiga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib maydonga chiqadi, u tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Hozirgi jahon xo'jaligida tashqi iqtisodiy aloqalar davlat milliy daromadinin o'stirish, xalq xo'jaligi harajatlarini tejash va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillariga aylanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar orqali jahon bozorining tovar va xizmatlarga talabi muayyan davlatning ichki bozoriga o'tkaziladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga imkon yaratadi, bu, o'z navbatida, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, moliya muassasalari va xizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Mamlakat ichki bozorining rivojlanishi natijasida davlat ichida taklif hajmi talab hajmidan o'zib keta boshlaydi, bu hol tashqi savdo operatsiyalarining kengayishi, sarmoya qiymatining arzonlashishi va ishlab chiqarish hamda muomala chiqimlarining kamayishiga olib keladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifi bilan belgilanadi.

Tasnif (klassifikatsiya) deganda muayyan belgilar bo'yicha aniq guruhlarga taqsimlash tushuniladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning tasnifi tizimi aloqa turlari va shakllaridan iboratdir. Tashqi iqtisodiy aloqalar turi – bitta umumiy belgi, masalan, tovar oqimining yo'nalishi yoki tarkibiy belgi bilan birlashtirilgan aloqalar majmuidir. Tovar oqimining yo'nalishi bilan bog'langan tasnif belgisi tovar (xizmatlar, ishlar)ning bir mamlakatdan boshqasiga harakatini, ya'ni tovarning mamlakatdan olib chiqilishi yoki mazkur mamlakatga olib kirilishini belgilaydi. Ushbu belgiga ko'ra, tashqi iqtisodiy aloqalar tovarni sotish va olib chiqish bilan bog'liq eksport aloqalariga hamda tovarni xarid qilish va olib kelish bilan bog'liq import aloqalariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozor bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarni shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omilni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Bularning hammasi O'zbekistonning yangi tashqi iqtisodiy siyosatini va ro'yobga chiqarish mexanizmini ishlab chikishni talab etdi.

**Tashqi iqtisodiy siyosat** – davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish rejimini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlari – tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini uz ichiga oladi), chet el investitsiyalarini jalb etish va xorijdagi milliy sarmoya qo'yilmalarini

tartibga solish sohasidagi siyosat, valuta siyosatidir. Bundan tashqari, alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni jugrofiy jihatdan muvozanatlashtirish vazifalari ham tashqi iqtisodiy siyosatni xal etadiki, bu hol mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'pchilik davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining ushbu doirasini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta'riflash mumkin.

Samarali tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy qoida(prinzip)larini aniq va ravshan belgilash lozim. Chunochi, tashqi iqtisodiy siyosatda TIF qatnashchilarining xattiharakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o'rinn ajratiladi, toki u umummilliy manfaatlarga javob bersin.

Bozor munosabatlariga va mulkchilik shakllarining xilma-xilligiga o'tish, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar barcha korxonalaraga tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shugullanish huquqi berilgan sharoitda O'zbekiston davlat monopoliyasidan va u bilan bog'liq davlatning tartibga solish shakllaridan voz kechdi. Hozirgi shartsharoitda davlatning bosh vazifasi – iqtisodiyot faoliyatining bozor qoidalariaga mos holda va izchillik bilan jahon xo'jaligiga integratsiyalash siyosatini ishlab chiqishdir.

Mustakillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston o'zining manfaatlaridan kelib chiqib, mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu sababli, tashqi aloqalarni milliy xo'jalikni rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqlashtirish va ijtmioiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish, jahon ham-jamiyati mamlakatlarining o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda integratsiyalash jarayonlarini rivojlantirish vazifasi o'rtaga qo'yildi. Hukumat jahon xo'jaligi va bozoriga

nisbatan milliy iqtisodiyotning yanada ochiq bo'lishiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Biroq, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik aloqalariga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita kirish jarayoni «katta sakrash» ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin emas. Bu jarayon bosqichma-bosqich, obyektiv tarkibiy shart-sharoitlar yetilishiga qarab va butun xo'jalik mexanizmini, xususan uning tashqi iqtisodiy sektorini isloh qilish bilan rivojlanib boradi.

Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga munosib tarzda kirishiga yo'naltirilgan strategiya real vaziyatdan kelib chiqib, Respublika iqtisodiy salohiyatini obyektiv baholash negizida ko'rildi, u navqiron davlatni siyosiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadlarini xal etishga yo'naltirilgan. Necha o'n yillar mobaynida shakllangan ma'muriy-rejali tizim tanazzulga uchragan vaziyatda «ochiq eshiklar» siyosati, xo'jalikni, shu jumladan tashqi iqtisodiy aloqalarni bozorga moslab jadal erkinlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy nobarqarorlikni keskinlashtirishga, iqtisodiy inkirozni chuqurlashtirishga olib kelishi mumkin edi. Eksportning birgina tovarga ixtisoslashgani, oziq-ovqat va sanoat tovarlari importiga chuqur bog'liqlik Respublika iqtisodiyotini nochor holga tushirib qo'ydi, real iqtisodiy va siyosiy suverenitetni ta'minlash, tovar va xizmatlar, ishchi kuchi va sarmoya bozorlarini jadal sur'atlarda shakllantirish imkonini bermadi.

Bularning hammasi hukumatning "shok" usullaridan voz kechishga va O'zbekistonning real sharoitlariga yaqinlashtirilgan tashqi iqtisodiy siyosat modelini tanlashga majbur etdi. Avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish boshlab yuborildi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni qayta ishlashni chuqurlashtirish, eng qimmatbaho importni siqib chiqaradigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish ko'zda tutildi. Buning natijasida, iqtisodiyotning strategik muhim resurslar bilan o'zini o'zi ta'minlashi oshdi, ish bilan bandlik barqarorlashdi, valutani tejash va undan yanada samarali foydalanish amalga oshirildi.

Tarkibiy siljishlarni amalga oshirish, tabiiyki, katta kapital mablag'larini va strategik jihatdan muhim resurslar ishlab chiqarishni ko'paytirishga doir choralarни ro'yobga chiqarish ustidan davlat nazoratini saqlashni talab etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatga keng qamrovli davlat monopoliyasidan uni erkinlashtirishga o'tish bosqichma-bosqich, bir necha yil davomida amalga oshirilishi dalili ham kattagina iqtisodiy hokimiyatni davlat qo'lida jamlash zarurligini belgiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishning dastlabki bosqichlarida bir qator eng muhim masalalarni hal etgan me'yoriy baza ishlab chiqildi va amaliyatga kiritildi. Birinchidan, korxonalarining tashqi bozorga mustaqil chiqish huquqi qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. Ikkinchidan, tashqi bozorlarga chiqish shartlari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun bir xil qilib belgilandi.

Ayni vaqtida davlat paxta, ipak, oltin va umumdavlat eksport resurslarini tashkil etadigan boshqa tovarlar eksportiga doir mutlaq huquqni saqlab qoldi. Tashqi iqtisodiy faoliyat uning qattiq nazorati ostida bo'ldi, eksport-import operatsiyalarining katta qismi bo'yicha tarifli va notarifli tartibga solish choralarini qo'llandi. Yetarlicha qisqa muddatlarda tarkibiy qayta ko'rish vazifalarini xal etish imkonini bergen, eksport tushumini davlat qo'lida markazlashtirish mamlakat valuta resurslari ustidan ma'muriy nazoratni talab etdi.

Bir qator strategik resurslar importining o'rnini bosishga doir qat'iy choralar ko'riliши mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini anchagina oshirish bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalarni haqiqatda erkinlashtirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini ham berdi. Haqiqatan ham, 90-yillar boshida neft mahsulotlari, bugdoy va hokazolar importiga sarflangan yuzlab million dollar mablag' mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va uning eksport salohiyatini rivojlantirishga ishlatila boshladi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati mustaqillikning dastlabki bosqichlarida quyidagi vazifalarni hal etdi:

- eksport-import operatsiyalarini markazlashtirishdan chiqarish;
- davlat extiyojlari uchun tovarlar eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- davlat uchun strategik muhim hisoblanmaydigan tovarlar eksportini soddalashtirish;
- strategik muhim tovariylar eksportidan olingan valuta tushumi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- davlat siyosatining barcha choralarini qo'llab chet el investitsiyalari jalg etilishini va eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish.

Shu tariqa, bozor iqtisodiyotiga o'tishning murakkab sharoitlarida jahon bozorlariga chiqish erkinlashtirish va proteksionizm chora-tadbirlari chambarchas bog'liq, izchil, puxta o'ylangan tarkibiy va sanoat siyosatiga tayanadigan siyosat bo'ldi. Chunki bunday sharoitlarda korxonalarning monetaristik «tabiiy» tanlanishini va, ular faoliyati natijalaridan qat'i nazar, mamlakat ishlab chiqaruvchilarining monopol mavqeini sun'iy ravishda mustahkamlaydigan keng qamrovli proteksionizmni qo'llab bo'lmaydi. O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining negizida to'rtta asosiy qoida yotadi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashishga qobil tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqadigan davlatning o'zgartiruvchilik faoliyati, shu jumladan, mazkur faoliyatning bojxona mexanizmi va chet el investitsiyalari uchun qulay rejim;
- mamlakat xo'jalik yurituvchi subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini asosan bir galgi tashqi iqtisodiy bitimlardan tashqi bozorlarni ushlab turish va kengaytirishga uzoq muddatli yo'naltirilgan, ular umumiy xo'jalik faoliyatining doimiy va uzviy qismi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyatga yo'naltirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat funksiyalarini hokimiyat shohobchali, respublika va hududiy boshqaruv organlari hamda tarmoq qoidalari o'rtasida aniq taqsimlash;

– jahon bozorida respublika eksportchilari uchun qulay sharoitlarni yaratish mamlakat tashqi siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolishiga da’vat etilgan.

Odatda, bozor iqtisodiyotiga o’tgan mamlakatlarda foydalaniladigan tashqi iqtisodiy tartibga solishning an’anaviy vositalari O’zbekistonda ham odatiy vositalarga aylanmoqda. Eksport tarifidan (u sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo’llanilmaydi) izchil voz kechish tashqi savdodan budget daromadlarini ko‘paytirishni ta’minlaydigan eksport faoliyatini rag’batlantirish bilan so‘zsiz birga borishi kerak. Eksportni tartibga solish eksport bojlaridan foydalanish yo‘li bilan emas, balki jahon amaliyotida umumiy qabul qilingan progressiv soliq solish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Xo‘jalikning bozor tizimiga tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning iqtisodiy vositalari muvofiq keladi. Biroq, ulardan foydalanish samaradorligi ma’lum chegaralarga ega. Jahon tajribasining guvohlik berishicha, iqtisodiyotning holati keskin yomonlashgan, infliyatsiyalar va ichki hamda jahon narxlari o‘rtasida keskin tafovutlar paydo bo‘lgan davrlarda hukumat cheklangan resurslarni safarbar qilish va yaxshiroq ishlatishni ko‘zlab, eksport-import operatsiyalarini tartibga solishning ma’muriy vositaliga murojaat qilishga majbur bo‘ladi.

Biroq ma’muriy tartibga solish repressiv tusdagi qattiqqo‘l vositalardan foydalanishga olib kelmasligi kerak. Bunday vositalarning jahon amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan butun majmuidan foydalanish lozim. Ko‘p mamlakatlarda tashqi iqtisodiy operatsiyalarni boshqarish choralarining kompleks tizimini yaratadigan kvotalash va litsenziyalashning o‘nlab turlari qo’llanadi. Bu choralarining maqsadi savdoni cheklash emas, balki uning rivojlanishini nazorat qilish b o‘lishi kerak.

Ma’muriy vositalardan foydalanish O’zbekistonda jahonda umumiy qabul qilingan tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish qoidalari bilan birikadi. Xususan, respublikada bunday vositalar vaqtinchalik vositalar sifatida belgilangan. Ularni savdodagi bar-

cha sheriklarga tadbiq qilish (faqat rivojlanayotgan mamlakatlariga nisbatan istisno qilingan) va faqat qabul qilingan qonun hujjalari asosida tartibga solish rusum-qoidalalarini o'zgartirish mumkinligi ko'zda tutilgan.

Bozor munosabatlari mustahkamlanib borishi bilan qonun doirasida o'z javobgarligidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatadigan, mulkchlikning istalgan shaklidagi mustaqil korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy subyektlariga aylanishi kerak. Davlatning asosiy vazifasi esa – har tomonlama yordam ko'rsatish va ushbu subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini yengillashtirishdir. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- mamlakat korxonalarining mashina va uskunalar, texnologiya va axborotlar, sarmoyalar jahon bozorlariga, transport kommunikatsiyalariga kira olishi; korxonalar mahsulotining transmilliy korporatsiyalar nazorat qiladigan yoki chet el davlatlari va ular ittifoqlarining proteksionistik g'ovlari bilan himoyalangan bozorlarga kirib borishiga siyosiy, moliyaviy va axborot madadini ko'rsatish;
- chet el mamlakatlari va ularning savdo-iqtisodiy guruhlari, tashkilot va ittifoqlari bilan munosabatlarda qulay savdo va siyosiy rejimni barpo etish, mavjud va ehtimoliy kansituvchi cheklashlarni olib tashlash, MDH mamlakatlari bilan munosabatlarda turli savdo-iqtisodiy g'ovlarni bartaraf etish;
- kreditor mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda valuta-moliya muammolarini uzoq muddatli tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladigan samarador tizimni shakllantirish (valuta, eksport, bojxona nazorati va hokazo).

Shu tariqa, tashqi iqtisodiy siyosat har qanday milliy iqtisodiyotning taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim vositadir. Birbiridan tafovut qiluvchi ikki model mavjud. Birinchi model asosan eksportga yo'nalishni, ikkinchi model esa import o'mini bosish-

ni taqozo etadi. Birinchi modelga o'tgan asr oxirida AQSh, ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, ular ortidan esa yangi industrial davlatlar ergashdilar. Ikkinci modelni keyingi 20-yil ichida Lotin Amerikasidagi ba'zi mamlakatlar tanladi.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasining eng ta'sirchan va samarali strategiyasi deb iqtisodiyotni tarkibiy qayta ko'rishni uni eksportning faol o'sishiga yo'llash bilan birikishini tan olishi kerak bo'ladi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, ochiq bozor iqtisodiyotiga harakatlanish sharoitida eksport salohiyatini rivojlantirish va milliy eksportchiga har tomonlama ko'mak berish samarali tashqi iqtisodiy faoliyatning asosi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligining garovi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston uchun bu hol alohida ahamiyat kasb etdi, chunki faqat eksportni rivojlantirish orqali hayot uchun muhim tovarlar importini qisqartirmasdan turib savdo balansining musbat saldosiga erishish mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Mamlakatning eksport siyosati va uning asosiy maqsadlari.
2. Import siyosatining asosiy maqsadlari nimalarga qaratilgan?
3. Investitsiya siyosati va uning eksport-import siyosati bilan o'zaro bog'liqligi.
4. Valuta siyosatining asosiy vazifalari.
5. O'zbekistonda valuta siyosatining huquqiy asoslari.
6. Tashqi iqtisodiy siyosat shakllanishini belgilovchi asosiy omillar.
7. Bojxona siyosati va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining shakllanish bosqichlari.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sagasida: xavfsizlik-ka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot қafolatlari. T: «O‘zbekiston», 1997-у.
2. А.П.Киреев. Международная экономика. М: Международные отношения, 1999 г.
3. Международные экономические отношения. Учебник, под ред. И.Фоминского, М., Экономист, 2004 г.
4. В.И.Фомичев. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г.
5. В.К.Ломакин. Мировая экономика, П-изд., учебник, М., ЮНИТИ, 2004 г.

### **Qo‘sishimcha adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-у.
2. И.В.Малкова. Мировая экономика в вопросах и ответах. М., Проспект, 2004 г.
3. Н.Сиражиддинов, А.Абдураззаков. ЖСТ: создание, принципы и процедуры вступления. Ж: Экономическое обозрение №6 (46), 2003 г.
4. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz). TDIU vebssayti.
5. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo‘mitasi vebssayti.

## **2-MAVZU. XALQARO SAVDO – TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING ASOSIY SHAKLI**

### **REJA:**

- 1. Xalqaro savdo – tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli.**
- 2. Xalqaro savdo va jahon tovar bozorlari.**
- 3. Xalqaro savdoda texnologik ayirboshlash.**

Dunyo xo‘jaligining XX asr oxirlaridagi faoliyati o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – davlatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashuvidir.

Har bir davlat bu sharoitda o‘z tashqi iqtisodiy faoliyatini, o‘z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuv jarayyonlarini har tomonlama o‘ylangan holda tashkil etishga qaratgan bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifining tarkibiy belgisi aloqalarning iqtisodiy manfaatlari sohasida va davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi bilan bog‘langan guruhiy tarkibini belgilaydi. Tarkibiy belgiga ko‘ra, tashqi iqtisodiy aloqalar tashqi savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish, investitsiya aloqalariga bo‘linadi.

Aloqa shakli – mazkur aloqa turining mavjud bo‘lish usuli, biror bir aniq aloqa mohiyatining tashqi namoyon bo‘lishidir. Tashqi iqtisodiy aloqalar shakllariga savdo, barter, turizm, injiniring, franchayzing, lizing va hokazolar kiradi.

Tashqi savdo faoliyati tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborot, intellektual faoliyat natijalari, shu jumladan, ularga doir mutlaq huquqlar (intellektual mulk bilan xalqaro ayirboshlash sohasida) tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir. Bunda tovar deganda har qanday harakatlanuvchi mol-mulk (shu jumladan, energiyaning barcha turlari) va ko‘chmas mulkka kiritilgan, tashqi savdo faoliyatining predmeti bo‘lgan havo, dengiz kemalari va ichki suzish kemalari hamda fazoviy obyektlar tushuniladi. Xalqaro tashishlar to‘g‘risidagi shartnoma chog‘ida foydalaniладigan transport vositalari tovar hisoblanmaydi.

**Eksport** – tovar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir. Eksport fakti tovar bojxona chegarasini kesib o'tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar taqdim etilgan paytda qayd etiladi. Bojxona hududidan xorijga tovarlar olib chiqilmaydigan ayrim tijorat operatsiyalari tovarlar eksportiga tenglashtiriladi.

**Import** – tovarlar, ishlar, xizmatlar, intellektual faoliyat natijalarini, shu jumladan ularga doir favqulodda huquqlarni bojxona hududiga qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kelishdir. Import fakti tovar bojxona chegarasini kesib o'tgan, xizmatlar va intellektual faoliyat natijalariga doir huquqlar olingan paytda qayd etiladi. O'zbekiston bojxona hududining maqomi O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi bilan belgilangan.<sup>2</sup> Uning hududiga erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududi O'zR bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining chegaralari, erkin bojxona zonalari va erkin omborlar tegralari O'zR bojxona chegarasi hisoblanadi.

Tashqi savdoda xizmatlar savdosi katta o'rin tutadi. Xizmatlar ham tovardir, biroq ko'pincha ashyolashtirilgan shakiga ega emas va tovarlardan bir qator mezonlari bilan farq qiladi.

**Xizmatlar** – boshqa shaxslar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati bo'lib, mehnat huquqiga oid munosabatlар asosida amalga oshiriladigan faoliyat bundan mustasno.

Xizmatlar oldi-sotdisi bo'yicha asosiy tashqi savdo bitimlari ga transport xizmatlari, injiniring (muhandislik-texnika xizmatlari savdosiga doir operatsiyalar), ijara munosabatlari (lizing), sayyohlik xizmatlari, eksport-importiga doir operatsiyalar, axborot va boshqarishni takomillashtirish sohasidagi maslahat xizmatlari, sug'urtalash va bir qator boshqa xizmatlar kiradi.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga qaralsin.

Xizmatlarning tashqi savdosi «ko'zga ko'rinxaydigan eksport» deb ham ataladi.

Eksport-import operatsiyalari bevosita yoki bilvosita bo'lishi, ya'ni tovar sohiblari va vositachilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Vositachilar sifatida broker, diler, komissioner, kon-signator, ulgurji xaridor, sanoat agentlari faoliyat ko'rsatishi mumkin. Eksport-import operatsiyalaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat amaliyotida tovarlarni sotish uchun tashqi savdoning savdo, auktsion (kim oshdi savdosi) va birja singari maxsus shakllaridan ham foydalaniadi. Har bir eksport yoki import tovari uchun pul summasini olish yoki to'lash bilan yakunlanadigan tovarlarni sotishga doir odatdag'i eksport-import bitimlari bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatda tovar ayirboshlash operatsiyalari yoki muqobil kompensatsiya savdosi ham keng qo'llaniladi. Muqobil savdo tovarlarni sotishga doir operatsiyalarni o'z ichiga olib, bunda eksportchilarning import qiluvchilardan mahsulot bir qismini yoki eksport qilinayotgan tovarlar bir qismini xarid qilishga muqobil majburiyatları ko'zda tutiladi. Xilma-xil bo'lган muqobil bitimlarini tashkiliy-huquqiy asos yoki kompensatsiya qoidasiga bog'liq holda uch guruhga ajratish mumkin: valutasiz asosda tovar ayirboshlash bitimlari (barter), pul asosida savdo kompensatsiya bitimlari va sanoat kompensatsiya bitimlari.

Barter bitimlari obyektlari odatda bir turdag'i tovarlar, asosan xomashyoning kelishilgan to'plamlari bo'lib, bu hol tovarlarni manyovrlashni istisno etadi. Ayni shu sababli barter muqobil savdoda eng kam tarqalgan bitimdir. Muqobil kompensatsiya savdosining kattagina qismini pulga asoslangan, eksportchining import qiluvchi taklif etadigan tovarlarni sotishda ishtirokini ko'zda tutadigan savdo kompensatsiya bitimlari egallaydi. Ushbu turdag'i barcha bitimlarni guruhga bo'lish mumkin: «offset» turdag'i bitimlar, «switch» turdag'i bitimlar, bo'nak xaridlari va hokazo. Savdoning ushbu turi sheriklarning ishlshab chiqarish aloqalarini ko'zda tutmaydi. Agar muqobil savdo sanoat hamkor-

ligining bir qismi bo'lsa va bevosita ishlab chiqarish sohasi bilan bog'lansa, u yetkazib berishlarning alohida sinf guruhini yaratadi, bu guruh sanoat kompensatsiya bitimlari deb nom olgan. Masalan, bunyod etiladigan obyektlar uchun yetkazib beriladigan uskunalar haqi uning yordamida ishlab chiqariladigan tovarlarning muqobil yetkazib berilishi bilan to'lanadi.

Xizmatlar tashqi savdosida ilmiy-texnika tadqiqotlari natijalari savdosi va mualliftik huquqlari savdosi alohida o'rinn tutadi. Ilmiy-texnika bilimlarini ayriboshlashga doir kelishuvlar nafaqat ilmiy, balki tijorat qiymatiga ham ega bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari yakunlarining savdosi bilan bog'liq. Ilmiy-texnika bilimlari savdosiga doir operatsiyalarda patentlar, litsenziyalar, tovar belgilari, sanoat namunalarini shaklidagi intellektual mehnat mahsulotlari, shuningdek, «nou-xau» tushunchasini birlashtirgan texnik bilimlar va tajribalar ishtirok etadi.

Tashqi savdo aloqalarini moliyaviy aloqalar bilan bog'langan, zero moliya-savdo savdo hosilasi sifatida paydo bo'ladi. Moliyapul oqimida, pullarning uzluksiz aylanmasida yuzaga keladigan munosabatlari tizimidir. Boshqacha qilib aytganda, moliya-pul fondlari shakllanishi va ulardan foydalanishda hamma pul mablag'lari aylanmasi paytida yuzaga keladigan pul munosabatlari tizimidir. Moliya uchta funksiyani bajaradi:

- fondlarni shakllantirish va naqd pul mablag'larini olish;
- pul fondlari va naqd pul mablag'laridan foydalanish;
- pul fondlari va naqd pul mablag'larini shakllantirish, ulardan foydalanish ustidan nazorat qilish.

Xalqaro kreditlash, xalqaro sug'urtalash, xalqaro bank xizmatini ko'rsatish (hisob-kitoblar, depozitlar va boshqa bank operatsiyalari) moliyaviy tashqi iqtisodiy aloqalar shakllari hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va jahon iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishga oid va investition tashqi iqtisodiy aloqalarning paydo bo'lishi va chuqurlashishiga olib keldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar nafaqat tovarlar, xizmatlarni ayirboshlash, balki qo'shma tadbirkorlikni tashkil etish uchun sarmoyalarni olib kirish va olib chiqish, ishchi kuchini olib o'tish yo'li bilan ham ro'yobga chiqariladi. Sarmoyani olib chiqish – muntazam ravishda daromad olish yoki boshqa iqtisodiy va siyosiy foydalarga erishish maqsadida pul yoki tovarlar shaklidagi qiymatni xorijga olib o'tishdir. Sarmoyani olib chiqishning mohiyati moliyaviy yoki moddiy resurslarning bir qismini bir mamlakatdagi milliy iqtisodiy aylanma jarayonidan olish va uni boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarish jarayoniga kiritishdan iborat.

Sarmoyani bir mamlakatdan boshqa mamlakatga olib o'tish, avvalo, olib chiqayotgan mamlakat ichki iqtisodiy rivojlanishining uning tashqi savdosi ildam o'sishi bilan taqqoslangan. Lekin shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat shakli sifatida sarmoyani olib kirish va olib chiqish o'zaro bog'liq. Quyidagi holatlar tufayli bir-birini shartlaydi: sarmoyani tovar shaklida olib chiqish mashinalar, uskunalar, ishlab chiqarish uchun butlovchi qismlarni yetkazib berishni anglatadi; sarmoyani olib chiqish – asosan kreditor mamlakatda tovar xaridi uchun taqdim etiladigan kreditlardir. Agar tashqi savdo hajmlari ko'paymasa, demak, sarmoyani olib o'tish o'sgan, ya'ni sarmoya eksporti tovarlarni xorijga olib chiqishni rag'batlantirish vositasiga aylangan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy sharoitlaridan biri – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora tadbirlarini ishlab chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

Bu chora-tadbirlar dunyo xo'jaligida ma'lum ustuvorliklarga erishishga yo'nalgan. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

- bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishilmasdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi.

Odatda biror bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan xuddi shunday tartibda qabul qilingan chora-tadbirlarni qarama-qarshi holda qo'llashga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'tasida siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

- ikki tomonlama, ya'ni savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lgan davlatlar urtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi.

- ko'p tomonlama, ya'ni davlatlar savdo siyosati kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatning xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati protektsionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

**Erkin savdo** – davlatning tashqi savdo jarayonlariga aralashuvi kamayishi, ya'ni tashqi savdoning erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanishi.

**Protektsionistik** – tarif va notarif usullarni qo'llash orqali ichki bozorni chet raqobatchilardan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzalikka ega, yoki ega emasligi afzalligi iqtisodchilar o'tasida ko'p yillar davomida mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin. XX asrning 50-60-yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun protektsionistik siyosatdan erkin savdo siyosatiga o'tish xos xususiyat bo'lган.

70-yillarning boshlarda esa teskari tendensiya, yani erkin savdo siyosatidan tariflar orqali, ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish kuzatila boshladi.

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy protektsionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshiriladi. Misol uchun, u rivojlangan davlatlar o'tasida qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarishda, rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'tasida – rivojlanayotgan davlatlarning sanoat tovarlari eksporti sohasida kuzatiladi.

Proteksionistik tendentsiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

- **selektiv proteksionizm** – ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.
- **soha proteksionizmi** – xalq xo‘jaligi ma’lum sohasini himoya qilishga (qishloq xo‘jaligi) qaratilgan.
- **jamoaviy proteksionizm** – ma’lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Erkin savdo siyosati yaxshimi yoki proteksionistik savdo siyosati? Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan. Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlik, oshkorlashtirishiga intilish qonuniydir.

Garvard universitetida 115 ta davlat bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yopiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davatlarda ichki yalpi mahsulot hajmining yillik o‘sishi 0,7% ni tashkil qilgan bir paytda, ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda yurtda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 5 marta yuqori bo‘ladi. (Albatta, ochiq tashqi iqtisodiy siyosatni yaxshi rivojlangan va tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayotir). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba’zi bir tadbirlari barcha davatlarda bor. Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskalatsiyasi o‘rinli, ya’ni xomashyo va tayyor mahsulotlarga belgilangan import bojlari o‘rtasidagi katta farq. GATT-ni Urugvay raundidan so‘ng rivojlangan davlatlar tomonidan olib chiqilayotgan xomashyoga belgilangan tarif stavkalari tayyor mahsulotlarga belgilangan stavkalarga nisbatan 3,5 barovar kam va tayyor mahsulotlarga qo‘yilgan stavkalarga nisbtan esa 7,5 barovar kam bo‘ldi.

So‘nggi yillarda Respublika hukumati tomonidan tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik siyosatning amalga oshirilishi tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta’minlash va muddati uzaytirilgan tashqi qarzdorlikni kamaytirish imkonini berdi. Bun-

dan tashqari, O'zbekiston Respublikasi kredit majburiyatlarini bajarish, mamlakat oltin valuta zaxiralarini kengaytirish, ichki valuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. Xususan, 2004-yilga kelib respublika tashqi savdo aylanmasining xajmi 1991-yilga nisbatan qariyb 14 barobarga o'sdi va bunday natijaga O'zbekiston eksporti nomenklaturasi tartibiga kiruvchi xomashyo tovarlariga nisbatan jahon baholarining qariyb 20–40 foizga pasa-yib ketishi sharoitida erishildi. Shuningdek, tashqi savdoning jug'-rofiya tuzilmasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi va uning kengayib borish alomatlari kuzatildi. Holbuki, 1991-yilda u amalda faqat MDH mamlakatlari tomon yo'naltirilgan bo'lsa, 2004-yil yakuni natijalariga qaraganda, respublika tashqi savdosida uzoq xorijiy mamlakatlarning ulushi 64%ni, tovarlar va xizmatlar eksportida esa 68,7%ni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari sifatida AQSh va Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bundan tashqari, tashqi savdoda MDH mamlakatlari bilan ham ancha ijobjiy natijalarga erishilmoxda. Fikrimizcha, mintakaviy barqarorlik, mintaqa darajasidagi integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini baratraf etishda MDH davlatlari bilan ustivor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va MDH mamlakatlariiga o'zbek tovarlarini eksport qilish uchun asosiy bozorlardan biri sifatida qarash lozim. Hozirgi paytda respublika eksporti dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari tomon qaratilgan bo'lib, uning tarkibini iqtisodiy taxlil etish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda an'anaviy xomashyo tovarlari bilan bir qatorda, turli ko'rinishdagi jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlari, samolyot, avtomobillar va shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar, ya'ni eksport tarkibida qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushi salmoqli daramada o'sgan. Respublikada 1000 dan ortiq turdag'i yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish orqali eksport

tarkibi bosqichma-bosqich kengaytirildi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining asosiy maqsadi, eng avvalo, tashqi savdoni tariflar orqali tartibga solishning nisbatan samarali usullariga qaratilgan. Ayni paytda, tashqi savdoni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilma yaratilgan bo‘lib, tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi korxonalarning xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan savdo uylari, vakolatxonalari va qo‘shma korxonalarini soni kundan-kunga ortib borayapti.

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining eng muhim jihatlaridan biri – bu, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat hisoblanadi. O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun keng qo‘lamli soliq imtiyozlari tizimi yaratilgan va shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantiruvchi bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. G‘arb ekspertlarining fikricha, yaratilgan bunday imtiyozlar tizimi MDH mamlakatlari o‘rtasida eng maqbul hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida faol investitsiya siyosatini amalga oshirishdan bosh maqsad milliy iqtisodiyotni turli sohalarda tarkibiy o‘zgarishlarni jadal amalga oshirish, tabiiy xomashyo resurslarini zamонавиу texnologiyalar asosida chuqur qayta ishlash ham ichki, ham tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sohalariga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy xajmi qariyb 14 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Respublika hududida xorijiy kapital ishtirokida 3800 ta qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Hozirgi paytda O‘zbekiston uzoq xorijiy mamlakatlarning 42 tasi bilan qulay savdo iqtisodiy rejimiga ega bo‘lib, ular bilan «Investitsiyalarni himoya qilish va o‘zaro kengaytirib borish to‘g‘risida»gi bitimni imzolagan.

Bizningcha, mamlakat iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti tizimida ro‘y berayotgan murakkab vaziyatlarni hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyoti o‘sishini ta’minlash va aholi turmush sharoitini oshirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosatni yanada

takomillashtirish zarur. Tashqi iqtisodiy siyosat sohasida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishga mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishini yanada jadallashtirish, an'anaviy eksport mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish va ular eksport nomenklaturasini kengaytirib borish, qo'shilgan qiyomatga ega bo'lgan eksport mahsulotlari ishlab chiqarilishini yana-da ko'paytirish orqaligina erishish mumkin.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi infratuzilma institutlari tashkil etilgan bo'lib, u xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash «Uzbekinvest» milliy kompaniyasi, «Uziinvestloyiha» injirining kompaniyasi, rivojlangan bank tizimlari, maslahat va lizing kompaniyalarini o'z ichiga oladi. Garchi, mamlakatda tashqi savdo infratuzulmasini takomillashtirish va mamlakat salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, eksport tarkibida xomashyo mahsulotlari oz emas. Boy tabiiy va qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lgan O'zbekiston hozirga qadar an'anaviy ravishda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari bozorlariga qishloq xo'jalik va unga turdosh bo'lgan sanoat tarmoqlari mahsulotlarini yetkazib beradi. Xususan, 2004-yilda quruq meva va yong'oq eksporti 1,6 barobarga, ho'l meva va sabzavot 1,5 barobarga, sanoat va tabiiy maqsadlarda o'simlik eksporti esa 1,2 barobarga ortdi. Shunga qaramay, O'zbekiston eksportida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 3,8 %ni, importida esa 6,9 %ni tashkil etgan. Bundan ko'rinish turibdiki, zaruriy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni eksport qilish bo'yicha ulkan imkoniyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston uni iste'mol qilish bo'yicha jahon xorijiy bozorlari-ga bog'liq bo'lib qolmoqda. Holbuki, hozirgi paytda uzoq xorijiy mamlakatlarda ham respublikamizda yetishtiralayotgan mevalar mazasi va yuqori sifatli vino mahsulotlariga yuksak baho berilayotgan bo'lib, O'zbekiston korxonalariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar uzoq va yaqin xorijiy mamlakatar bozolarida ham o'z

xaridorlariga ega bo‘lishi mumkin. Ayni paytda O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash orqali tayer eksport-bop tovarlarni yaratish imkoniyatlari mavjud. Bunday mahsulot-larning yaratilishi qishloq joylarida mulkchilik shakllari o‘zgarishi, xo‘jalik yuritish shakllarini bozor munosabatlari asosida rivojlan-tirish va takomillashtirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi bir qator korxonalarni zamonaviy texnika va texnolo-giyalar asosida modelezatsiya qilishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integrallashuvi hamda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yangi turdag'i tashqi iqtisodiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilganligi nafaqat yangicha korxonalarni tashkil etish, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish, shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymat ulu-shiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta’minlovchi yangi zamonaviy, ilgor korxonalarga tashkil etishga qaratildi. Raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish korxona-larning samarali ishlashi va beqiyos rivojlanishining zaruriy sha-roiti bo‘lib golmoqda. Barcha turdag'i yangi tovarlar sanoat tar-moqlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar, kichik va o‘rta biznes korxonalari tomonidan o‘zgartirib borilmoq-da. Turli faoliyat sohalari bo‘yicha yangi korxonalarning tashkil etilishi, yangi sanoat tarimoqlari, xususan, avtomobilsozlikning rivojlantirilishi pirovard natijada O‘zbekiston tovar aylanmasida, uning eksport va importida o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, Respublika sanoat tarimoqlari bo‘yicha turli mashinalar va jihoz-lar eksporti 2004-yilda 7,6 foizga orttdi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar ko‘proq yangi xorijiy mamlakatlarga jo‘natilmoqda. 2004-yilda ularning eksporti 1,3 barobarga ort-gan. Xususan, «UzDEUavto», «SamAvto» qo‘shma korxonalarida ishlab chiqarilgan avtomobillar MDH mamlakatlari bozorida o‘z xaridorlariga ega bo‘lib, ular harid narxining nisbatan pastligi, mustahkamligi va sifat ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobil-

lar va avtobuslar eksportining uzoq xorijiy mamlakatlarga to‘g‘ri keladigan xissasi hozircha unchalik katta miqdorni tashkil etmaydi.

Bizningcha, O‘zbekiston avtomobilsozlik mahsulotlari eksportini kengaytirish strategiyasi rivojlangan uzoq xorijiy mamlakatlarga emas, balki rivojlanayotgan uzoq xorijiy mamlakatlarga tomon ham qaratilmog‘i lozim. Chunki rivojlangan xorijiy mamlakatlar bozorlari segmentining katta qismi dunyoda avtomobilsozlik sanoati bo‘yicha shuhrat qozongan yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan zabit etilgan bo‘lib, ushbu holat O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomashinalarning mazkur bozorlarda ayrboshlash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi yoki xarid narxlari tushishiga sababchi bo‘ladi.

Respublikada ishlab chiqarilgan avtomobillar va avtobuslar xarid narxlarining nisbatan pastligi rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari uchun ayni mudoodir. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan turdosh mahsulotlar sifati unchalik yuqori darajada emasligi bilan izoxlanadi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan bo‘lib, ular ham rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan sifati yuqori, biroq narxi qimmat bo‘lgan avtomashinalarni sotib olish imkoniyatiga ega emas. Ayni paytda, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar eksportini rivojlanayotgan malakatlar tomon kengaytirib borish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda tashqi savdo muammolari bilan maxsus shug‘ullanadigan ilmiy-tadqiqot institutlarining yo‘qligi, mavjudlarining esa ushbu masalalar bilan deyarli shug‘ullanmasligi oqibatida ilmiy asoslangan tavsiyalardan amaliyatda foydalanish imkoniyatlari deyarli cheklangan. Fikrimizcha, bozor subyektlari bilan yaqindan hamkorlik qiladigan, shuningdek makro- va mikroiqtisodiyot muammolarini to‘liq tadqiq etish orqali tashqi savdoni takomillashtirish va rivojlantirish borasida ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan uzluksiz ta‘minlanib turadigan raqobatbar-

dosh tashqi savdo ilmiy-tadqiqot institutlari va tashqi iqtisodiyot muammolari bo'yicha mustahkam va amaliy ilmiy tajribalar olib boradigan ilmiy markazlarni shakllantirish o'ta muhimdir. Tashqi iqtisodiyot siyosatda yechilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan yana biri – bu, eksporterlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining yaratilishidir. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari o'zining potentsial eksporterlariga axborotlar berish, savdo ko'rgazmalarini tashkil etish va chet elda biznes faoliyatini olib borish uchun aloqa o'rnatish kabi xizmatlarni taklif etadi. Bevosita va bilvosita subsidiyalar mamlakat ichida va tashqarisida xorijiy mahsulotlar bilan raqobat qila olishlari uchun beriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning asosiy qismi o'z eksporterlariga kredit xatarini sug'urta qilish borasida katta imkoniyatlar yaratib beradi. Bu esa xorijga chiqarilgan tovarlar to'lovi xavfini kamaytiradi. Eksportni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mamlakatda mustahkam makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mustahkam valuta almashinuvi kursini o'rnatish lozim. Eksporterlarni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning istiqboldagi holatidan xabar qilish, vaziyatni to'g'ri baholab, shartnomalarni imzolashga o'rgatish akkredit ochish shartlari bilan yaqindan tanishtirish va, shuningdek, ular valuta almashinuvi jarayonida ishonchli sharoitlarni yaratib berishi lozim.

Bundan tashqari, kelgusida, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni xal etish maqsadga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirishga qaratilgan zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;

- eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat das-turlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- ishlab chiqaruvchilar va eksporterlar faoliyatini har tarafla-ma qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;
- iqtisodiyotning barcha jabxalarida raqobardosh va ilmga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;
- xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni stan-dartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatsiya qilish sohasida hamkorlik qilish ko'laminu yanada kengaytirish;
- xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan na-zoratni joriy etish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jałb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatbar-dosh bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mam-lakatning turli hududlarida qo'shma korxonalar yaratilishini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan savdo – iqtisodiy va moliyaviy hamkorligini yanada kuchaytirish;
- kichik va o'rta biznes subyektlari tashqi iqtisodiy faoliya-tining rivojlanishiga hamkorlik qilish;
- xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish harajatlarini kamaytirish.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga tuskinlik qilib kelayotgan bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etishi imkonini beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat nima?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifalari.
3. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ularni belgilovchi asosiy omillar.

4. O‘zbekiston Respublikasi tashqi-iqtisodiy faoliyatining asosiy qoidalari.

5. Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy siesatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmi.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: «O‘zbekiston», 1997-y.

2. A.П.Киреев. Международная экономика. М: Международные отношения, 1999 г.

3. Международные экономические отношения, Учебник, М., Инфра-М, Проспект, 2004 г.

4. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.

5. Н.А.Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика, Ш-изд., М., Дело-сервис, 2004 г.

#### **Qo‘sishma adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to‘g‘risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997-y.

3. Э.П.Бабин. Основы внешнеэкономической политики. Москва: Экономика, 1997 г.

4. И.В.Малкова. Мировая экономика, в вопросах и ответах. М., Проспект, 2004 г.

5. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz). TDIU vebssayti.

6. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo‘mitasi vebssayti.

7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebssayti.

8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtamaksus ta’lim vazirligi vebssayti.

### **3-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH, BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISH DAVLAT SIYOSATI**

#### **REJA:**

- 1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish.**
- 2. TIFni liberallashtirish.**
- 3. TIFni erkinlashtirish sharoitida boshqarish.**

Har qanday davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon xo‘jaligining faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘langan va muqarrar ravishda nafaqat milliy huquqiy me’yorlar, balki xalqaro huquq standartlari bilan ham tartibga solinadi. Tabiiyki, milliy huquq reglamentatsiyalari bilan xalqaro iqtisodiy huquq o‘rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud.

Bir tomondan, davlatlarning huquq sohasidagi suverenitetini e’tirof etmaslik mumkin emas, boshqa tomondan esa, xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish zarurati u yoki bu mamlakatlar suvereniteti sohasiga kattagina cheklovchi ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy huquq hujjatlarni davlatlararo shartnomalarga muvofiq tarzda muayyan darajada bixillashtirish hozirgi bosqichda ushbu muammoning eng maqbul yechimi hisoblanadi. Ya’ni xalqaro huquqning qoida va me’yorlari amaliyotda milliy qonun hujjatlari orqali ro‘yobga chiqariladi. O‘zgartirish jarayonlarining keskinligi O‘zbekiston milliy qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga keltirish jarayonida muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Ushbu vazifa izchillik bilan, bir necha bosqichlarda hal etib borildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga taalluqli qonun hujjatlari va me’oriy hujjatlarning ko‘pligini e’tiborga olib, O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga kirishi xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish va churqurlashtirish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy boshqarish strategiyasining o‘ziga xosliklarini va ham mintaqaviy miqyosda,

ham alohida mamlakatlar darajasida savdo-iqtisodiy hamkorligining tegishli ustuvorliklarini belgilab berdi.

90-yillardayoq qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni har tomonlama muvofiqlashtirishda muhim o'rinni egallaydi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bu qonun iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan bozor usullariga bosqichma-bosqich o'tish, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish sharoitlarida dastlabki bosqichlarda muhim rol o'yndi. Biroq, 90-yillarning oxirlarida boshlangan mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish jarayonlari tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish oldiga yangidan-yangi talablarni qo'ya boshladi. Bundan tashqari, Respublikada ushbu Qonunga u yoki bu darajada daxldor bo'lgan qator Qonunlar qabul qilindi. «Valyuta boshqaruvi to'g'risida», «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida», «Bojxona tarifi to'g'risida», «Investitsiya faoliyati to'g'risida», «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir. Shu munosabat bilan 2000-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi, unda bu sohada keyinchalik qonun yaratish faoliyati uchun asos bo'ladigan tashqi iqtisodiy faoliyatning kontseptual asoslari aniq belgilab berildi. Qonunning yangi tahririda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullarining ustuvorligi metodologik tamoyil sifatida aniq belgilandi hamda davlat va uning organlarini tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari ishiga noqonuniy aralashishlari man qilindi.

Qonunning yangi tahriri moddalari mamlakat qonunchiligidagi yuz bergan o'zgarishlarni, tashqi savdo rejimini erkinlashtirish vazifalarini hamda boshqa tahririy tuzatishlar va qo'shimchalarni hisobga olib yangilandti. Tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib, yangi tahrirda tashqi iqtisodiy faoliyat turlariga aniqlik kiritildi. Qonunchilikdan qo'llash amaliyotida malakali foydalanish uchun Qonundagi asosiy atamalar va tushunchalarning talqini berildi, ular xalqaro huquqiy definitsiyalar bilan mos keladi.

Yangi tahrirdagi Qonunga erkinlashtirish talablariga mos keluvchi yangi qoidalar kiritildi, masalan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z huquq va manfaatlariga tegishli axborotlarga ega bo‘lish, xorijiy jismoniy shaxslarning O‘zbekiston hududida korxonalar ochish huquqi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining hakamlikni va qo‘llaniladigan qonunchilikni tanlash huquqi. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro‘yhatga olish taliibi chiqarib tashlandi.

Davlat organlarining vakolatlari qisqa va noaniq belgilangan Qonunning eski tahriridan farqli o‘laroq, yangi tahrirda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish uchun mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo vazirligining asosiy vakolatlari aniq belgilangan.

Mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va xavfsizligi himoya qilish ustuvorligi kontseptsiyasini rivojlantira borib, jahon amaliyotida va GATT/JST bitimlarida himoyaning aniq chora va usullari nazarda tutilgan – himoya, kompensatsiya va antidemping choralar, olib kelinadigan tovarlarga texnik, fitosanitar, ekologik talablar, eksport-importni taqiqlash va cheklash choralarini kiritilgan. Bu hozirgi bosqichda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiy manfaatlar talab qilganda cheklashlarni joriy qilish uchun muhimdir. U tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida bazaviy qonun hisoblanadi.

Qonunning yangi tahririda quroq-yarog‘larni, harbiy texnikani va ikki maqsadda ishlatishga mo‘ljallangan tovarlar eksportini nazorat qilishni boshqaruvchi me’yorlar, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning alohida tartibini boshqaruvchi maxsus moddalar kiritilgan. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlarini kafolatlashga va burchlarini belgilab berishga bag‘ishlangan bo‘limi ancha takomillashtirilgan.

Keyingi yillarda O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirishga qaratilgan, shu

jumladan eksport va import operatsiyalarini tariflar vositasida va tarifsiz boshqarishni tartibga solish, eksport mahsuloti ishlab chiqarishni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar ko'rildi. Mazkur choralarining hammasi imtiyozli tusda bo'lib, amaldagi huquqiy me'yordan ba'zi istisnolarni taqozo etadi. Biroq ular shunchaki imtiyozlar tizimi emas, barcha ko'rsatilgan imtiyozlar aniq yo'nalishga ega: ular yuqori darajada qayta ishlangan eksport mahsulotini ishlab chiqaradigan korxonalargagina tadbiq etiladi, shu sababli undan savdo-vositachi tashkilotlar, xomashyo resurslarini eksport qiluvchi va shu kabi boshqa tashkilotlar foydalana olmaydi.

Haqiqatda o'z mahsulotini ishlab chiqaruvchi va vositachi korxonalar uchun eksport-import, soliqlar vositasida tartibga solishning qo'shaloq tizimi barpo etildi. Agar ularga makroiqtisodiy nazariya pozitsiyalaridan turib qaraydigan bo'lsak, hech qanday farq bo'lmasligi kerak, lekin o'zgartirish jarayonlarini amalda ro'yobga chiqarish ravon sharoitlarda emas, balki o'tish davri sharoitlarida yuz bermoqda, shu sababli O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mazkur iqtisodiy strategiya tamlangan. Ayni ishlab chiqaruvchi korxonalar va vositachi korxonalarining faoliyat ko'rsatish sharoitlarini ajratish juda maqsadga muvofiq chora bo'ldi, zero hozirgi bozor iqtisodiyotining uzoq vaqt barqaror bo'lishi xuddi shu ishlab chiqaruvchi tuzilmalarga asoslanadi.

Xorij bozorlariga, ayniqsa MDH mamlakatlari bozoriga chiqishga intilib, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan mikroiqtisodiy subyektlarning hammasi anchagini qulay huquqiy sharoitga ega bo'ldi. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchi korxonalar huquqiy ahvolining foydali jihatlaridan amalda Respublikaning barcha xo'jalik yurituvchi subyektlari foydalana oladi, binobarin, mulkchilikning istalgan shaklidagi korxona va firmalar eksport-import va soliqqa oid imtiyozlardan foydalanishi uchun o'zlarining asosiy faoliyatlarini tegishli tarzda qayta qura oladi.

Tabiiyki, o'z mahsulotining faol eksportini ta'minlash bozorning xorijiy qatnashchilari bilan hamkorlik qilishda yanada

real bo'lib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari va ularning xorijlik sheriklari uchun qonun hujjatlarini muvozanatlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining mamlakatimizga chet el investitsiyalari oqimini tartibga soluvchi maxsus qonunlari qabul qilindi. 1994-yilda qabul qilingan ana shunday yo'nalishdagi dastlabki qonun («Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»), shashubhasiz, chet el investitsiyalarini jalb etish ishida ijobiy rol o'ynadi, lekin xo'jalik amaliyotining real holati uni yanada takomillashtirishni taqozo etdi, shuning uchun unga muayyan o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borildi (1994, 1995, 1997-yillarda).

1998-yilda O'zbekiston Respublikasida «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi yangi Qonun amaliyotga kiritildi, u iqtisodiy rivojlanishning o'zgarib borayotgan sharoitlariga javob beradi, jahon hamjamiyatida chet ellik investorlar va chet el investitsiyalariga nisbatan qabul qilingan barcha talablar va qoidalarni e'tiborga oladi.

Jahon hamjamiyatida allaqachon tadbirkorlikning milliy rejimini xorijiy qatnashchilarga tatbiq etish qoidasi belgilovchi qoidaga aylangan. U bir qator xalqaro hujjatlarda – Xalqaro savdo palatasining «Xalqaro investitsiyalar uchun amal qiluvchi qoidalari», Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (IHRT) «Sarmoya harakatini erkinlashtirish kodeksi» va «Xalqaro sarmoya qo'yilmalari va ko'p millatli korxonalar to'g'risidagi dekalaratsiya»sida mustahkamlangan. Bundan tashqari, Jahon banki va Xalqaro valuta fondi «Chet el investitsiyalari rejimi to'g'risida amal qiluvchi qoidalari»ni qabul qildi, unda chet el sarmoyasini biror bir mamlakatga kiritish qoidalari, rejimni qo'llashga doir standartlar, sarmoya va foydalarni o'tkazish tarbibi, nizolarni bartaraf etish qoida va mexanizmlari, bir qancha boshqa jihatlar ta'riflangan.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, O'zbekistonda chet el investitsiyalarining g'oyatda keng talqinidan foydalanilmogda. Bular barcha turdag'i moddiy va nomod-

diy boyliklar hamda ularga doir huquqlardir. Quyidagilar chet el investorlari bo'lishi mumkin:

- xorijiy davlatlar va ularning ma'muriy yoki hududiy organlari;
- xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- xorijiy davlatlarining yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Ushbu talqinda, yondashuvning keng va kompleks tusdaligi tufayli, Republikaga chet el investitsiyalarining oqimini jiddiy ravishda kengaytirishga shart-sharoit yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni chet el sarmoya qo'yilmalari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ko'plab shakllarni e'tirof etadi: ulush qo'shib qatnashish, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarini barpo etish, molumk va qimmatli qog'ozlarni sotib olish, intellektual mulkka doir huquqlarni kiritish, kontsessiyalar olish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga mulk huquqlarini sotib olish, yerga, tabiiy resurslarga egalik qilish va ular dan foydalanish huquqlarini sotib olish, shuningdek Respublika qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa shakllarni o'z ichiga oladi.

Mazkur Qonun va o'z institutlari bilan davlat chet el investorlariga O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari payida ularning huquqlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Moddalarning birida shunday deyiladi: "Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda havfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qara ganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Chet el investitsiyalarining huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshi-

rilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas".

Shu bilan birga chet el investorlariga xalqaro huquq qoidalariga muvofiq g'oyatda keng huquqlar berilgan, shu jumladan investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish, o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish erkinligi.

Chet el investorlari investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalarini patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qiladilar, olingan daromadni mustaqil tasarruf etadi. Respublikaga kredit va qarzlar tariqasida pul mablag'larini jalb etish, o'z hisob varaqlaridagi milliy valuta mablag'laridan ichki valuta bozorida chet el valutasini sotib olish uchun foydalanish huquqiga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga egadirlar.

Chet el investorlari uchun investitsiya faoliyatini amalga oshirish maqsadida har qanday xorijiy davlatning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar bilan mehnat shartnomalarini erkin tuzish imkoniyatlari yaratilgan. Ular butun O'zbekiston hududi bo'ylab erkin harakatlana oladi, mamlakatimiz investorlari bilan teng holda sug'urta himoyasiga bo'lgan huquqdan foydalanadi.

Chet el investorlari uchun ayniqsa shu narsa muhimki, mazkur Qonunning va boshqa qonun hujjatlari yoki xalqaro shartnomalarning qoidalari muvofiq kelmagan hollarda investitsiya faoliyati uchun birmuncha qulay bo'lgan, binobarin, investorlarning manfaatlarini himoya qiladigan qoidalari ustivor kuchga ega bo'ladi. Aytib o'tilgan huquqlardan istisnolar arzimagan daramada va ular faqat milliy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan bog'langan, bu hol esa har qanday davlatda tabiiydir.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunning asosiy qoidalari xalqaro amaliyotda qabul qilingan talablarga to'liq muvofiq keladi, zero chet el investorlari Respublika ichki bozorida

mamlakatimiz investorlari bilan teng sharoitlarga qo'yilgan. Bi-roq, shuni e'tiborga olish joizki, ushbu Qonunga ko'ra, chet ellik investorlar O'zbekiston hududida chet el investitsiyalari ishtirotidagi korxonalarini barpo etishlari va ularga Respublika qonun hujjalariiga binoan taqdim etiladigan imtiyozlar tizimidan foy-dalanishlari mumkin. Ushbu imtiyozlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 20 martda qabul qilingan «Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1996-yil 31 mayda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari ishtirotidagi korxonalarini barpo etish va ular faoliyatini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlarida va bir qator boshqa qonun hujjalariда ta'kidlangan.

Bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo'naliishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy mustahkamlanishi, barqaror rivojlanishi, uning jahon xo'jaligi tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ko'p jihatdan davlatning barcha ko'rinishidagi tashqi iqtisodiy siyosatni (TIS) erkinlashtirishga bog'liq.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishdagi davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi optimal darajada proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqazo etadi.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning (TIA) davlat tomonidan tartibga solinishi ayniqsa muhim. Bu esa birinchi navbatda tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yurgizishni talab etadi.

TIS mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin ushbu tushuncha mazmunini aniqlashtirib olish zarur.

TIA larni davlat tomonidan tartibga solish – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy islohatlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapitallar oqimini kuchaytirishga yo'natirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora tadbirlar tizimidir.

Bu tashqi iqtisodiy siyosatning eng umumiyo ta'rifi. Ushbu tarifni aniqlashtirish uchun tashqi iqtisodiy siyosat davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlash joizdir.

Birinchidan, o'tish davri sharoitida tashqi iqtisodiy siyosat yangi iqtisodiy uklad shakllanishining muhim omili, iqtisodiy hayotning bozor munosabatlariga monand ilg'or shakllarini barpo etishning vositasi hisoblanadi va qat'iy markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning nodinamik, qotib qolgan shakllaridan keskin farq qiladi. U iqtisodiy ma'muriy chora tadbirlardan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qator asosiy vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan:

- Milliy iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini rag'batlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlash.
- Ichki bozorni himoya qilish.
- Tarkibiy qayta o'zgarishlar amalga oshirilishiga ko'maklashish.
- Mamlakat hududlaridagi resurslardan foydalanish va hokazo.

Ikkinchidan, puxta o'yangan va muvozanatli tashqi iqtisodiy siyosat davlat tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi, milliy iqtisodiyotni jahon bozorlaridan himoya qilishga, uning jahon xo'jalilgiga uyg'unlashishi uchun faoli ko'maklashishga yo'naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati jahon-dagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar nisbatan tez o‘zgarayotganligini hisobga olib, jo‘sinqin, harakatchan, moslashuv-chan bo‘lishi zarur. Ayni vaqtda, respublikamiz jahon xo‘jaligiga qo‘shilayotgan bir sharoitda, gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini rag‘batlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish to‘g‘risida borar ekan, buning uchun yetarlicha barqaror bo‘lishi talab etiladi. Bundan tashqi iqtisodiy siyosat o‘z rivojlanishining ilmiy asoslangan kontsepsiyasiga tayanganidagina erishish mumkin.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy siyosat – bu davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish orqali mamlakatning ishlab chiqarish omillari xalqaro taqsimotida qatnashuvi samarasini oshirishga qaratilgan muayyan harakatlar majmuidir. Uning asosiy ko‘rinishlari tashqi savdo siyosati (alohida eksport vaimport siyosatini uz ichiga oladi), tashqi sarmoyalar siyosati, valuta munosabatlarini tartibga solish siyosatidan iborat. Bundan tashqari alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni jugrofiy jihatdan muvozanlashtirish masalalarini ham TIS hal etadiki, bu hol o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy xavfsiziligini ta’minlash bilan bog‘liq.

TIFni erkinlashtirish deganda, eng avvalo, TIA qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga solish ma’muriy uslublarining ma’lum qadar qisqarishi, mavjud to‘siq va g‘ovlarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlaqo muqarrar, ichki iqtisodiy munosabatlар erkinlashtuvining mantiqiy natijalaridir. Samarali bozor mexanizmi faqatgina jahon bozor munosabatlari bilan uzviy aloqada tashkil qilingan bo‘lishi mumkin. Yana bunda eng muhimi turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma’lum darajada o‘xshashligidir. TIS ni erkinlashtirish islohatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘tish davri iqtisodiyoti masalalari yechimimni tezlashtiradi.

Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari – xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirish, TIA

larning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishiga barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to'siqlarni olib tashlash, eksportni rivojlanishini faollashtirish, milliy valutaning konvertatsiya qilinishini ta'minlashdir.

Bu shakllar jahon tajribasi ko'rsatganidek, amaldagi bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Biroq, ular to'liq holda hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida ham qo'llanmaydi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda, davlat ma'lum cheklanishlarni o'rnatadi, bojxona tariflaridan keng foydalanadi, turli xil ta'qiqlarni kiritadi va hokazo. Bozor mexanizmi endi shakllanayotgan, mavjud ishlab chiqarish tizimi bozor sharoitlariga xali to'liq moslashmagan o'tish davri iqtisodiyotda davlatning roli yanada muhimdir.

Shuning uchun o'tish davri iqtisodiyotida TIA ni erkinlashtirish siyosati ichki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga zarar keltirmagani holda, mamlakatda bozor munosabatlarining tezkor rivojlanishini va uning jahon xo'jaligiga uyg'un qo'shilishini maqbul darajada ta'minlashi zarur.

Moliyaviy kapital bozorining ochiqlik darajasi alohida masala sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shak-shubhasiz ochiqlik darajasi birinchi navbatda investitsiyalarni bevosita jalb qilishni ta'minlashi zarur. Biroq portfel investitsiyalar shuningdek o'rta va qisqa muddatli kreditlarni jalb etish ancha murakkab masala. Yaqinda kuzatilgan Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi moliyaviy tenglik shuni ko'rsatadiki, mamlakatdan kaptallarning birdaniga chiqib ketish jarayoni yuz berganda qisqa muddatli kapitallar erkin harakati iqtisod rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, kredit va fond resurslari erkin harakatining mushkullashtirilishi, tabiiyki, milliy xo'jalik imkoniyatlarini cheklaydi.

Valyuta bozorining erkinlashtirilishi milliy valutaning konvertatsiya qilinishi, avvalambor joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiya qilinishini ta'minlashni bildiradi. Valyuta bozorining to'liq liberallashuvi, albatta kapital hisobi bo'yicha konvertatsiya qilinishi ham ko'zda to'tadi. Biroq, moliyaviy tizim samarasini

past bo'lgan mamlakatlar valutaning to'liq konvertatsiya qilinishiga shoshilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda TIFni amalga oshirishda na zaruriy institutlarga, na yetarli mutaxassis-larga, na samarali o'rnatilgan aloqalarga ega edi. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda o'z TIS ni ishlab chiqish va yurgizishda katta qiyinchiliklarga duch keldi.

Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan erkinlashtirish natijasida O'zbekiston tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmoqda: litsenziyalashtiriladigan tovarlar ro'yxati qisqardi; miqdoriy cheklashlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda. Erkin konvertatsiya qilingan valuta o'zi ishlab chiqargan raqobat-dosh tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga jalg qilishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzlusiz ravishda takomillashib bormoqda. Investitsion qo'yilmalarni sug'urta qilish tizimi rivojlanib bormoqda, moliyalashtirishning eng murakkab sxemalarini qo'llash asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy infratuzilmalar shakllanmoqda.

Biroq, mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar xali ham saqlanib qolmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat tartibga solinishining zarurligi nimada?
2. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishini rag'batlantirish.
3. Ichki bozorni himoya qilishning iqtisodiy mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy rivojlanishi asosiy ko'rsatkichlarining hozirgi holati.
5. O'zbekistonda TIFni tashkil etish va boshqarishning huquqiy asoslari.

6. TIFni tashkil etish, boshqarish davlat tashkilotlari va ularning asosiy vazifalari.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: «O'zbekiston», 1997-y.
2. А.П.Киреев. Международная экономика. М: Международные отношения, 1999 г.
3. В.Г.Свинухов. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД, М: Экономист, 2004 г.
4. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
5. Международные экономические отношения, Учебник, М., Инфра-М, 2004 г.
6. Международные экономические отношения, Учебник, М., Проспект, 2004 г.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-y.
2. И.И.Дюмулен. Всемирная торговая организация. М: Торгово-промышленная палата РФ, 1997 г.
3. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo'mitasi vebayti.
4. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebayti.
5. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vebayti.

## **4-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING OPTIMAL TIZIMINI SHAKLLANTIRISH**

### **REJA:**

- 1. TIFni tartibga solish vositalarini takomillashtirish.**
- 2. TIFni tartibga solishda iqtisodiy vositalardan foydalanish bo'yicha jahon tajribasi.**
- 3. TIFning optimal tizimini shakllantirishda bojxona organlarining ahamiyati.**

O'zbekiston uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag'batlantirish – erkin ayirboshlanadigan valutada daromadlar o'sishiga olib keladi. U jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv kuchayishida muhim omil sanaladi. Eng muhimi, u iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydigan milliy valutani mustahkamlash, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan muhim harakat hisoblanadi.

Ma'muriy nazoratning qisqarishi orqali zamonaviy xalqaro qoidalarga muvofiq tashqi savdoni bozor mexanizmlari vositasida tartibga solinishi respublikada o'tish davriga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishni va isloh qilish uslublarini takomillashtirishni talab qiladi. Xo'jalik subyektlarining makroiqtisodiy bozor islohotlari natija-sida vujudga kelgan rag'batlantirish omillaridan to'liq foydalanishni ta'minlash uchun O'zbekiston xalqaro moliyaviy va texnik yordamga muhtojdir. Respublika xo'jalik subyektlarining xalqaro savdo jarayonlarida ishtiroki hozirgi kunda faqatgina to'plangan tajribalar va o'rnatilgan savdo aloqalari hisobiga jahon bozori holati bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlar bo'limgan va bu sohada ilmiy izlanishlar deyarli yo'q sharoitda ro'y bermoqda.

TIF sohasida respublika duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

- TIFlarning o'zgaruvchan shart-sharoitlarini inobatga oluchi, ularni davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy asoslangan kontseptsiyasining mavjud emasligi;

- TIF ishtirokchilarining aksariyat qismida tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyoti, jahon bozoriga kirish shart-sharoitlari, huquqiy va texnik jihatlari to'g'risida maxsus bilimlarning yetishmasligi.

- Juhon bozorlari haqida kerakli tijoriy ma'lumotlarning yetishmasligi yoki yo'qligi.

- Bojxona va eksport-import nazoratini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning talab darajasida emasligi.

TIF sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etishda har tomonlama ilmiy asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat kontseptsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zaruriyati tugiladi.

Odatda, kontseptsiya tashqi iqtisodiy muhit o'zgarishiga ong-li ravishda moslashish extiyoji tug'ilganda ilmiy doiralar tomonidan yaratiladi. Oqilona tuzilgan tashqi iqtisodiy siyosat kontseptsiyasi avvalambor iqtisodiyotdagi ahvolni tubdan tahlil qilish bilan boshlanadi. Tahlil makrodarajada — mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, uning budgeti, to'lov balansi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish, aniq bozorlar darajasida esa, talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tafsifini, raqobatni va hokazolarni o'rganish asosida amaǵa oshiriladi. Taxlil davomida yechimi talab etiladigan muammolar aniqlanadi. Ularni hal etish, salbiy hodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning muqobil oqibatlari baholanadi.

TIF kontseptsiyasini yaratishda muhim bosqichlardan yana biri barcha imkoniyatlarni belgilashdan, ya'ni TIF sohasidagi asosiy maqsad va vazifalarni aniqlashtirishdan iborat. Ushbu bosqichda har bir maqsadning xususiyati aniqlanadi, ya'ni maqsadlar, dastlabki yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, qisqa, o'rtacha yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Maqsadlar, shuningdek, ularning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish qo'lamlari va harajatlarning miqdor ko'rsatkichlari, institutsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari bo'yicha ham farqlanadi.

Taxlil yaxlit tizimni barpo etish — maqsadlar ierarxiyasi tizimini barpo etish, ularning darajalari bo'yicha vaqtincha taqsim-

lash va tizimi ichida maqsadlarning harakat qilishi istiqbollarini shakilantirish bilan yakunlanadi.

TIF kontseptsiyasini ishlab chiqishda ayrim tartibga soluvchi vositalar qo'llanilishi shartlarini, ayrim vositalarning birgalikda qo'llanilishi darajasini, ularning maqsadga muvofiqligini, ularni qo'llashda ko'rildigan qo'shimcha samaralarni, tartibga solish vositalari samaradorligini va amaliyotga qo'llash zarurligining yetarlicha asoslanganligini aniqlash ham muhimdir.

Kontseptsiya vaqtি-soati kelib, TIFga transformatsiyalashuvchi hukumat doktrinasi bo'lib qoladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda keng miqyosdagi jahon tajribasiga, ya'ni dunyodagi rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar tajribasiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda, ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi O'zbekiston uchun amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaponiyada, masalan, ilmiy asoslangan TIF mamlakat rivojlanishida muhim amaliy omil hisoblanadi. U milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, jahon xo'jaligiga chuqur integratsiyalashuvni ta'minlab, Yaponiyani xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va savdo markazlaridan biriga aylantirdi. Yaponiyada tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi barcha bosqichlarda – mamlakatdagi va xorijdagi iqtisodiy ahvol taxlili, tarkibiy va jug'rofiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari strategiyasini belgilashdan tortib, to ma'muriy va iqtisodiy rag'batlantiruvchi vositalarning keng tizimini qo'llashga qadar amalga oshiriladi.

TIFni davlat tomonidan tartibga solishning yaponcha amaliyotida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, ya'ni qonuniy, ma'muriy-huquqiy, iqtisodiy, norasmiy uslublardan samarali foydalaniadi.

90-yillarda TIFning asosiy maqsadlari sifatida yangi xalqaro iqtisodiy tartib-qoidalarni tashkil qilish va rivojlantirishda mamlakatning faol qatnashuvi e'lon qilindi. Unda intellektual mulkni himoya qilish huquqlarining xalqaro qoidalari va kapitallar harakati, xorijiy investitsiyalar standartlarining uyg'unlashuvi va yangi me'yortari ishlab chiqildi. Rivojlangan mamlakatlar

makroiqtisodiy va valuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish, xalqaro iqtisodiy tizimlarni mustahkamlash, tashqi savdo nomutanosibligini tartibga solish, rivojlanayotgan iqtisod tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yangi mustaqil davlatlarning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini kuchaytirishga, shu jumladan, O'zbekistonda isloxotlarni amalga oshirishda moliyaviy-texnikaviy yordam ko'rsatishga katta ahamiyat berilmoqda.

TIFni tartibga solishda iqtisodiy dastaklar muhim rol o'ynaydi. Yaponiya Xalqaro kooperatsiya banki (sobiq Yaponiya Eksimbangi) eksport-import operatsiyalarini va yapon kompaniyalarining xorijga investitsiyalarini kreditlashda samarali vositachi vazifasini o'taydi. Mamlakatda eksport va importni rag'batlantirishga qaratilgan, boshqa davlatlarda o'xhashi bo'limgan imtiyozlar tizimi qo'llaniladi.

TIFning rivojlanishiga milliy operatorlar manfaatlarini har qanday xavf-xatarlardan ishonchli himoya qiluvchi jahondagi eng yirik ko'p turdag'i savdo va investitsiyalarini sug'urtalash davlat tizimi ko'mak beradi. U umumiyligi savdo sug'urtasini, valuta xatarlari, eksport veksellari, eksport obligatsiyalari, import uchun avans to'lovleri, xorijiy korxonalarga kreditlar berilishi sug'urtasini uz ichiga oladi.

Shu bilan birga, davlat tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etuvchi bosh tashabbuskor sifatida chiqadi va bu faoliyatni budget mablag'laridan moliyalashtiriladi. Ushbu tizim marketing ma'lumotlarini to'plash va taxlil qilish, axborot berish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, reklama-ko'rgazmaga oid ishlarni tashkil qilish kabi faoliyat sohalarini qamrab oladi. U TIF samaradorligining oshishiga, TIFga yangi qatnashuvchilarning qo'shilishiga yordam beradi.

TIFda davlat ishtirokining muhim yo'nalishlaridan yana biri, tijorat ishlarini kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash, xorijiy tijorat ma'lumotlarini yigish va taxlil qilish hisoblanadi. Bunday keng qamrovli faoliyatga Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi savdo va sanoat vazirligi, Fan va texnika boshqarmasi, Iqtisodni rejalashirish boshqarmasi va boshqa tashkilotlar jalb qilinadi. Bunda 1958-yilda tashkil etilgan va hukumat tomonidan to'liq moliya-

Iashtiriladigan tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashuvchi notijorat Yapon tashkiloti (DYYeTRO) ayniqsa muhim o'rinnegallaydi.

Yaponianing o'zida (31 axborot markazi) va boshqa mam-lakatlar hududlarida (28 ta) turli sohalardagi rivojlangan axborot tarmoqlariga ega DYYeTRO jahondagi eng yirik ishbilarmonlikka oid ma'lumotlar manbai bo'lib hisoblanadi. Uning axborotlar bazasi katta miqdordagi ma'lumotlar, shu jumladan, xorijiy eksportchilar va yapon importerlarining keng qamrovli ro'yxatidan iborat.

Yapon tashqi iqtisodiy majmuasining samaradorligi ko'p jihat-dan TIF institutsional asoslарining mustahkamligiga bog'liq. Bu sohada davlat boshqaruvi organlari tizimi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ma'muriy boshqarish (Tashqi savdo va sanoat vazirligi), muvofiqlashtirish (Savdo kengashi) va maslahat berish organlari, TIFni davlat tomonidan boshqarishda yapon tizimining asosiy xususiyati sifatida turli darajalarda, hatto, hukumat va bosh vazir darajasida faoliyat ko'rsatuvchi ko'p sonli (200 dan ortiq) turli maslahat organlarini keltirish mumkin. Ularning tarkibida nafaqat davlat amaldorlari, balki jamoat, ommaviy axborot vosita-lari, ishbilarmonlar, ilmiy doiralar vakillari ham bo'lib, bu tashkilotlar faoliyati ilmiy asoslangan TIFni ishlab chiqish va amalga oshirishda, shuningdek, bu sohada umumiyl kelishuvga (konsensusga) erishishda muhim rol o'ynaydi.

TIFni tartibga solishning yapon tizimi o'zaro davlat va biznes munosabatlarining maxsus paradigmasi bilan farq qiladi. Uning asosida xususiy sektor tomonidan davlat siyosatining eng muhim strategik yo'naliishlarini xech bir e'tiborsiz qabul qilinishi yotadi.

Janubiy Koreyada ham TIFni davlat tomonidan tartibga solishning ko'pgina qiziqarli va foydali tomonlarini ko'rish mumkin. Xususan, eksportga yo'naltirilgan muhim tarmoqlardagi firma ichki harajatlari va mahsulot sifatining davlat tomonidan nazorat qilinishi tajribasi O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Mamlakat Prezidenti eksport muammolari bo'yicha Kengash majlisini har oyda o'tkazib turadi, eksport bo'yicha topshiriqlar belgilanadi. Davlat, shuningdek, xorijiy kapitalni nazorat qiladi, xorijiy valutalar behisob oqib kelishining

bartaraf etilishini mustahkam ta'minlaydi. (1948-yildan boshlab, xorijiy valutalarni Markaziy bankning maxsus hisob raqamlarida majburiy saqlashga amal qilinadi). Milliy eksporterlar doimiy ravishda subsidiyalar bilan ta'minlanib turiladi. (70-yillarda bu maqsadlarga YaMMning 10 foizi atrofida harajatlar kilingan).

Yaponiyadan farqli o'laroq, Janubiy Koreyada yirik biznes kichik biznes evaziga rivojlandi. Aynan yirik konglomeratlar (chebollar) tashqi bozorga yo'naltirilgan koreys rivojlanish modelida asosiy o'rinni egallaydi. Davlatning chebollar tashqi iqtisodiy faoliyatiga xayrixohligi ularning foydasiga xorijiy yordam va subsidiyalar, imtiyozli ichki va valuta kreditlarining taqsimlanishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, chebollarning hukumat bilan yaqin aloqada bo'lishi ularga eng istiqbolli mulkka egalik qilishga, foydali davlat buyurtmalarini olishga, tashqi savdo imtiyozlari va boshqa ustunliklarga erishishiga imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, yirik biznesni moliyalashtirishning «qulay» shartlari anchagina muammolarni tug'dirdi. Chebollarni iloji boricha yiriklikka intilish (gigantomaniya) qamrab oldi, nufuzli obyektlar soni ko'paydi, kam samarali ishlab chiqarish yuzaga keldi. Moliyalashtirishning tashqi manbalariga, shuningdek, oliy va o'rta tabaqa mansabdorlarining «ishonchliligi»ga tobe'lik sezilarli darajada kuchaydi. Bu esa korruptsiyaning kuchayishiga, biznesning siyosatga keraksiz aralashuviga olib keldi.

Shak-shubhasiz, mamlakatlar bir-biridan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va xo'jalik tarkibi bo'yicha har qancha farqlansa ham, xalqaro tajribani urganish va ijodiy o'zlashtirish zarur. Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda TIFni davlat tomonidan tartibga solishning samarali jihatlaridan milliy xussiyatlarimizni har tomonlama inobatga olgan holda O'zbekistonda ham keng foydalanimishi mumkin.

Gap rivojlanishning milliy strategiyasida tashqi omillarni inobatga olish zaruriyati to'g'risida boryapti. Shu sababli, TIFning davlat tomonidan oqilona tartibga solinishi, ya'ni jahon xo'jaligiga spontan (o'z-o'zidan yuzaga keladigan) stixiyali integratsiyalashuvdan ochiq iqtisodiyotni tartibga solish va nazorat qilishga o'tilishi makroiqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, davlatning TIFni tartibga solish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tarkibiy siyosat maqsadlari, istiqbollari va amalga oshirishda qatnashuvini kuchaytirish o'rini bo'ladi.

TIF makroiqtisodiy barqarorlashtirish, ishlab chiqarish bazasini bosqichma-bosqich modernizatsiyalashtirish va investitsiya faoliyatini jonlantirishga qaratilgan hukumat umumiyligi siyosatining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Uzoq xorijiy mamlakatlar va MDH bozorlariga o'zbek mahsulotlari harakati uchun qulayliklar tugdiruvchi choralarmi qabul qilish, eksport va importning samarali tovar tarkibini maqsadli shakllantirish va shu asosda faol tashqi iqtisodiy strategiyaga o'tish juda zarur.

TIF sohasidagi isloxoitlar barqarorlikka erishishning qisqa muddatli masalalari yechimiga emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalishga ega bo'lsa, bu, shak-shubhasiz, iqtisodiyot samaradorligining ko'tarilishiga imkon beradi. O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni quyidagi muammolarga qaratish lozim.

Birinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ishlarni davom ettirish juda muhim. Amaldagi qator qonunlarga, xususan, valutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, vazirliklar va davlat idoralari tomonidan qonunlar, Prezident Farmonlari, hukumat qarorlari mazmunlarini aniqlashtiruvchi me'yoriy hujjalarni ishlab chiqish ijobiy rol o'ynashi mumkin.

Ikkinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'nalishdagi birinchi qadamlar (eksportni rag'batlantirish bo'yicha tashkil etilgan Respublika komissiyasi faoliyatii) kerakli samara bergani yo'q. Ma'muriy-boshqaruvi apparati xodimlari sonini mexanik tarzda ko'paytirmasdan, amaldagi tashkiliy bo'g'inlar, muhim bo'linmalarning birlashishi, funksional qayta bo'ysunishi va shu kabilar orqali ularning vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan holda, respublika TIF boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish lozim. Bu o'rinda maslahatchi organizmlar faoliyatlari xalqaro tajribasiga e'tiborni qaratish ahamiyatga molik.

Uchinchidan, Respublika budjet mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan (imkon qadar tadbirkorlar tizimi resurslarini jalb qilgan holda) va maxsus vakolatli tashkilotlar tomonidan boshqariladigan (Yaponiyaning DJYeTRO tashkilotiga uxshash) tashqi savdo faoliyatini axborot bilan ta’minlanishi uchun umum davlat tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarur. Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bunday tizim amalda samarali qo’llanilishining muhim sharti axborot-maslahat xizmati idoralarining keng tarmog‘ini tashkil etishdir. Agarda O‘zbekiston O‘rtta Osiyo mintaqasida axborot moliyaviy markaz sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlay olsa, unda mamlakat salmoqli foydani qo‘lga kiritadi. Shuning uchun mamlakatda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashish va axborot biznes sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalarni transmilliy lashtirishni qo‘llab-quvvatlash zarur. Ushbu tizim reklama-ko‘rgazma ishlarini tashkil qiluvchi, axborot maslahat xizmati ko‘rsatuvchi, marketing ma’lumotlari yig‘uvchi, taxlil qiluvchi turli tarmoqlarga bo‘lingan bo‘lishi kerak. TIF muammolari bo‘yicha keng ilmiy izlanishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish ham uning samaradorligini ko‘tarishga yordam beradi.

Nihoyat, to‘rtinchidan, TIF rivojlanishiga milliy operatorlarning manfaatlarni turli xavflardan himoya qiluvchi savdo va investitsiyalarni davlat tomonidan sug‘urta qilishning diversifikatsion tizimi bevosita turtki bo‘lishi mumkin. U o‘zida savdoni umumiyligi sug‘urtalash, valuta xavflarini sug‘urtalash, import uchun avans to‘lovlari, xorijiy investitsiyalar va hokazolarni sug‘urtalashni mujassamlashtirishi mumkin.

Tanlangan ishlab chiqarish sohalarida, iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish va eksportga yo‘naltirish kontseptsiyalariga ko‘ra, davlat yangi texnologiyalarni qo‘llash yoki yangi bozorlarni egalashda katta moliyaviy harajatlar talab etadigan yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish va bu sohada izlanishlar o‘tkazishni qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning optimal tizimini shakllantirishda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ahamiyati katta. Chunki bojxona organlari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va uni amalga oshirilishi ustidan oqilona nazoratni tashkil etib, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga uzviy kirishi mustaqil O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning strategik maqsadlaridan biridir. Hozirgi iqtisodiy rivojlanishda tashqi iqtisodiy jihatni, uning jahon fan-texnika taraqqiyotining milliy iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatidagi ahamiyati ko'p jihatdan respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tarkibiga jadal kirishiga, xo'jalik faoliyatining ko'p sohalarida xorij tajribasini o'zlashtirishga imkon beruvchi tashqi iqtisodiy aloqalar ilg'or shakllarining ustuvor rivojlanishi belgilab beradi.

O'zbekiston xalqaro mehnat taqsimotida o'zining tabiiy-iqtisodiy, transport-jug'rofiy va madaniy-tarixiy shart-sharoitlari va imkoniyatlari bilan ishtirok etmoqda. Bu hol respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va uni jahon xo'jaligiga integratsiyalash muammolari bilan bog'liq tadqiqotlarni o'tkazish zaruriyatini shartladi. Quyida ko'rib chiqilayotgan mamlakat to'lov balansini tuzish va tahlil qilishning ba'zi jihatlari ushbu jarayonda eng muhim va zarur unsur hisoblanadi.

Turli mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liqligi kuchayayotgan bir sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyatning to'lov oqimlari balanslanmaganligi, to'lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasida aks etadigan chet el sarmoya qo'yilmalarining kelishi va ketishi singari jihatlari, shubhasiz, mamlakatning tashqi va ichki iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Bu ma'lumotlar tahliliy tadqiqotlar uchun ham muhim. Ular mamlakatning to'lovga qobilligi holatining yomonlashish sabablarini belgilash va uni yaxshilashga doir zarur choralar ko'rish; tovar va xizmatlar tashqi savdosining bevosita chet el investitsiyalari bilan o'zaro bog'liqligini tadqiq etish; xalqaro bank tizimi doirasida moliyaviy mablag'lar oqimlari va zahiralarini ko'rib chiqish; ak-

tivlar va bozorga doir boshqa muhim tamoyillarni sekyuritizatsiyalash oqibatlarini aniqlash; tashqi qarz, daromad to'lash va iqtisodiy o'sish muammolarini, shuningdek, valuta kurslari bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalar oqimlari o'rtaqidagi aloqalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Mamlakat tashqi savdosining tarkibiy tuzilishi qanday omil-larga bog'liq?
2. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish kontseptsiyasi.
3. Tovarlarning jahon bozoridagi kon'yunkturasini o'rganish usullari.
4. Mamlakat eksport salohiyati va uni belgilovchi asosiy omillar.
5. O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan choga-tadbirlar mohiyatini tushuntirib bering.
6. Tashqi iqtisodiy siyosat kontseptsiyasi nima?
7. Tashqi iqtisodiy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dastaklari.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: «O'zbekiston», 1997-у.
2. А.П.Киреев. Международная экономика. М: Международные отношения, 1999 г.
3. В.Б.Буглай, Н.Н.Ливенцев. Международные экономические отношения. М: Финансы и статистика, 1996 г.
4. В.И.Фомичев. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г.
5. Н.А.Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика. Ш-изд., М., Дело-сервис, 2004 г.
6. Международные экономические отношения. Учебник, М., Инфра-М, 2004 г.
7. Международные экономические отношения. Учебник, М., Проспект, 2004 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997-y.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г
4. И.В.Малкова. Мировая экономика, в вопросах и ответах, М., Проспект, 2004 г.
5. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojhona qo'mitasi vebsayti.
6. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojhona Akademiyasi vebsayti.

1. ЎзР ТИААда 2004 йилнинг 5-17 январида “Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият юритувчи корхоналар раҳбарларининг малакасини ошириш курси” тарқатма маълумотлари.

2. Ўзбекистон Республикаси Божхона кодекси.

## **5-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT BOSHQARUVI VOSITALARI**

### **REJA:**

- 1. Xalqaro savdoda davlatning roli.**
- 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvi vositalari va ularning tasniflanishi.**
- 3. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish.**

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlari faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtaisdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashuvidir.

Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini, o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama o'ylangan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllaridan bo'lmish – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatning savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'liq. Savdo siyosatining tub moxiyatidan kelib chiqilsa, iqtisodiy masalalar asosiysi hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatini savdo siyosatining mavjud vositalari yordamida tartibga soladi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish deb odatda boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Xalqaro savdoga davlat aralashuvi darajasiga ko'ra savdo siyosatini proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga ajratish mumkin. Tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish davlatning alo-

hida olingan mamlakatlar va mamlakatlar guruhlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalardagi strategik maqsadlarni aniqlashni, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishishni va erishilgan natijalarni saqlab qolishni ta'minlovchi usullar va vositalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashkiliy tuzilishlari tovarlar va xizmatlarning xalqaro miqyosdagi oldi-sotdisi, shuningdek moddiy, pul, mehnat va intellektual resurslari xalqaro harakatidan iborat bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi. Hozirgi kunda deyarli barcha davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosatni keng miqyosdagi vositalari nafaqat ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, yo'nalish va tarkibiy tuzilishini shakllantirishga, balki boshqa davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalariga va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat davlatning ichki iqtisodiy siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham uning tarkibi, bir tomonidan, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi tabiatini bilan, ikkinchi tomonidan esa, o'z milliy xo'jaligi miqyosida davlat tomonidan yechilayotgan ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bilan ifodalanadi. Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining shakllanishiga jahon xo'jaligida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ro'y berayotgan:

- jahon bozorida raqobat kurashining keskinlashuvi;
- valuta kurslari mo'tadilligining buzilishi;
- to'lov balanslarining bir me'yorda emasligi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan ba'zi davlatlar tashqi qarzlarining kattaligi kabi hodisalar ta'sir etadi.

Yuqorida keltirilgan jarayonlarning ta'siri zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosatda ikki: erkinlashtirish va proteksionizm (himoya qilish) jarayonlarining o'zaro doimiy ta'sirini vujudga keltiradi.

Alovida ta'kidlash kerakki, XIX asr o'rtalaridan to XX asr o'rtalarigacha iqtisodiy g'oyalar va xo'jalik yuritish amaliyoti erkin savdo va proteksionizm tamoyillarining keskin kurashi bilan birga rivojlanib bordi. Erkin savdo g'oyalarining umumiyligi ustunligi davom etgan holda alovida davrlarda proteksionizmning jolanishi va rivojlanishi kam kuzatildi.

«Международные экономические отношения»<sup>3</sup> kitobida yozilishicha, davlatlarning zamonaviy sadvo siyosati ikki tendentsiya – proteksionizm va liberallashuvining rivoji hamda o‘zaro kurashi bilan ajralib turadi. Bu ikki tendentsiyaning har biri mintaqaviy va xalqaro savdo rivojining muayyan bosqichlarida ustunlik qilib kelgan. Agarda 50-60-yillarda liberallashtirish tendentsiyalari ustunlik qilgan bo‘lsa, 70-80-yillarda «yangi» proteksionizm to‘lqini tarqaldi.

50-60-yillarning liberallashtirish tendentsiyasi boj tariflarining pasaytirilishi, valuta va miqdoriy cheklashlarning qisqartirilishi shaklini olgan. Agarda 50-yillarning o‘rtalarida Yevropa mamlakatlari va AQSHda boj stavkalarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 30-40 % bo‘lgan bo‘lsa, 70-yillarda uning o‘rtacha ko‘rsatkichi 7-10 % ni tashkil etgan, hozir esa 3-5 % atrofida.

«Экономика внешних связей России»<sup>4</sup> kitobida tashqi savdo davlat tomonidan nega boshqariladi, deb savol beriladi. Axir nisbiy harajatlar nazariyasiga ko‘ra, xalqaro mehnat taqsimoti davlat nazoratisiz hamma narsani joy-joyiga qo‘yadi. Iste’molchi tovarni uning qayerda ishlab chiqarilishidan qat’iy nazar, sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bozordagi o‘rinlarini yo‘qotib qo‘ymaslik uchun ishlab chiqaruvchilar harajatlarni qisqartirishga va yanada yaxshiroq ishlashga harakat qiladilar. Tovar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining bir davlatdan ikkinchi davlatga erkin harakatiga imkoniyat yaratilsa, butun dunyo taraqqiyot sari yo‘l tutadi.

Bunday yondashuvda jon bor, albatta. Lekin talab va taklif qonuni benuqson amal qiladigan ideal iqtisodiyotning o‘zi mayjud emas. Iqtisodiy qonunlar taraqqiyotning muayyan tendentsiyalarini aks ettiradi, biroq, ularning haqiqatda amal qilish mexanizmi yetarlicha murakkab.

«Основы таможенного дела»<sup>5</sup> asarida ta’kidlanishicha, savdo erkinligining har tomonlama afzalligiga qaramasdan, xalqaro ayriboshlashni erkinlashtirish samarasi hamkorlar o‘rtasida vaqt bo‘yicha notekis taqsimlanadi. Avval bunday samarani kuchli taraf

<sup>3</sup> Буглай Б., Ливенцев Н. Международные экономические отношения. М.: Финансы и статистика, 1996-у. 18-30-betlar

<sup>4</sup> Супринович Б. Экономика внешних связей России. М.: Финансовая академия при правительстве РФ, 1994-у. 27-42-betlar

<sup>5</sup> Драганов В.Г. Основы таможенного дела. М.: Экономика, 1998-у.

olsa, kuchsiz taraf uni keyinroq oladi. Bu hol, avvalombor, taraf-larning xalqaro mehnat taqsimotiga moslashganlik darajasiga bog'liq. Kuchli taraf iqtisodiyoti kuchsiz taraf iqtisodiyotiga qara-ganda xalqaro mehnat taqsimoti talablariga ko'proq javob bera-di. Shuning uchun kuchli iqtisodiyot xalqaro savdoning erkin-lashuvi samarasiga darhol erishsa, kuchsiz iqtisodiyot uchun struk-turaviy qayta qurish, kapital va ishchi kuchining sohalararo hara-katini faollashtirishga to'g'ri keladi. Bu esa bir muncha vaqt talab etib, sotsial qiyinchiliklarni ham tug'diradi.

Adabiyotlarda protektsionizm tarafdorlari protektsionizm siyo-satini yoqlab mudofaani ta'minlash zarurati, ichki bandlikni oshi-rish, barqarorlik maqsadida diversifikatsiya o'tkazish zarurati, shakl-lanayotgan yosh sohalarni himoya qilish, dempingga qarshi himoya, chet ellik arzon ishchi kuchi va milliy bozor ustidan hukmronli-klarni qo'lga kiritish xavfi kabi sabablar keltiriladi.

Mishel Pebroga ko'ra, protektsionizmni oqlaydigan iqtisodiy sabablar mavjudligiga qaramasdan, uzoq muddatli protektsionizm milliy iqtisodning taraqqiyoti uchun zararlidir. Sababi u raqobatni yemiradi, imtiyozlar tizimini shakllantirib, oxir oqibatda iqtisodiyotni inqirozga olib keladi. Protektsionizm iste'molchi nuqtai nazaridan ham zararli. Chunki uni iste'mol qilinayotgan tovar va xizmatlar uchun ortiqcha mablag' to'lashga majbur qila-di. Shu sababli, savdo erkinligi ko'pgina afzalliklarga ega. U ixtisoslashishga qulay sharoit yaratib beradi, raqobat muhitining rivojlanishini yengillashtiradi, bozorlarning kengayishi imkonini yaratib, iste'molchilarga maqbul bo'lgan tovarlarning katta miqdordarda ishlab chiqarilishi imkonini beradi.

Lekin, oxir oqibatda «ishonuvchan erkin savdo» bilan «nozik-laшиб ketgan protektsionizm» orasida muvozanat qaror topishi kerak. Bu muvozanat erkin savdo tarafga qanchalik og'sa, shunchalik jahon iqtisodiyotining taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi. Biroq, bundagi me'yordan chiqishlar eng rivojlangan va eng qashshoq davlatlar o'rtasidagi muvozanatni birinchilar foydasiga og'diradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda xalqaro savdoning asosiy yo'nalishi sifatida «erkin savdo» yo'nalishining uzil-kesil qabul qilinishi o'z ifodasini «ochiq iqtisodiyot» nazariyasining

vujudga kelishida va protektsionizm g'oyalarining faol himoya-chilari qolmaganligida topdi. Amalda davlatlarning tashqi savdo siyosati liberalizm va protektsionizm unsurlarini mujassamlash-tirish ma'lum darajada ko'p qirrali.

Protektsionizm – milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosatdir. Erkin savdo siyosatidan farqli o'laroq protektsionizmda bozor kuchlarini erkin ta'siri amal qilmaydi, chunki jahon bozorida har bir mamlakatni iqtisodiy potentsiali va raqobatbardoshligi har xildir. Shuning uchun bozor kuchlarining erkin harakati rivojlanmagan mamlakatlar uchun qulay emasdirlar. Kuchli xorijiy davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan kuchli raqobat rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy turg'unlikka va bu mamlakat uchun samarasiz bo'lgan iqtisodiy tuzilmalarni shakllanishiga olib keladi.

Protektsionizm mamlakatda ishlab chiqarishning ma'lum sohalarini rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Agrar mamlakatlarda protektsionizm ko'p hollarda industrilashtirishning zaruriy sharti bo'ladi. Bundan tashqari, protektsionizmda ishsizlik soni qisqaradi. Lekin, bu siyosatni uzoq vaqt mobaynida qo'llash iqtisodiy turg'unlikka olib kelishi mumkin. Chunki agarda chet el raqobati bartaraf etilsa, u holda mahalliy tadbirkorlarning ishlab chiqarish texnik ta'minotini va samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishi susayadi.

Protektsionizmning eng oxirgi shakli – avtarkiyadir. Bunda mamlakatlar, unda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lмаган tovar-larnigina import qilishga harakat qiladilar. Eksport esa zarur bo'lgan importni ta'minlash darajasida amalga oshiriladi. Sof holda avtarkiya siyosati har qanday importni mahalliy mahsulot-lariga almashtirilishi lozimligini ko'zda tutadi. Lekin hamma vaqt ham ba'zi bir mamlakatlar tomonidan importni mahalliy mahsulotlar bilan almashtirishga bo'lgan intilishni avtarkiya siyosati deb bo'lmaydi.

Misol uchun, yetarli darajada rivojlanmagan mamlakatlar rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida importni almashtirish maqsadida o'z sanoat ishlab chiqarishlarini rivojlantiradilar. Bu sof holdagi avtarkiya siyosatini ifodalaydi. Lekin u faqat statistika holatda, ya'ni jarayonlarning qotib qolgan holatida to'g'ridir.

Statistik yondoshuv ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv baholashga imkon bermaydi, chunki bu holatda shakllangan xalqaro mehnat taqsimotidan chetlanishga bo'lgan har qanday intilishni avtarkiya siyosati deb baholashga to'g'ri keladi. Bu jarayonni dinamikada (o'zgarishda) baholash import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish kelajakda samaradorlikni oshishiiga olib kelishi mumkin, deb taxmin qilish imkoniyatini beradi.


Avtarkiya siyosati ham, erkin savdo siyosati kabi sof holda amalga oshirilmaydi. Protektsionizmning turli darajalariga doimo duch kelinadi va bu u yoki bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Ba'zi bir holatlarda bir vaqtning o'zida ham protektsionizm, ham erkin savdo siyosatini olib borish mumkin, lekin har xil mahsulotlarga nisbatan.

Protektsionizm siyosati hozirgi raqobat kuchayishi sharoitida mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi. Davlat protektsionistik savdo siyosatini olib borishda tashqi sadvo siyosatining turli vositalaridan foydalanadi. Bu vositalarni tanlash ularni qo'llash maqsadlaridan kelib chiqadi. Bitta maqsadga erishish uchun turli vositalardan foydalanimish mumkin. Shuning uchun har qanday alohida olingan holatda davlat bu vositalarning u yoki bu guruhlarini tanlaydi.

Davlat xo'jalik subyektlariga tavsiyalar berishi va u yoki bu harakatlarni amalg'a oshirishni rag'batlantirishi mumkin. Bular ba'zi bir hollarda ijobjiy natijalar beradi. Misol uchun, katta firmalar berilgan tavsiyalarga ko'ra, harakat qilishlari orqali davlatdan ma'lum imtiyozlar va afzalliklarga ega bo'lishlari mumkin (davlat buyurtmalari va boshqalar). Lekin, bunday tavsiyalar hamma vaqt ham ijobjiy va davlat nuqtai nazaridan katta natijalar bermaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari xarakteriga ko'ra, boj tarifini qo'llashga asoslangan tarif va boshqa barcha vositalarga asoslangan notarif vositalarga bo'linadi (1-rasm).

## TIFni tartibga solishning davlat vositalari



**1-rasm.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalarining sinflanishi.

Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda jahon amaliyotida ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosini boj tarifi, ya’ni bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi printsiplari va qoidalariga asossan bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan boj stavkalarini to‘plami tashkil etadi.

Boj ta’rifidan shuni aytish mumkinki, ihtiyyoriy mamlakatning boj tarifi bojxona bojlarining aniq stavkalaridan iboratdir. Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki import sharoitini belgilovchi, to‘lanishi lozim bo‘lgan vznosdir.

Boj tarifi, xalqaro huquq me’yorlari bilan qo‘llanilishi kafolatlanadigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositasi. Mamlakat savdo siyosatining qaysi tomoni ahamiyatlididan kelib chiqqan holda, boj tarifining bir-birini to‘ldiruvchi bir necha ta’rifi mavjud:

- mamlakat ichki bozorini jahon bozori bilan o‘zaro bog‘liqligida savdo siyosati va ichki bozorni davlat tomonidan tartibga solish vositasi;
- ma’lum tovarni bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqishda to‘lanadigan bojxona bojining aniq stavkasi.

Boj tariflari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositasi sifatida XVIII asrning boshlaridan qo‘llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bir necha bor kamaytirilishiga qaramay, boj tariflari importning hajmi va tarkibiga ta’sir ko‘rsatgan hol-

da, zamonaviy tashqi savdoni tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Boj tarifining asosiy vazifalaridan biri milliy ishlab chiqaruv-chilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilishdir. Importni cheklash, tovarni ishlanganlik darajasiga qarab, bojlarning yuqori stavkalari va bojaxona yig'mlarining kattaligini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Boj tariflarining fiskal funksiyasi, ya'ni davlat budgetining daromad qismini oshirish funksiyasi, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ikkinchi o'ringa o'tdi (bojaxona bojlari budget daromadlarining bir necha foizigina tashkil etadi). Lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa sanoati unchalik rivojlanmagan mamlakatlarda, bojlarning fiskal funksiyasi katta ahamiyatga ega.<sup>6</sup>

Bojaxona bojlari milliy xo'jaliklar rivojlanishining obyektiv jarayonlariga va xalqaro savdodagi tarkibiy o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradilar.

Jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar: mamlakatlar taraqqiyotining bir tekisda emasligi, iqtisodiy va siyosiy bo'hronlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni, tashqi savdoda ishtirok etayotgan tovarlar nomenklaturasining kengayishi, har xil mamlakatlarda bir xil tovarlar narxining nisbatan tenglashuvi va boshqalar shunga olib keldilarki, bojaxona bojlari, tashqi savdo aylanmasini tartibga solishga qo'yiladigan talablarni to'liq qondira olmay qoldilar. Bunday sharoitlarda, boj-tarif cheklovleri guruhiga kirmaydigan, bir qator tashqi iqtisodiy siyosat vositalari vujudga keldi. Ular notarif cheklovleri (to'siqlari) nomini oldi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositalarining turkumlanishini, ya'ni tarif va notarif usullarga bo'linishi birinchi bo'lib «Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv» Xalqaro savdo tashkiloti tomonidan XX asming 60-yillarida taklif etilgan edi (GATT).<sup>7</sup> Shu kelishuv notarif usullarni: «... tarifdan tashqari, xalqaro savdoni erkin oqimiga to'sqinlik qiluvchi har qanday jarayonlar» deb atagan edi.


<sup>1</sup> Свинухов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД. М.: Экономист. 2004-у. 31-bet.

<sup>2</sup> Свинухов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД. М.: Экономист. 2004-у. 38-bet.

Hozircha notarif to'siqlarni turkumlashning yagona xalqaro qoidalari ishlab chiqilmagan. Turkumlash bo'yicha hozirda GATT/JST, Xalqaro savdo palatasi, Birlashgan millatlar tashkilotining savdosi va taraqqiyoti bo'yicha konferentsiyasi (YuNKTAD), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. AQSHning tarif qo'mitasi, shuningdek, Jahon iqtisodiyoti bo'yicha iqtisodchi-tadqiqotchilar o'z takliflarini berayaptilar. Tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda, mavjud usullardan qaysi biridan foydalanish muammosi doimo tashqi savdo aloqalarini amalga oshirishda vujudga keladi.

Notarif usullari (cheklovleri) – bu chet el tovarlarini ichki bozorlarga va mos ravishda milliy tovarlarni tashqi bozorlarga kirib borishiga to'sqinlik qiluvchi, chegaralash – taqiqlash xarakteriga ega bo'lgan vositalar majmuasidir. Bu choralarning maqsadi – nafaqat importchi mamlakatdagi kompaniyalarning raqobatbardoshlik imkoniyatlarini oshirish, balki milliy sanoatni himoya qilish, aholining hayoti va salomatligini, atrof-muhitni, ma'naviyatini, dinini va milliy havfsizligini himoya qilish hamdir.<sup>8</sup>

Tashqi savdoni tartibga soluvchi, notarif usullari quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin (2-rasm).



**2-rasm.** Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usullari turkumlanishi.

Birinchi guruhga importni va eksportni miqdoriy chegaralash (miqdoriy nazorat) choralari kirsa, ikkinchi guruhga texnik choralar (savdodagi texnik to'siqlar), keyingi guruhga paratarif (o'tatarif) choralari, valuta-moliya siyosati choralari, mamlakatning

<sup>8</sup> Свинухов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД. Учебное пособие. М.: Экономист, 2004-у. 13-бет.

tashqi savdodagi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar, davlat xaridlari va davlat korxonalarining savdo ope-ratsiyalari kiradi.

Har bir davlat savdo siyosatining u yoki bu vositalarini TIF-ni tartibga solishda qo'llash bo'yicha qaror qilish oldidan, qo'llanilayotgan vositalarning davlat savdo siyosati xarakteriga ta'sirini va sherik davlatlar tomonidan javob chegaralari qo'llanilishi mumkinligini o'rganib chiqishi lozim.

Savdo siyosati choralarini baholash maqsadida iqtisodiy ham-korlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan 1985-yili ish-lab chiqilgan indikativ savolnomaga mamlakatlar hukumatlari amaliyotida keng qo'llaniladi.

Savdo siyosati iqtisodiy chora-tadbirlarini qo'llashdan oldin javob berilishi lozim bo'lgan savollar quyidagilardan iborat:

- Bu choraning amalga oshirilishi natijasida tarmoq yoki firma uchun qanday iqtisodiy yutuq kutiladi va qancha ish joylari tashkil etiladi yoki saqlab qolinadi?
- Byudjet daromadlari qanchaga oshadi yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun qancha budget harajatlari talab etiladi?
- Ichki narxlari qanchaga oshadi va bu chora-tadbirlar natijasida iste'mol miqdori qanchaga kamayadi?
- Amalga oshirilmogchi bo'lgan chora-tadbirlarning bozor tuzilishiga va undagi raqobatga ta'siri qanday?
- Bu chora-tadbirlar qo'llanilishiga savdo bo'yicha sherik davlatlar qanday munosabat bildiradi va uning potentsial ta'siri qanday?
- Qo'llanilishi kutilayotgan chora-tadbirlar mavjud davlat ishtirok etayotgan ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar qoidalariga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi?

Mana shu savollarga javoblar o'rganilib va tahlil qilingandan so'ng xalqaro savdoni tartibga solish vositalarining u yoki bu turlaridan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda boj tarifidan foydalanishga qo'yilgan birinchi qadam 1992-yilning 24 iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, O'zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyalarini jalb qilish

va ularni himoya qilish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilinishidan boshlangan bo‘lsa-da, unga qonuniy tus 1997-yilning 29-avgustida «Boj tarifi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini qabul qilinishidan boshlanadi.

Mazkur Qonun boj tarifini shakllantirish va qo‘llash tartibini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o‘tilayotgan tovarlardan boj undirish qoidalarini belgilab berdi.

1997-yilning 10 oktyabrida “Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi. Farmon bilan tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, eksport-import operatsiyalarini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida 1997-yilning 1 noyabridan boshlab barcha turdag‘i tovar (ish, xizmatlar) eksportiga bojlar, hamda alohida turlaridan tashqari, ularning eksportini litsenziyalashtirish va kvotalashtirish ham bekor qilindi.

Farmon bilan 1997-yilning 1 noyabridan joriy qilinadigan import boji stavkalari jami bo‘lib 97 tovar guruhiga nisbatan belgilanib, ro‘yhatga kirmagan tovarlarga nisbatan 3 %, ko‘pchilik tovar turlariga nisbatan 30 %, ayrim rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar uchun 5 %, qolgan kamchilik tovarlar uchun 10 %, 15 % va 20 % miqdorida boj stavkasi belgilandi.

1998-yilning 18 fevral kuni “Import operatsiyalarini tartibga solish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi. Import operatsiyalarini tartibga solish tizimini takomillashtirish maqsadida 1998-yilning 1 martidan boshlab tovarlar importini tariflar orqali boshqarish chora-tadbirlari tizimining hamda import kontraktlarini tuzish va ularni ijro etish yuzasidan nazoratni erkinlashtirishning joriy etilishi belgilanib, Vazirlar Mahkamasiga bir haftalik muddat ichida import bojlari stavkalarini qayta ko‘rib chiqib, Farmonning ijrosi yuzasidan tegishli qaror qabul qilish topshirildi.

Mazkur Farmonni ijro etish yuzasidan 1998-yilning 24 fevralida Vazirlar Mahkamasining “Importni tariflar orqali boshqarish to‘g‘risida”gi 80-sonli qarori qabul qilinib, unda 1998-yilning 1 martidan boshlab joriy etiladigan import bojlarining yangi stavklari tasdiqlandi. Qarorga ko‘ra, jami bo‘lib 97 tovar guruhiga

nisbatan import boji stavkalari belgilanib, import qilinadigan tovarlarning ko‘pchilik turlariga nisbatan boj stavkasining eng yuqori 30 %, ro‘yhatda keltirilmagan tovarlarga nisbatan eng past 3 %, rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarga nisbatan 5 %, choy, go‘sht va baliq mahsulotlari, bosh kiyim mahsulotlariga nisbatan stavkaning 10 %, qolgan tovarlarga nisbatan stavkaning 15 % va 20 % ko‘rsatkichi belgildi.

1998-yilning 31 martida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-sonli qarori qabul qilindi. Qaror bilan amaldagi boj stavkalari O‘zbekiston bilan eng ko‘p qulaylik berish tartibini qo’llayotgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan qo’llanilishi, bunday tartibni qo’llamayotgan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan ularning ikki marta ko‘paytirilgan ko‘rsatkichlari qo’llanilishi belgildi. Qaror bilan bir qator vazirliliklarga savdo-iqtisodiy aloqalarda erkin savdo rejimi o‘rnatilgan yoki eng ko‘p qulaylik berish tartibi berilgan davlatlar ro‘yhatini tasdiqlash topshirildi.

Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi kelishuvga a’zo bo‘lgan davlatlar ro‘yhati Adliya vazirligi tomonidan 1998-yilning 8 aprelda 429-sonli tartib raqami ostida ro‘yhatga olingan. Mazkur rejim Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikasi, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Ukraina va Tujikiston davlatlari bilan savdo aloqalarda amal qiladi.

1998 yilning 8 aprel holati Adliya vazirligida 426-tartib raqam ostida qayd qilingan ro‘yhatga ko‘ra O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarda eng ko‘p qulaylik berish tartibini dunyoning 35 davlatiga nisbatan qo’llagan. 1998-yilning oxiriga kelib o‘zaro bunday tartibni qo’llash to‘g‘risida kelishuvlar yana Isroil, Bolgariya va Bangladesh kabi davlatlar bilan ham imzolandi.

1998-yilning 25 dekabrida “Iste’mol tovarlarining alohida turlarini olib kirish va olib chiqishni tartibga solish qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmon qabul qilinib, unda respublika iste’mol bozori to‘yinishini ta’minlash maqsadida 1999-yilning 1 yanvaridan boshlab chorva, parranda, go‘sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, choy xomashyosi va choy, don, un va yorma mahsulotlar, o’simlik moyi, hayvon

yog'i va shu kabi jami 15 tovar turlaridan import bojlarini undirish bekor qilindi.

Tashqi savdoni tariflar orqali boshqarishga oid yuqorida qayd qilingan me'yoriy hujjalarda hukumat nomidan yoki uning kafolati bilan bitilgan hukumatlararo va kredit kelishuvlari bo'yicha yetkazib berilayotgan tovarlar, o'zaro erkin savdo rejimini qo'llayotgan davlatlardan olib kirilayotgan tovarlar, hukumat qarorlariga muvofiq davlat budgeti hisobiga olib kiritilayotgan tovarlar, markazlashtirilgan eksport doirasida yetkazib berilayotgan tovarlar, 50 mln AQSH dollari hajmida investitsiya qilgan chet ellik yuridik shaxslar olib kirayotgan tovarlar, vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki undan vaqtinchalik olib chiqib ketilayotgan, tranzit tovarlar, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonaning nizom fondiga chet ellik hamkor tomonidan qo'shiladigan mulkiy ulush sifatida olib kiritilayotgan tovarlar, gumanitar va texnik yordam maqsadidagi tovarlar, ko'rgazma, reklama va prezentatsiyalar uchun eksponatlar, tayyor mahsulotni olib chiqish yoki olib ketish maqsadida qayta ishlov berish uchun olib kiritilayotgan (olib chiqib ketilayotgan) xomashyo va materiallar boj to'lashdan ozod etib keligan.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi Tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish Bosh boshqarmasining axborot materiallariga ko'ra 1998-yilning 1 yanvarigacha bo'lган holatgacha amalda bo'lган tarif rejimiga ko'ra O'zbekistonda boj stavkalarining o'rtacha torttirilgan ko'rsatkichi barcha turdag'i import tovarlari uchun berilgan imtiyozlami hisobga olmaganda 10,9 %, hisobga olganda 4,8 %, o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi esa 20,9 % ni tashkil etadi.

O'zbekistonda tashqi savdoni tariflar orqali boshqarish tajribasini tahlil qilish oqibatida shuni qayd qilish mumkinki, dastlab O'zbekistonning tashqi savdo siyosati iste'mol tovarlarining tashqariga olib chiqib ketilishini cheklash va ularning importini rag'batlantirishga qaratildi. Hattoki, 1995-yilning 1 oktyabrigacha ma'lum davr chetdan keltirilayotgan tovarlarga nisbatan import bojlari umuman bekor qilingan ham edi. Shu davrning o'zida belgilangan eksport boji stavkalari esa nisbatan yuqori darajada saqlanib kelindi. Faqat 1996-yilning boshshlaridan to'lov balansi

bilan bog'liq qiyinchiliklar oldidagina O'zbekistonning tashqi savdo siyosati eksportni, shu jumladan tariflar orqali cheklashni qisqartirish va aksincha, importni tariflar orqali cheklashni kuchaytirishga tomon o'zgardi. 1997-yilning 1 noyabridan boshlab esa eksport qilinayotgan tovarlarga nisbatan boj stavkalari umuman bekor qilindi va alohida turlaridan tashqari ularning eksportini litsenziyalashtirish va kvotalashtirish ham bekor qilindi. Hozir ham importni tariflar va valuta qoidalari orqali cheklashga harakat qilinib, xususan import qilinayotgan tovarlarning ko'pchiligiga nisbatan eng yuqori 30 % boj stavkalari belgilangan.

2001-yil 2 fevraldag'i Vazirlar Mahkamasining 66-sonli qaroriga asosan, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24 fevraldag'i 80-son qaroriga ko'ra boj stavkalari soni 12 tadan 5 taga qisqartirildi. Bu qarorga asosan O'zbekiston Respublikasida "Idoralararo bojtarif kengashi" tashkil etildi va uning vazifalari belgilandi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boj tarifidan foydalanish mexanizmlarini xalqaro huquq me'yori asosida yanada takomillashtirish jarayonlari davom ettirildi. Shuning natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 31 mayda «Import bojxona bojlarini unifikatsiyalash bhyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 189-son qarori qabul qilindi. Bu qarorga asosan 2002-yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasida, tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'un tizimiga asoslangan, tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi amal qila boshladi. Bundan tashqari, bu qarorga asosan budjet tashkilotlari tomonidan yoki ular buyurtmalariga ko'ra budjet mablag'lari hisobidan o'z ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan tovarlar import bojlaridan ozod etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, import operatsiyalarini boj-tarif bilan tartibga solishni takomillashtirish, boj poshlinalalarini unifikatsiya qilish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini yanada zamonaviylashtirish va texnologiya bilan qayta jihozlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning raqobatga bardoshli mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlaydigan yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 7 yanvar 2004-yilda "Boj tarif

bilan tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4-son qarorini qabul qildi. Bu qarorga asosan respublikaga chetdan keltiriladigan kompyuter ma’lumotlarini uza-tish tarmoqlarini tashkil etish uchun asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi va ular uchun butlovchi anjomlar, dasturiy vositalar 2006-yil 1 yanvargacha bo‘lgan muddatgacha boj to‘lovlardan (bojxona rasmiylashtirishlar uchun yig‘imlardan tashqari) ozod etildi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining tobora jahon xo‘jaligi iqtisodiyotiga integrallashuvi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish jarayonlarini Butunjahon savdo tashkilotining asosiy tamoyillari va qoidalariga asosan takomillashtirishni taqozo etayapti.

### **Nazorat savollari:**

1. Xalqaro savdo va uning asosiy vazifalari.
2. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishning qanday shakllari sizga ma’lum?
3. Erkin savdo siyosati bilan protektsionizm o‘rtasidagi farq.
4. O‘zbekiston Respublikasi savdo siyosatining hozirgi holati qanday?
5. Savdo siyosatining asosiy vositalarini sanab o‘ting.
6. Iste’mol ortiqchaligi nima?
7. Ishlab chiqarish ortiqchaligi qachon yuz beradi?
8. Erkin savdo siyosatining protektsionizmdan afzalligi nimada?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: «O‘zbekiston», 1997-y.
2. В.Б.Буглай, Н.Н.Ливенцев. Международные экономические отношения. М: Финансы и статистика, 1996 г.
3. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г
4. В.И.Фомичев. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г.

5. Н.А.Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика, Ш-изд., М., Дело-сервис, 2004 г.
6. Международные экономические отношения. Учебник, М., Инфра-М, 2004 г.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. В.К.Ломакин. Мировая экономика. II-изд. Учебник, М., ЮНИТИ, 2004 г.
2. И.И.Дюмулен. Всемирная торговая организация. М: Торгова – промышленная палата РФ, 1997 г.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г
4. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6) К.
5. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo'mitasi vebssayti.
6. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebssayti.
7. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vebssayti.

## **6-MAVZU. DAVLATNING SAVDO-TARIF SIYOSATI NAZARIYASI. TASHQI SAVDONI TARIF ORQALI BOSHQARISHNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA TA'SIRI**

### **REJA:**

- 1. Boj tarifi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy vositasi.**
- 2. Tarifning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.**
- 3. Tarif qo'llanishining ijobiy va salbiy tomonlari.**

Xalqaro savdoda davlatning asosiy vazifasi – eksportchilarni o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarini iloji boricha chetga olib chiqishlari uchun qo'llab-quvvatlash, ular tovarlarini xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorda chet el tovarlari raqobatbardoshlik darajasini pasaytirish maqsadida importni chegaralashdir.

Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish usullaridan bir qismi ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilishga, ya'ni importni chegaralashga qaratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda qo'llaniladigan tarif vositalari tashqi savdoni iqtisodiy tomondan tartibga solishning eng qadimiy usullaridandir. Asosan ular ichki bozorni (mahalliy ishlab chiqaruvchilarni) chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan. Ularning asosini bojxona bojlari tashkil etadi.

Bojxona boji – tovarlarni mamlakatga olib kirishda yoki ularni mamlakatdan olib chiqishda davlat tomonidan undiriladigan egri chiziqli soliq ko'rinishidagi to'loving alohida turi.

Bojxona bojini to'lash tovarlarning olib kirilishi yoki olib chiqilishini amalga oshirishni bajarishning lozim bo'lgan shartidir. Bu soliq oxir oqibat tovarlar iste'molchilari tomonidan to'lanadi, chunki u tovarlarni sotish narxiga kiritiladi.

Bojxona bojlarining iqtisodiy roli shundaki, ular narx to'sig'ini vujudga keltiradi. Bu esa import tovarining narxini oshiradi va shu orqali iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarini xorijiy kompaniyalarning raqobatidan himoya qiladi.

Agarda xorijiy tovar yetkazib beruvchilar tovarlarning olib kiringayotgan narxlarini o‘z eksport bozorlarini saqlab qolish maqsadida pasaytirishni istamasalar, u holda import tovarlariga bo‘lgan talab kamayadi va ularni yetkazib berish hajmi pasayadi.

Import bilan raqobatlasha oladigan mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar bojxona boji kiritilishidan yutadi. Shundan keyin, ichki bozordagi narxlarning o‘sishi mahalliy tovarlar ishlab chiqarish o‘sishini rag‘batlantiradi. Shundan kelib chiqqan holda, aniq maqsadga qaratilgan bojlarni qo‘llash orqali davlat iqtisodiyotning ma’lum tarmoqlari rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Bojxona bojlari protektsionistik va tartibga solish funksiyalari bilan bir qatorda, shuningdek, fiskal funksiyani ham bajaradi. Ular davlat budgetini to‘ldirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Bojxona bojlarini qo‘llash boj tarifi tarkibida amalga oshiriladi.

Boj tarifi – ma’lum belgiga yoki belgilarga ko‘ra bir tizimga solingan, bojga tortiladigan tovarlar ro‘yxati bo‘lib, ularning har biriga nisbatan bojxona bojlarining bitta yoki bir nechta stavkalari belgilanadi. Shunday qilib, boj tarifi ikki elementdan iborat, biri bojxona bojlarining stavkalari, ikkinchisi esa tovarlarni turkumlash tizimlari (tovar nomenklaturasi)dan iborat. Tovar nomenklaturasi tashqi savdo faoliyatini tartibga solish va hisobga olish maqsadlarida maxsus holda ishlab chiqiladi. Bojxona bojining stavkasi – bojxona boji o‘lchami, kattaligidir. Tovar nomenklaturasi – eksport va importni davlat tomonidan tartibga solish va tashqi savdo operatsiyalari statistik hisobini yuritish uchun qo‘llaniladigan tovarlar klassifikatoridir.

Boj tarifi ikki – sodda va murakkab turlarga bo‘linadi. Sodda (bir ustunli) tarif har bir ma’lum nomenklaturadagi tovarga nisbatan, tovarning kelib chiqish mamlakatidan qat’iy nazar, bojxona bojining yagona stavkasini qo‘llashni nazarda tutadi. Bir ustunli tariflar shunday hollarda qo‘llaniladiki, bunda asosiy maqsad samarali savdo siyosatini amalga oshirishda emas, balki davlat budget daromadlarini oshirishda bo‘ladi. Murakkab (ko‘p ustunli) tarif bir xil tovarga nisbatan uni qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligiga qarab har xil (ikki va undan ortiq) boj stavkalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Dunyo xo'jaligi amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan bojlar qo'llanilish maqsadiga, tartibiga, obyektiga va yana boshqa belgilarga ko'ra turkumlanadi. Bojlarning bunday turkumlanishi ularni qo'llashning iqtisodiy mazmunini aniqlash imkonini beradi.

Bojaxona bojlari undirilish tartibiga ko'ra:

● Advalor – bu boj turi bojaxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojaxona qiymatidan foizda hisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruhiga mansub bo'lgan har xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Advalor bojlarni, shu guruhga mansub boshqa boj turlaridan farqlantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovar narxi tebranishidan qat'i nazar, advalor boj ichki bozorni bir darajada himoya qiladi. Faqat davlat budgetiga tushayotgan daromad miqdori o'zgarishi mumkin.

Misol: Agar boj tovar bahosining 20%ni tashkil etsa, tovar narxi 200 dollarga teng bo'lgan holda, davlat budgetining daromadi 49 dollarni tashkil etadi. Tovar narxi 300 dollargacha oshsa, budget daromadi 60 dollarni, agarda 100 dollarga pasaysa, daromad miqdori 20 dollarga kamayadi. Lekin, ikkala holda ham ichki bozorni himoya qilish darajasi 20%ni tashkil etadi, ya'ni tovar narxi 20%ga oshgan holda ichki bozorga kirib boradi.

Advalor bojning kamchilik tomoni shundan iboratki, bu boj tovarning bojaxona qiymatini hisoblashni taqozo etadi. Tovarning qiymati har xil iqtisodiy va ma'muriy omillar ta'sirida o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, advalor bojni qo'llash baholashni subyektivligi bilan bog'liq.

Bojning undirilish tartibiga ko'ra ikkinchi turi – xos bojlardir. Bu bojni qiymatini bojga tortiladigan tovar birligidan belgilangan kattalikda hisoblanadi.

Bu belgiga ko'ra bojning yana bir turi, yuqorida keltirilgan ikkala boj turini o'zida mujassamlashtirgan aralash bojdir.

Jahon xo'jaligi amaliyotida qo'llaniladigan undirilish obyekti ga ko'ra, belgiga asosan sinflanadigan yana bir guruhi – import va eksport va tranzit bojlaridir. Bu bojlarni jahon xo'jaligiga kiruvchi barcha davlatlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida qo'llaydi.

Import bojlari import tovarlariga, ularni mamlakat ichki bozorida erkin ayirboshlashga chiqarilganda qo'llaniladi. Bu boj jahondagi barcha davlatlar o'rtasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun qo'llaniladi.

Har xil mamlakatlar rivojlanishining turli bosqichlarida import bojlari yordamida soliq tushumlarini ta'minlaganlar, keyinchalik esa ularning ahamiyati keskin ravishda tushib ketgan, fiskal vazifalarni boshqa soliq turlari bajargan.

Agarda Amerika Qo'shma Shtatlarida XIX asr oxirlarida davlat budjetiga tushumlarning 50 foizi import bojlari hisobiga qoplan-gan bo'lsa, hozirda ularning ulushi 1,5 foizdan oshmaydi.<sup>9</sup> Byudjet tushumlaridagi import bojlarining ulushi ko'pgina indust-rial rivojlangan davlatlarda ham, bir necha foizdan oshmaydi.

Eksport bojlari eksport tovarlariga, ularni bojaxona chegarasi-dan tashqariga chiqarishda qo'llaniladi. Bu bojlar mamlakatlar tomonidan juda ham kam hollarda qo'llaniladi. Odatda, ular alohida olingan tovarlarga, ularning jahon bozorlaridagi erkin narxlari bilan ichki bozordagi tartibga solinadigan baholari o'rtasidagi katta tafovut holida eksportni qisqartirish va budgetni to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Eksport bojlari raqobat kuchli bo'lган jahon bozorida ma-halliy tovarlar narxini oshirib yuboradi.

Tranzit bojlari shu davlat hududidan tranzit sifatida olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Amaliyotda juda kam uchraydi, asosan savdo urushi vositasi sifatida qo'llaniladi. Xarak-teriga ko'ra bojaxona bojlari mavsumiy fasliy xarakterga ega bo'lган mahsulotlarni asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarining xalqaro savdosini tezkor ravishda tartibga solishda qo'llaniladigan bojlar-ga bo'linadi. Odatda, bunday bojlarni qo'llanish muddati bir yilda bir necha oydan oshmaydi va ularni qo'llash davrida boj tarifin-ing mavsumiy bojlarga tortiladigan tovarlar bo'yicha ta'siri to'xtatiladi.

Agarda mamlakat bojaxona hududiga olib kirilayotgan tovar-lar narxi, shu tovarlar ishlab chiqarilgan davlatdagi normal narxi-

<sup>9</sup> Свинухов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. М.: Экономист, 2004-у. 37-бет.

dan past bo'lsa va bunday olib kirish xudi shunday tovarlarni ishlab chiqarayotgan mahalliy korxonalarga iqtisodiy zarar yetkazsa yoki ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga to'sqinlik qilsa, bunday tovarlarga nisbatan dempingga qarshi boj qo'llaniladi.

Kompensatsion bojlar esa shunday import tovarlariga nisbatan, agarda bunday tovarlarni ishlab chiqarish yoki tashish jarayonlarida bevosita yoki bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan bo'lsa qo'llaniladi.

Ko'pchilik davlatlarda hukumatning xalqaro savdo sohasidagi asosiy vazifasi – eksportchilarga iloji boricha ko'p mahsulotlarini chetga chiqarishlariga va ularning tovarlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashishdan va importni chegaralab, chet'el tovarlarining ichki bozordagi raqobatbardoshlik darajasini tushirishdan iborat.

Maxsus bojlar – himoya choralar sifatida agarda tovarlar, mamlakatning bojxona hududiga, shunday tovarlar ishlab chiqravchi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilsa, qo'llaniladi.

Maxsus bojlarni kiritishdan oldin hukumat yoki parlament topshirig'iga binoan savdo sheriklar tomonidan bozordagi holatni suiste'mol qilish faktlarini aniqlash bo'yicha tekshirishlar olib boriladi. Maxsus bojlar odatda boshqa boj turlari natija bermaganda, savdo bo'yicha kelishmovchiliklarni boshqa yo'llar bilan yetib bo'lmagan holda qo'llaniladi.<sup>10</sup>

Bojxona bojlari kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha sinflanadi:

1. Avtonom – mamlakat hukumati tomonidan bir yoqlama qabul qilingan qarorlar asosida kiritiladigan bojlar.
2. Konventions (shartnomaviy) – ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar asosida kiritiladigan bojlar. Misol uchun, Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT/JST).
3. Preferentsial (imtiyozli) – ko'p tomonlama kelishuvlar asosida qo'llaniladigan, odatda amalda bo'lgan bojlarning stavkalardan past stavkalarga ega bo'lgan, rivojlanayotgan davatlarda

<sup>10</sup> Свинухов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. М.: Экономист, 2004-у. 38-39-betlar.

olib kelinayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojlar. Preferentsial bojlarni qo'llashdan maqsad rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini, ularning eksportini kengaytirish hisobiga qo'llab-quvvatlashdir.

Bojxona bojlari stavkalarining turi bo'yicha quyidagi larga bo'linadi:

1. O'zgarmas – hukumat tomonidan bir vaqtning o'zida kiritilgan va hech qanday holatlarga qaramay, stavka'lari o'zgarmaydigan bojlar. Jahondagi aksariyat mamlakatlar o'zgarmas stavkali bojlarga egadirlar.

2. O'zgaruvchan – davlat organlari tomonidan vaziyatga qarab, ya'ni ichki va dunyo baholari farqining darajasiga, davlat subsidiyalarning darajasiga qarab stavkalari o'zgartiriladigan bojlar. Bunday bojlar jahon amaliyotida juda ham kam hollarda qo'llaniladi. Lekin, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yagona qishloq xo'jalik siyosati doirasida qo'llaniladi.<sup>11</sup>

O'zbekiston Respublikasida olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan import bojlari nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilarni nomaqbul chet el raqobatining noxush ta'siridan himoya qilish uchun, balki shuningdek, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga samarali integrallashuviga sharoit yaratish, tovarlarning milliy ishlab chiqarilishi va iste'moli tarkibidagi progressiv o'zgarishlarga ko'maklashish, davlat budgetining daromad qismining to'ldirilishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Tarixan protektsionizm tarafдорлари bilan uning qarshilari o'rtasidagi bahslashuv tarifdan iqtisodiy siyosat vositasi sifatida foydalanish mumkin yoki mumkin emasligiga asoslangan. Amaliyotda tarifdan foydalanishning afzalligi yoki zarurligining har xil variantlari deyarli barcha davlatlarda o'rganiladi. Tarifdan foydalanishning qarshilari o'zlarining haqliklarini quyidagicha ifodelaydilar.

**Tariflar iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.** Umumiylenglik nazariyasi asosida taxlil shuni ko'rsatadiki, kichik davlatning iqtisodiy farovonligi xar qanday xolda ham tarif kiritilishi natijasida pasayadi. Katta davlatning iqtisodiy farovonligi xam tarif kiriti-

<sup>11</sup> Данильцев А.В. Международная торговля: инструменты регулирования. М.: Палеотип, 2004-у. 78-79-бетлар.

lishi natijasida xamma vaqt pasayadi, faqat bir xolatdan tashqari, ya’ni savdo sharoitini yaxshilash samarasi iqtisodiy zararlarni yopsa. Lekin katta davlat importi boshqa davlatlar yoki davlatlar guruhining eksporti bo’lgani uchun uning savdo sharoiti yaxshilanishi boshqa davlatlar savdo sharoitlari yomonlashuvi hisobiga, demak, katta davlatning savdo sheriklari bo’lgan mamlakatlardagi iqtisodiy farovonlik darajasi pasayishi hisobiga bo’ladi. Demak, xar qanday xolatda ham tarifning jahon iqtisodietiga ta’siri salbiydir, chunki tarif xalqaro savdo hajmining kamayishiga olib keladi.

Bir tomonlama kiritilgan tariflar savdo sheriklari o’tasida «savdo sheriklariga» olib kelishi mumkin. «Savdo sheriklari» xalqaro savdoni va, umuman olganda, xalqaro iqtisodiyot barqarorligini buzadi. Chet eldan arzonroq tovarlarni oqib kelishidan o’z mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida, bir tomonlama, import tarifini kiritgan mamlakat savdo sheriklari javob choralarining qo’llanilishi va bu chora-tadbirlar eksportning asosiy qismini tashkil etuvchi tovarlarga nisbatan qo’llanilishini nazarda tutishlari lozim. Bu chora-tadbirlar “chora-antichora” tartibida amalga oshirilib, oxir-oqibat shu darajaga yetishi mumkinki, savdo keskin ravishda kamayadi.

Bunday holatning iqtisodiy oqibatlari oldini olish maqsadida mamlakatlar hukumatlari o’zaro kelishuvga majbur bo’ladilar va ikkala tomonni qanoatlantiruvchi tarif darajasini kelishib oladilar.

**Tarif iste’molchilar uchun soliq yukining oshishiga olib keliadi.** Chunki tarif kiritilishi natijasida iste’molchilar import tovarlarini va xuddi shunday mahalliy tovarlarni yuqori narxlarda sotib olishga majbur bo’ladi. Natijada iste’molchilar daromadlarining bir qismi davlat xazinasiga qayta taqsimlanadi va ularning mavjud daromadlari pasayadi. Iste’molchilar daromadlari bunday ko’zga tashlanmagan holda, davlat foydasiga qayta taqsimlanishi (ayniqsa, kishi boshiga to’gri keladigan daromad miqdori kam bo’lgan, kambag’al davlatlarda) yangi ijtimoiy qarama-qarshiliklar vujudga kelishiga, mavjudlarining esa yanada keskinlashuviga olib keladi. Bundan tashqari, import tarifi kiritilishi umumiy baho darajasining oshishiga va muqarrar ravishda mamlakat aholisi turmush darajasining pasayishiga sabab bo’ladi.

Import tovarlariga nisbatan kiritilgan tarif (to’lov balansi mu-

mmolarini keskinlashtirgan holda) bilvosita mamlakat eksport salohiyati pasayishini keltirib chiqaradi.

Ko'pgina davlatlarda eksport tovarlarini ishlab chiqarish uchun chetdan butlovchi qismlar va ularning komponentlarini import qilishga to'gri keladi. Shuning uchun bunday tovarlarga nisbatan import tarifi qo'llanilishi ularning narxi oshishiga, bu esa o'z navbatida eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish harajatlari oshishiga, eksport mahsulotlari jahon bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasi pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, tarif boshqa davlat uchun eksport bo'lган importning miqdori kamayishi va shundan kelib chiqqan xolda uning birinchi davlatdan importi qisqarishiga sabab bo'ladi. Eksport tovarlariga bo'lган talab kamayadi, bu esa ishlab chiqarish to'xtatilishiga va bandlik muammosi keskinlashuviga olib keladi.

Import tarifining Janubiy Amerikadagi yettita davlatning urushdan keyingi iqtisodiyotiga ta'sirini o'rghanish shuni ko'rsatadiki, import tarifi kiritilishidan aziyat chekayotgan eksportchilar tomonidan to'lanar ekan.

**Tarif bandlikning umumiy darajasi pasayishiga olib keladi.** Import tarifi import bilan raqobatlasha oluvchi tovarlar ishlab chiqaradigan mahalliy korxonalardagi ish joylarini himoya qilish bilan birga, eksportga tovar ishlab chiqaruvchi korxonalardagi va u bilan bog'liq bo'lган boshqa sohalardagi bandlikning ham pasayishiga sabab bo'ladi.

Importni cheklash natijasida eksportning qisqarishi shu darajada katta bo'lishi mumkinki, import bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqaradigan sohalardagi bandlikka import tarifining ijobjiy ta'siri eksportga tovar ishlab chiqaruvchi sohalardagi bandlikka salbiy ta'siri tomonidan qoplanib ketadi. Bundan tashqari, import bilan raqobatlasha oladigan tovarlar ishlab chiqaradigan sohalarda ishlovchi ishchilar oylik maoshlarini oshirishni talab qila boshlaydilar. Bu sohalarga o'z ishchilari o'tib ketishini xohlamaydigan, eksportga tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham oylik maosh miqdorini oshirishga majbur bo'ladi. Bu esa ulardagi ishlab chiqarish harajatlari oshishiga, ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshlik darajasi pasayishiga, umuman eksport miqdori kamayishiga sabab bo'ladi.

**Import tarifini himoyalash argumentlari.** Erkin savdo taraf-dorlarining shu darajada ishonarli isbotlariga qaramay, haqiqatda dunyo amaliyotida import tarifidan deyarli barcha davlatlar tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy usuli sifatida foydalanadi. Boj tariflari davlatning savdo siyosati vositalari ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar juda ham kengdir va har bir davlat o‘z iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda u yoki bu fikrni qo‘llaydi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun bojxona tarifining himoyasi quyidagi argumentlar xos.

**Tarif – xalq xo‘jaligi yosh sohasining himoyasidir.** Biron bir mamlakatda yangi tashkil etilayotgan, boshqa mamlakatlarda esa yetarli darajada rivojlangan korxonalar davlat tomonidan bojxona himoyasiga muxtojdir. Juda bo‘lmaganda, bu korxonalar shakillanib olmagunlariga qadar davlat tomonidan himoyaga muhtoj. Bu himoyasizlik, chetdan arzon tovarlarni oqib kelishi, ularni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Endigina qad rostlayotgan davrda ( $t_0, t_1$ ) sanoatning yangi sohasi xuddi shunday tovar ishlab chiqarayotgan chet el korxonalari bilan raqobatlasha olmaydi. Chunki u tovarni raqobatlasha oladigan narxda ishlab chiqarish tajribasiga ega emas.

Import tarifi himoyasida, yangi sanoat tarmog‘i ishlab chiqarishni takomillashtiradi, uning samaradorligi oshadi, mahsulot tannarxi pasayadi ( $t_1, t_2$ ). “A” nuqtada tovarning ichki bahosi  $R_d$  uning jahon bahosi  $R_w$  bilan yaqinlashadi. Boj tarifi bekor qilinadi. Xalqaro raqobatga ochilgan xolda, mamlakat o‘zining ishlab chiqarish samaradorligini oshira boradi ( $t_2, t_3$ ), tovarning ichki bozordagi narxi darajasidan past darajagacha kamayadi. Bu esa mamlakat uchun, yangi soha tovarlarini chetga eksport qilish imkonini beradi.

**Tarif – mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi vosita-**dir. Bu argument rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan ko‘p qo‘llanib kelingan. Chunki, mahalliy sanoat ishlab chiqarishi xorijda zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqariladigan arzon tovarlar bilan raqobatlasha olmaydi, u import tarifi himoyasiga muhtoj. Bundan tashqari, uning yo‘qligi, ishlab chiqarish hajmining kamayishi hisobiga ish o‘rinlari yo‘qotilishiga

olib keladi. Bu esa budjet uchun ishsizlik nafaqalarini berish bo'yicha qo'shimcha tashvish tug'diradi. Ishsizlikning kuchayishi xalq farovonligi pasayishiga, oxir-oqibatda ijtimoiy qarama-qarshiliklar kuchayishiga olib keladi. Bu argument tarafдорлари har qanday tarifni qayta taqsimlash xarakterini, ya'ni bir mamlakat uchun afzallikni boshqa mamlakat hisobiga ta'minlashini nazardan qochiradi.

Mamlakatlar tarif yordamida importni qisqartirish va import bilan raqobatlasha oladigan ishlab chiqarish sohalarida bandlikni saqlab qolgan holda, bilvosita o'z eksportlarini qisqartiradi.

Tarif tufayli xorijiy sheriklar o'z eksportlari uchun kam daromad oladi. Bu daromad hisobiga ular tarif kiritgan mamlakat eksport tovarlarini ko'proq xarid qilishi mumkin edi.

**Tarif – budjet daromadining asosiy manbalaridan biridir.** Boj tarifi kiritilishining ijobiyligini ifodalovchi bu argument rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan keng targ'ib qilinayapti. Bu mamlakatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi ham kiradi. O'zbekiston Respublikasida budjet daromad qismining 13-16 foizi bojaxona to'lovlariga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, boj tarifidan budjet daromadlarining manbai sifatida shu paytgacha foydalanish mumkinki, toki mahalliy ishlab chiqarish tarif himoyasida import o'rnni bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysin.

**Tarif – mamlakat iqtisodiy havfsizligi, mamlakatning madaniyati va urf-odatlarini, xalqaro obro'sining himoyasidir.** Bu argumentlar iqtisodiyotga tegishli bo'lmagan argumentlar bo'lib, siyosiy kuchlar va guruhlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda vaqt-i-vaqt bilan o'rinni bo'ladi. Bu turdag'i argumentlar odatda, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lmagan tovarlar ishlab chiqaruvchi yoki bo'lmasa hayotiy siklining oxirgi bosqichida bo'lgan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning manfaatlarini ifodalovchi guruhlar tomonidan taklif etiladi. Bunday argumentlar tez-tez raqobatbardosh bo'lmagan tovarlar ishlab chiqaruvchi siyosiy kuchga ega bo'lgan monopol ishlab chiqaruvchilar tomonidan, tarifning kiritilishi iqtisodiy samaralaridan to'laligicha manfaatdor bo'lish maqsadida kiritiladi. Milliy havfsizlik har bir mamlakatdan unda zarur bo'lgan eng kam ishlab chiqarish mavjud

bo'lishini taqozo etadi. Bu, tarifning kiritilish yoki kiritilmasligini asoslaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona tarifi va uning asosiy funksiyalari.
2. Bojxona bojlarini qanday turkumlash mumkin?
3. Import bojlarini qo'llashning iqtisodiy ahamiyati.
4. Nominal, o'zgaruvchan va haqiqiy tarif darajasi qanday hisoblanadi?
5. Tarif eskalatsiyasi nima?
6. Kichik davlat tomonidan kiritilgan import tarifining iqtisodiy samaralari.
7. Katta davlat tomonidan kiritilgan import tarifining iqtisodiy samaralari.
8. Tarifning kichik va katta davlat iqtisodiyotlariga ta'siri o'rtaida qanday farq bor?
9. Qanday tarif optimal hisoblanadi?
10. Tarif kvotasi nima?
11. Eksport tarifining import tarifi iqtisodiyotidan farqi nimada?
12. Tarifning kiritilishi tarafdorlari bilan qarshilari qanday argumentlardan foydalanadi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T: «O'zbekiston», 2000-у.
2. А.П.Киреев. Международная экономика. М: Международный отношения, 1999 г.
3. В.Б.Буглай, Н.Н.Ливенцев. Международные экономические отношения. М: Финансы и статистика, 1996 г.
4. В.Г.Свинухов. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД. М: Экономист, 2004 г.
5. Международные экономические отношения. Под ред. И.П.Фоминского, М., Экономист, 2004 г.
6. И.И.Дюмулен. ЖСТ, М., Экономика, 2003 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997-y.
3. И.В.Малкова. Мировая экономика в вопросах и ответах. М., Проспект, 2004 г.
4. Н.Сиражиддинов, А.Абдураззаков. ЖСТ: создание, принципы и процедуры вступления. Ж: Экономическое обозрение №6 (46), 2003 г.
5. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6) К.
6. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo'mitasi vebssayti.
7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebssayti.
8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vebssayti.

## **7-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI NOTARIF USULLARI**

### **REJA:**

- 1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida notarif usullari.**
- 2. Notarif usullarining turlari.**
- 3. Miqdoriy notarif usullari va ularni qo'llash tartibi.**
- 4. Moliyaviy usullar.**


Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda, jahon xo'jaligi amaliyotida, tarif usullari bilan bir qatorda, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi tarif usullarini qo'llashda samara bermaydigan masalalarini yechishda notarif usullaridan foydalaniadi.

Notarif usullaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ular odatda davlat organlari tomonidan kiritiladi. U avtonom xarakterga ega bo'lib, hech qanday xalqaro majburiyatlar bilan bog'lanmagan. Shuning uchun ularning qo'llanish hajmi va usuli to'liq milliy davlat organlari va qoidalari bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni, tashqi savdoni tartibga solish jarayoni mamlakat chegaralaridan mamlakat ichiga o'tadi, ya'ni ichki xo'jalik va texnikaviy qonuniyatlar tashqi savdo aylanmasini tartibga solishda borgan sari katta ahamiyatga ega bo'la boshlaydi.


"Notarif cheklashlar" iborasi tovarlar va xizmatlar importini va eksportini qiyinlashtiradigan ma'muriy, moliyaviy, kredit, texnik va boshqa choralarining katta guruhini o'zida mujassamlashtiradi. Hozirgi kunda notarif usullarining 800 ga yaqin turlari mavjud. Ularni shartli ravishda uchta katta guruhga: ma'muriy, iqtisodiy va texnik to'siglar guruhlariga bo'lish mumkin.

## Notarif tartibga solish usullari



3-rasm. TIFni tartibga solish notarif usullarining tarkibini.

Iqtisodiy notarif usullari – bo'lar bojlarning maxsus turjar (maxsus, dempingga qarshi, kompensatsion), har xil soliqlar va yig'imir, import depozitlari, valutani tartibga solish choralari. Notarif usullarining bir guruhi bozor mexanizmi orqali eksport va import tovarlarini qimmatlashtiradi.



4-rasm. Notarif usullarining iqtisodiy choralari

Hozirgi kunda respublikamizda, shu qonunga asosan, import tovarlarining bojxona qiymatini hisoblashning quyidagi usullari qo'llanilayapti:

- olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab;
- aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga ko'ra;
- o'xhash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab;
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida;
- qiymatlarni qo'shish asosida;
- zahira (rezerv) usuli.

Notarif tartibga solishni iqtisodiy toifasiga kiruvchi choralar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar va boshqa soliqlar tarif choralarini bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va milliy tovarlarning jahon bozorlari-dagi raqobatbardoshlik darajasini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi. Shuning uchun bu soliqlar import tovarlarining ichki bozordagi narxini tartibga soladilar va milliy tovarlarni chet el raqobatidan himoya qiladi.

Maxsus bojlarni qo'llashning umumiyligi shartlari shundan iborat: Ular shunday tovarlarga nisbatan qo'llaniladilarki, agarda bunday tovarlarni olib kirish shunday tovarlar ishlab chiqarayotgan milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazsa, yoki shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil etishga va shunday tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga to'sqinlik qilsa. Bu turdag'i bojlarni qo'llash uchun maxsus tekshirishlar olib boriladi.


Ma'muriy vositalar esa XX asrning boshlarida, ya'ni tashqi savdoda yirik firmalar va monopoliyalar ishtiroki faollashgan davrda vujudga keldi. Bu davrda firmalar katta moliyaviy resurslarga ega bo'lib, tarif to'siqlarini zabit etish va soliqlarni to'lash imkoniyatlariga ega edilar. Ma'muriy vositalarni qo'llash taomillari bojlarni kiritish va o'zgartirish taomillariga hamda boshqa iqtisodiy usullarga nisbatan ancha sodda. Ular iqtisodiy usullar yetarli darajada samara bermagan hollarda qo'llaniladi.

Shu narsa xarakterligi, Jahon savdo tashkiloti GATT/JST, tartibga solishning iqtisodiy usullarini afzal deb tan olgan holda, ba'zi bir alohida hollarda ma'muriy vositalardan foydalanishga yo'l qo'yadi.

Amaliyotda ma'muriy vositalar, GATT/JST tomonidan ruxsat berilganiga nisbatan, ancha keng miqyosda, ba'zi bir zarurat bo'lgan hollarda, belgilangan qoidalarni chetlab o'tib ham, qo'llaniladi. Shunday qilib, importni tartibga solish ma'muriy vositalarini qo'llash importni keng doirada tartibga solish imkonini beradi.

Ma'muriy notarif usullari – bular embargo, litsenziyalash va kvatalash, "eksportni o'z ixtiyoriga ko'ra cheklash", tovarlarning davlat xaridi tizimi, protektsionistik maqsadlarda standartlar va texnik me'yorlarni qo'llash va hokazo (4-rasm). Ikkinchigi guruh choralar, bozor munosabatlardan tashqari, import tovarlarning kirib kelishini va miliy tovarlarni xorijga yetkazib berilishini chegaralaydi. Ma'muriy choralar (taqiqlashlar yoki olib kirish, olib chiqishga chegaralashlar) qo'llanganda davlat ichki bozorning tovar tarkibini belgilaydi. Bu holda xaridor tovari erkin holda tanlash imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Tashqi savdoni tartibga soluvchi notarif choralar quiyidagi guruhlarga bo'linishlari mumkin: import va eksportni miqdoriy chegaralash (miqdoriy nazorat choralar), texnik choralar (savdoda texnik to'siqlar), paratarif (o'tatarifli) choralar, valutamoliya siyosati choralar, mamlakatni tashqi savdodagi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar, hukumat (davlat) xaridlari va davlat korxonalarining savdo operatsiyalari. Import va eksport operatsiyalarining miqdoriy nazorat choralar eng avvalo, kvatalash va litsenziyalashdan iborat.



**4-rasm.** TIFni tartibga solish notarif usullari ma'muriy choralarining turkumlanishi.

Miqdoriy chegaralash usullaridan – kvatalash (tovarni fizik hajmi yoki qiymati bo'yicha), shuningdek, litsenziyalash (ma'lum tovarlarni yetkazib berishda, ba'zi bir hollarda ma'lum belgilangan mamlakatlardan maxsus ruxsatnomalarni olishni talab etish).

Ma'muriy tartibga solish vositalarining keng tarqalgan turi kvota yoki kontingentdir. Bu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega bo'lib, kontingent so'zi odatda mavsumiy xarakterga ega bo'lgan kvotani belgilashda qo'llaniladi. Kvota – bu eksport yoki importni belgilangan miqdorda va summada ma'lum vaqt oralig'ida chegaralash bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy chegaralash chorasidir.

Kvotalar ta'sir yo'nalishlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- Eksport kvotalari – biron davlatni ma'lum tovar eksportining umumiyligi miqdordagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi. Bundan tashqari, bu kvotalar biror bir davlat tomonidan alohida holda, ichki bozorda taqchil bo'lgan tovarlar olib chiqib ketilishining oldini olish maqsadida ham kiritiladi.

- Import kvotalari – mahalliy hukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirish, ichki bozordagi talab va taklifni tartibga solish, shuningdek, boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan savdo bo'yicha iqtisodiy tazyiqqa javob maqsadida kiritiladigan kvotalar.

Qamrab olish darajasi bo'yicha esa kvotalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotgandan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan qat'iy nazar, ma'lum tovar eksporti va importi bo'yicha ma'lum davrga belgilanadigan kvotalardir. Bu turdag'i kvotalar ichki iste'molni kerak bo'lgan darajada ushlab turish uchun qo'llaniladi.

- Individual kvotalar – eksport yoki import qilayotgan davlat tomonidan, global kvota doirasida belgilanadigan kvotadir. Odatda bunday kvotalar o'zaro 2 tomonlama kelishuvlar asosida qo'llanadi. Bu kvotalar o'zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa man-

faatlarga ega bo'lgan davlatlarga eksport va import bo'yicha ma'lum afzalliklar beradi.

Ko'p hollarda individual kvotalar mavsumiy bo'ladi, ya'ni ichki bozorni ma'lum tovarlar bo'yicha davlat himoyasiga zaruryati bo'Iganda, ma'lum vaqt oralig'ida qo'llaniladi.

Miqdoriy notarif usullarining yana bir turi – litsenziyalashdir.

Litsenziyalash – davlat organlari tomonidan, eksport va importni belgilangan hajmi bo'yicha ma'lum davrga beriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi ruxsatnomadir.

Litsenziyalash kvotalashning tarkibiy qismi bo'lishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning alohida olingan davlat quroli ham bo'lishi mumkin. 1-holda belgilangan kvota doirasida tovarni olib kirish va olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi mumkin, 2-holda esa u bir qator aniq shaxslarga ega bo'ladi.

- Bir marotaba beriladigan litsenziya – bir savdo keli-shuvi asosida bir yil ichida tovarlar olib kirish va chiqish bo'yicha davlat tomonidan beriladigan yozma ruxsatnoma.

- Bosh litsenziya – u yoki bu turdag'i tovarlarni chegaralanmagan sondagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruxsatnoma.

- Global litsenziya – ma'lum vaqt oralig'ida, chegaralanmagan miqdordagi va qiymatdagi ma'lum bir tovarni ixtiyoriy davlatga olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruxsatnoma.

- Avtomatik litsenziya – eksportchi va importchi tomonidan, ma'lum savdo operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha ruxsat so'ralgan zahoti, davlat organlari tomonidan qaytarilmaydigan ruxsatnoma.

Litsenziyalash dunyodagi juda ko'p davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Jumladan rivojlanayotgan davlatlar tomonidan litsenziyalash importni tartibga solishda, rivojlangan davlatlar esa belgilangan kvota doirasida, importchi tomonidan ma'lum tovarni olib kirish bo'yicha ruxsatni tasdiqlovchi hujjat sifatida ishlatiladi. Importni miqdoriy chegaralash nafaqat import qilayotgan davlat tomonidan import tarifi yoki im-

port kvotalari kiritilishi orgali amalga oshirilishi mumkin, balki eksport qiluvchi davlat tomonidan «eksportni erkin ravishda» doirasida ma'lum chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ham amalga oshirish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda miqdoriy chegaralash usullari bilan bir qatorda notarif usullari ichida ko'zga tashlanmas protektsionistik, ya'ni bojxona faoliyatiga tegishli bo'limgan markaziy davlat va organlar tomonidan savdo yo'nalishida ko'rildigani to'siqlar ham katta ahamiyat kasb etadi. (5-rasm)


Ko'zga tashlanmas protektsionizm usullarini qo'llash xalqaro savdo kelishilgan pritsiplarining buzilishiga yaqqol misoldir. Ba'zi bir hisob-kitoblarga ko'ra, ko'zga tashlanmas protektsionizmning bir necha yuz turlari mavjud bo'lib, ular yordamida mamlakatlar bir yoqlama import yoki eksportni chegaralashlari mumkin.

Bular quyidagilar:

Texnik to'siqlar – savdo siyosatining ko'zga tashlanmas usullari bo'lib, ularni hosil bo'lishi shu bilan bog'liqki, milliy texnikaviy, ma'muriy norma va qoidalar chet ellardan tovarlarni olib kirilishiga to'siq qo'yilishiga mos ravishda qo'yilgan.

Texnik xarakterdagи to'siqlarning keng tarqalgan turlari – milliy standartlarga riosa qilinishini talab etish, import mahsulotlari uchun sifat sertifikatini olish, tovarlar spetsifik qadoqlashga va markirovkalashga to'g'ri kelishi, ma'lum sanitariya gigiena qoidalariga riosa qilish bo'yicha chora tadbirlar qo'llaganligi, mukammal bojxona rasmiylashtiruviga riosa qilish va boshqalar.

Masalan, Fransiya hukumati Yaponiya video kassetalari importini cheklash maqsadida, bu tovarlarning barcha partiyalarini Puate shaharchasida joylashgan kichik bir bojxona maskanidan o'tkazishga qaror qilgan. Bu katta partiyadagi bunday tovarlarni davlat bojxona hududiga tez olib kirishga to'sqinlik qilgan. Fransiya Shotlandiya viskisini reklama qilishni taqiqlagan, Buyuk Britaniya esa ingliz televideniyasi orqali chet el filiallarini ko'rsatishni taqiqlagan.



**5-rasm.** TIFni tartibga solish notarif usullarining texnik choralari (to'siqlarini) turkumlanishi.

AQSHga import qilinayotgan tovarlar, sotilgunga qadar o'chmaydigan va yuvilmaydigan harflar bilan ingliz tilida markirovkalangan bo'lislari kerak. Kanadada ham shunday talablar bor, lekin yozuvlar ham ingliz tilida, ham frantsuz tilida bo'lishi kerak. Shvetsiyada esa oziq-ovqat va tibbiyot tovarlari upakovkasida tovar to'g'risidagi ma'lumot shved va fin tillarida yozilgan bo'lishi shart.

Texnik to'siqlar barcha hollarda ham protektsionizm usullari bo'lavermaydi. Ko'p hollarda ularning qo'llanilishi ichki bozorni himoya qilish maqsadiga emas, balki aholini himoya qilishga qaratilgan. Misol uchun Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarda 1993-yildan beri aholini himoya qilish bo'yicha ko'rsatma amal qiladi. Bu ko'rsatmaga asosan ishlab chiqaruvchilar bozorga faqat aholi salomatligiga zarar yetkazmaydigan tovarlar chiqarishlari lozim.

Ichki soliqlar va yig'imlar – savdo siyosatining ko'zga tashlanmas usullari bo'lib, ular import tovarlarini ichki bozordagi narxini oshirish orqali, ularning raqobatdoshlik darajasini tu-shirishga qaratilgan. Import tovarlariga qo'llaniladigan soliqlar juda ham xilma-xil va to'g'ri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, sotuv solig'i) yoki egri soliqlardan (bojxona rasmiyatçiliklari uchun yig'im, ro'yhatdan o'tkazish va boshqa rasmiyatçiliklar uchun, import yig'imlari) iborat bo'ladi.

Ichki soliqlar va yig'imlar diskriminatsion mohiyatga ega bo'ladi. Agarda ular faqat import tovarlariga qo'llanilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tovarlari bunday soliqlarga tortilmasa.

Ichki soliqqa tortish qoidalari ham mahalliy tovarlarga, ham import tovarlariga nisbatan bir xil bo'lsa, u baho va sifat bo'yicha raqobat uchun bir xil sharoit yaratish siyosati deyiladi. Ko'p hollarda ichki soliqlar bahosi bo'yicha import bojlarining miqdoridan yuqori bo'ladi va bundan tashqari ularning stavkalari mahalliy bozorni kon'yunkturasiga qarab o'zgarib turadi.

Mahalliy komponentlarning borligi bo'yicha talab – davlat savdo siyosatining ko'zga tashlanmas usuli bo'lib, ichki bozorda sotish uchun mo'ljalangan mahsulot tarkibida mahalliy tashkil etuvchining bo'lishini belgilovchi qonundir. Odatda mahalliy komponentlarning borligini talab etish usuli rivojlanayotgan davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Bundan maqsad import tovarlaridan voz kechish uchun import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish mahalliy quvvatini oshirishdir. Rivojlangan davlatlar tomonidan mahalliy komponentlarning borligini talab etish usullaridan foydalanishdan maqsad, ishlab chiqarishning arzon ishchi kuchiga ega davlatlarga ko'chib

o'tishining oldini olish va shu orqali o'zlaridagi bandlik darajasini saqlab qolish.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda texnik to'siqlardan foydalanish tartib va maqsadlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu usullar bizning fikrimizcha ko'proq rivojlangan davlatlarga xos. Chunki rivojlangan davlatlar (bu davlatlarning hammasi asosan vtoga a'zo) Jahon savdo tashkiloti qoidalariga rioya qilgan holda, o'z iqtisodiyotlari ravnaqi to'g'risida fikr yuritishlari lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Notarif usullarining turkumlanishi.
2. TIFni tartibga solishda notarif usullardan foydalanishning tarif usullaridan afzalligi nimada?
3. Miqdoriy chegaralash usullarining qanday turlari mavjud?
4. Kvotalash turlari va ularning iqtisodiy samaralari nimada?
5. Import tarifi bilan import kvotasi samaralari o'rtaсидagi farq nimada?
6. Litsenziyalashning qanday turlari mavjud va ularning birbiridan farqi nimada?
7. Eksportni «ixtieriy» ravishda chegaralash nima?
8. Eksportni «ixtieriy» ravishda chegaralash usulining iqtisodiy samarasini nimada?
9. Moliyaviy usullar va ulardan TIFni tartibga solishda foydalanishdan maqsad qanday?
10. Ichki subsidiyalar nima maqsadda qo'llaniladi?
11. To'g'ri va egri subsidiyalar o'rtaсидagi farqlarni tushuntirib bering.
12. Eksport subsidiyalarining iqtisodiy samarasini nimada?
13. Eksport kreditlari va ularning turlari.
14. Demping va uning turlari.
15. TIFni tartibga solish tizimida texnik to'siqlarning tutgan o'rni.
16. O'zbekiston Respublikasida TIFni tartibga solishda texnik to'siqlardan foydalanish.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T: «O'zbekiston», 2005-y.
2. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
3. В.И.Фомичев. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г.
4. Дениелс Д, Радеба Ли Х. Международный бизнес. М: Дело, 1994 г.
5. Международные экономические отношения. Учебник, М., Проспект, 2004 г.
6. Международные экономические отношения. Учебник, М., Инфра-М, 2004 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Э.П.Бабин. Основы внешнеэкономической политики. Москва: Экономика, 1997 г.
2. И.И.Дюмулен. Всемирная торговая организация. М: Экономика, 2003 г.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г
4. В.К.Ломакин. Мировая экономика, П-изд., Учебник, М., ЮНИТИ, 2004 г.
5. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6) К.
6. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo'mitasi veb-sayti.
7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi veb-sayti.

## **8-MAVZU. XALQARO SAVDO SIYOSATINING TAKOMILLASHUVI VA DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI**

### **REJA:**

- 1. Erkin savdo hududlari va ularning xalqaro savdo siyosatini takomillashtirishdagi ahamiyati.**
- 2. TIFni erkinlashtirish va iqtisodiy havfsizlik muammolari.**

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlarning rivojlanishi, ular tomonidan turli integratsiya tuzilmalari tashkil qilinishiga olib keldi. Keyingi o'n yilliklarda butun dunyo xo'jaligini qamrab olgan zamonaviy liberallashtirish jarayonlari o'zaro bog'liq ikki tendentsiya bilan aniqlanadi. Birinchisi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni protektsionistik to'siqlardan sekin-asta xalos bo'lishi bo'lsa, ikkinchisi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni liberallahdir. Bu jarayon bir guruh davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik ittifoqlari yoki ochiq savdo zonalarini tashkil etish ko'rinishida amalga oshiriladi. Misol uchun, AQSH, Kanada va Meksika davlatlari o'rtasida Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etilgan. Xuddi shunday hududiy tashkilot ACEAH Osiyoning Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar o'rtasida tashkil etilgan. Maistrix Kelishuvini va Yevropa iqtisodiy hududini tashkil etish bo'yicha shartnoma imzolanishi natijasida Yevropadagi bir guruh davlatlar yangi integrallashgan jamiyatga qadam qo'ydi.

Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integrallashuv jarayonlari tobo-ra rivojlanib borishi ular iqtisodiyotlari rivojlanishi darajasidagi tafovutlarni sekin-asta kamayib borishiga olib keladi. Bunday tafovutlarning kamayib borishi esa bu davlatlar tashqi iqtisodiy aloqalari yanada erkinlashuviga, iqtisodiyotlari ochiqlik darajasi oshishiga sabab bo'ladi.

Ochiq iqtisodiy hududlar iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqlikning eng yuqori darajasiga ega. Ularda tashkil etilgan bojxona, soliq va investitsiyalar jalb etish jarayonini tezlatadi.

Ochiq iqtisodiy hududlar amalda dunyo xo'jaligi bo'yicha harakat qilib yurgan kapitallarni ushlab qoluvchi tutqichlar, qopqon-

lar desa bo‘ladi. Ochiq iqtisodiy hududlar, mamlakat ichida iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirish maqsadida chet el kapitalini jalb etish bilan bir qatorda, yana quyidagi uchta asosiy masalalarini xal etish uchun xizmat qiladi:

- eksportga tovarlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali valuta tushumlarini oshirish;
- ish bilan bandlikni oshirish;
- ochiq iqtisodiy zonalarni yangi xo‘jalik yuritish usullari tajribidan o‘tkazish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini sinab ko‘rish poligoniga aylantirish.

Mamlakat hududida ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etishning yana bir sababi, mamlakat o‘z iqtisodiyotini chet el kaptali uchun butunlay ochishdan manfaatdor emasligidadir. Ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etish dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ochiq iqtisodiy zonalarni tashkil etish bir tomondan davlat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvini tezlatsa, ikkinchi tomondan bu hududlarda ishlab chiqarishning ba’zi turlarini rivojlantirish maqsadida imtiyozlar yaratishdir. Èrkin iqtisodiy hududlar tarixi 1510-yildan boshlanadi. Shu yili ispan konkistadori Vasko Nunes de Balbao Panama qirg‘og‘iga tushdi va ikki okeanning ajratib turuvchi bo‘g‘inda o‘z sheriklari bilan birgalikda «tijorat portiga» asos soldi. Xuddi shu yerda dunyo tajribasida birinchi marta bojxona ko‘rigidan utkazish qo‘llanildi.

Hozirgi kunda EIHlar iqtisodiy rivojlanish jihatidan turli bo‘lgan davlatlarda, yangi industrial davlatlarda, rivojlanayotgan davlatlarda, shuningdek bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda mavjuddir.

Agarda 1960-yili dunyo davlatlarida EIHlar soni 2 taga teng bo‘lsa, 1975-yili 79, 1981-yili – 96, 1985-yili – 264, 90-yillar o‘rtalariga kelib 900 tadan oshib ketdi. EIHlar orqali dunyo savdo aylanmasi hajmining 10% o‘tadi, ularda eksport va import hajmining o‘sish darajasi juda yuqori. BMT ning transmiliy korporatsiyalar bo‘yicha markazi mutaxassislari baholashicha 90-yillar o‘rtalariga kelib, EIHda mashg‘ul bo‘lganlar soni 3 mln. kishidan oshib ketgan.

Dunyo tajribasida EIHlarning xilma-xil turlari mavjud bo‘lib, ularning har biri yuqorida keltirilgan umumiyl xususiyatlar bilan bir-

ga, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. O'ziga xos xususiyatlar har bir alohida holda ko'pgina omillar, omillar tuplami bilan ifodalanadi.

Bunday omillar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: joylashish joyi; konfiguratsiyasi; EIH joylashgan hududning kattaligi; ishlab chiqarish va boshqa resurslar mavjudligi va sifati; shu resurslardan foydalanishda tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlari; EIHLar tashkil etilishida davlatning o'z oldiga va EIH oldiga qo'ygan masalalari; EIHLarda davlat tomonidan ruxsat etilgan xo'jalik faoliyatları; hududlarning milliy qaramligi va boshqalar.

EIHLar bilan bir qatorda dunyo tajribasida uning alohida turi – offsher hududlari ham mavjud. Xuddi ana shunday hudud tarifi Kioto konvensiyasida berilgan. Bunday hududlar uchun quyidagi uchta belgi taalluqlidir:

- birinchidan, ular dunyo bozoriga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladi;
- ikkinchidan, ularga mamlakatning boshqa hududlarida amalda bo'lgan soliq me'yorlari va bojxona chegaralari taalluqli emas;
- uchinchidan, ular ma'lum ma'noda «erkin» bo'lishlaridan qat'i nazar, ularga tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish tegishli bo'ladi.

Yevropada shunday hududlardan birinchisi 50-yillar oxirlarida Irlandiyada vujudga keldi, so'ngra ular asosan rivojlanayotgan davlatlarda tarqaldi, ular import o'rnini bosishdan eksport ishlab chiqarishga o'tishni asosiy quroq sifatida qo'llay boshladi.

Shunga o'xshash hududlar ommaviyligi 80-yillar o'rtalariga kelib osha boshladi. Bunga sabab iqtisodiyoti eksportga qaratilgan bir qator rivojlanayotgan davlatlarning yangi industrial davlatlar qatoriga kirishidir.

Erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy funksional tuzilishi rangbarang. Ba'zida ularni tasniflash juda qiyin. Chunki bir turdag'i ochiq iqtisodiy hudud o'zida bir necha turdag'i bunday hududlarning xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Shunga qaramay, rossiyalik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyatga asosan, ochiq iqtisodiy xususiyatlarni xo'jalik ixtisoslashuvi belgilashga asosan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin

Ochiq iqtisodiy hududlarning birinchi guruhi savdo hududlari guruhi deb atalib, bu guruhga erkin bojxona, bond omborlari, erkin portlar, erkin savdo hududlari kabi ochiq iqtisodiy hududlar kiradi.

Ochiq iqtisodiy hududlarning eng sodda shakli – bu erkin bojxona hududlaridir. Bu turdag'i ochiq iqtisodiy hududlar mo'hiyatiga, tashkil etilish tarixiga ko'ra ochiq iqtisodiy hududlarning birinchi avlodiga mansubdir. Ular 17-18 asrlardan buyon mavjud. Bunday hududlarning tashkil etilishi davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni rivojlantirshga xizmat qilgan. Buyuk Temur davlatida, «Buyuk ipak yo'lida» ham shunday hududlar tashkil etilgan. Bu guruhga kiruvchi erkin bojxona hududlari eksportiga mo'ljallangan tovarlarni saqlash, ularga bir muncha ishlov berish hamda tovarlarni sotuvga tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. Erkin portlar esa davlatlarning dengiz portlarida, bu yerga chet davlatlar savdo kemalarini jalg' etish, bu yerda ularga, kemonardagi tovarlarga bir muncha ishlov berish maqsadida tashkil etilgan. Bu guruhga kiruvchi erkin savdo hududlari esa davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq jarayonlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotlarini rivojlantirshga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan. Misol uchun, MDH davlatlaridan o'ntasi, ya'ni Rossiya, Ukraina, Belorus, Gruziya, Moldava, Ozarbayjon hamda Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida imzolangan shartnomaga asosan erkin savdo hududi tashkil etilgan. Bu hudud shartnomani imzolagan davlatlar hududlaridan iborat. Shartnomaga asosan bu hududlarda ishlab chiqarilgan tovarlardan ularni import qilinayotgan bojxona bojlari undirilmaydi. Ochiq savdo hududlarini ochiq iqtisodiy hududlarning birinchi avodi deyilishiga sabab bu hududlarda davlatlararo savdo-sotiqning rivojlanishi unga xizmat qiluvchi tarmoqlarning ishlab chiqarish rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ochiq savdo hududlarda ochiq iqtisodiy hududlarning dunyoda keng tarqalgan turidir. Bunday hududlar AQSHda ko'p tarqalgan. 1934-yilda AQSH da tashqi savdo zonalari to'g'risida qonun qabul qilinishi bunday zonalarning tashkil etish jarayonlarini tezlatib yubordi. Qonunga asosan davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan erkin savdo zonalari umumiyligi ahamiyatga ega va maxsus subzonalarga bo'linadi.

Umumiy ahamiyatga ega bo'lgan zonalar katta bo'lmagan joyni egallab (bir necha kv. km), ularda olib kirilgan tovarlarni joylashtirish, ya'ni sortirovka, markirovka, qaytadan ishlov berish amalga oshiriladi.

Subzonalar esa alohida katta kompaniyalar uchun tashkil etilib, ularda eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Subzonalar erkin savdo zonalari bilan import o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi zonalar kombinatsiyasi natijasida hosil bo'lgan. 90-yillar o'rtalariga kelib, AQSH da 500 ga yaqin erkin savdo zonalari mavjud edi.

Savdo ombor hududlari tarkibida mutaxasislar tashqi savdo hududlari (AQSH), erkin bojxona hududlari (Vengriya, Yugo-slaviya, Bolgariya) va erkin portlar (Germaniya) hududlarini ajratadi. Savdo ombori hududlari nafaqat tovarlarni qabul qilish, saqlash (odatda 1-yilgacha muddatga), keyinchalik ularni sotib olish, sotish, qayta ishlash uchun, balki, shuningdek, tovarlarning iste'mol xususiyatlarini yaxshilovchi jarayonlarni amalga oshirish uchun ham tashkil etilgan.

Ular teritoriyalaridan korxonalar bojxona bojlari, shuningdek, tovarlarning iste'mol xususiyatlari yaxshilanishi natijasida qo'shilgan qiymat solig'i undirilmagan holda keng ravishda ko'rgazma faoliyati bilan shugullanishlari, savdo-sotiqni tashkil etishi, bank va sug'urta xizmatlarini taklif etishlari mumkin.

Bunday hududlar qatoriga bojsiz do'konlar d'yuti-frilar ham kiradi. Bular katta aeroportlar va dengiz portlarida tashkil etilib, ularda bojsiz tovarlar chakana savdosи amalga oshiriladi. Shuning uchun ular ko'p hollarda konsignatsion omborlar, xonalarni ko'rgazmalar o'tkazish uchun ijara berish orqali qo'shimcha valuta tushumlarini ta'minlaydi.

Barcha savdo ombori hududlari asosan daryo va dengiz portlarida, temir yul uzellarida, aeroportlarda, ya'ni tovarlar va yo'lovchilar tranziti joylarida bo'ladi. Ular doimo mamlakat iqtisodiy hududidan bojxona va davlat chegarasi orqali qo'shimcha valuta tushumlarini ta'minlaydi.

Erkin portlar – savdo ombor hududining turi sifatida aytib o'tilgan funksiyalardan tashqari, ortish, tushirish, qaytadan ortish amallarini bajaradi.

Savdo hududlari taraqqiyoti jarayonida tranzit savdosini yengil-

lashtirish vazifalari qatoriga qo'shimcha ichki bozorga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish vazifalarini amalga oshiradi.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari ochiq iqtisodiy hududlarning ikkinchi avlodiga mansub bo'lib, ular ochiq savdo zonalari evolyutsiyasi natijasida hosil bo'lgan. Sanoat ishlab chiqarish zonalari maxsus bojaxona rejimlari o'rnatilgan hududlarda tashkil etiladi va ularda eksport uchun import o'rnnini bosadigan tovarlar ishlab chiqariladi. Bu zona subyektlariga soliq va moliya imtiyozlari beriladi. Hozirgi kunda dunyoda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda eksport ishlab chiqarish zonalari keng tarqalgan. Bunday zonalarning hozirgi zamон modeli 1959-yili Irelandiyani Shenon aeroportida tashkil etilgan ochiq iqtisodiy zonadan boshlanadi. Bunday zonalarni tashkil qilishdan ayniqsa yangi industrial davlatlar ko'p samara ko'rdi.

Eksport ishlab chiqarish zonalarini tashkil etish rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bilan bog'liq. Chunki 60-yillar o'talarida bu davlatlarda eksportni qo'llab-quvvatlash, yangi ish joylarini tashkil etish masalalari paydo bo'ldi.

Texnika – tatbiq etish iqtisodiy hududlar ochiq iqtisodiy hududlarning uchinchi avlodiga mansub bo'lib, ular ko'pincha o'z-o'zidan yoki davlat tomonidan yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil etiladi. Ularda milliy va xorijiy ilmiy tekshirish, loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari yig'iladi va ularning hammasi yagona soliq va moliya imtiyozlari tizimidan foydalanadi.

Bunday hududlarni tashkil etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini yangi zamонaviy texnologiyalar asosida yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning dunyo bozorlaridagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi va unga xizmat qiluvchi ilmiy-texnika markazlarining tashkil etilishi bu korxona va tashkilotlarga bank, sug'urta, boshqa turdagи xizmatlar ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirishni taqazo qiladi. Natijada ochiq iqtisodiy hududlarning navbatdagi avodi – servis hududlari tashkil etilgan. Servis hududlari offshor zonalari va soliq gavnalari, moli-

ya-valuta fiskal rejimlari bo'yicha yaratilgan imtiyozlar bilan tad-birkorlarni o'ziga jalb etadi.

Offshor hududida ro'yxatdan o'tgan soliq va boshqa imtiyozlarga da'vogar firmalarga qo'yiladigan talablardan biri ularning offshor zona joylashgan davlat rezidenti bo'lmasligi, uning hududida foyda olmaslik. Soliq gavanlarining offshor hududlaridan farqi shundaki, uning hududidagi barcha firmalar birday barcha turdag'i yoki ayrim turdag'i faoliyatları uchun soliq imtiyozlari dan foydalanadi. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ziyod offshor markazlari mavjud. Ular ichida 70 ga yaqini soliq gavanlaridir. Anchadan beri offshor hududlar tashkil topgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Nomand orollari, Antil orollari, Gonkong, Liberiya, Irlandiya, Shveytsariya davlatlari kiradi.

Offshor hududlarida joylashgan ishlab chiqarish, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar umuman soliq to'lashdan ozod etilgan yoki uncha katta bo'limgan pashshal soligiga tortiladi. Offshor hududlaridagi imtiyozli rejim nafaqat soliqqa tortilmassislik, undirilayotgan soliq miqdorining kamligi bilan, balki valuta bo'yicha cheklash yo'qligi, foydani erkin ravishda olib chiqib ketish, chet el investorlari uchun bojxona bojlari va yigimlari yo'qligi va boshqa turdag'i yengilliklar bilan xarakterlanadi.

Ochiq iqtisodiy hududlarning keyingi turi – bu kompleks hududlardir. Ular mamlakat hududida mavjud umumiyligi rejimdan farqli o'laroq, o'ziga xos imtiyozli rejimlarga ega bo'lgan ma'muriy hududiy bo'linmalarga aytildi. Bular qatoriga Xitoya tashkil etilgan 5 ta maxsus iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus», Argentinadagi «Olovli yer», hamda rivojlangan davlatlar tomonidan depressiya hududlarida tashkil etilyotgan kompleks zonalari kiradi.

90-yillardan boshlab davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarining yanada rivojlanishi, ularning bir-biriga bog'liqlik darajasining oshishi, davlatlarda mavjud u yoki bu turdag'i resurslardan unumli foydalanish maqsadida xalqaro iqtisodiy hududlar tashkil etila boshladi. Hozirgi kunda Tumangan (Tumantszyan) xalqaro iqtisodiy hududini tashkil etish bo'yicha loyiha tayyorlangan. Bu ochiq iqtisodiy hududni Rossiya, Xitoy va Koreya xalq demokratik respublikalari chegaralari tutashgan joyda tashkil etish

mo'ljallangan. Loyiha 20-yilga mo'ljallangan bo'lib, uni qiymati birinchi bosqichda 90–110 mlrd AQSH dollari miqdorida bahanayapti.

Bu ochiq iqtisodiy hududni tashkil etishda Yaponiya, Janubiy Koreya, Mongoliya, Xitoy, KXDR va Rossiya davlatlari ishtiroki ko'zda tutilayapti. Ochiq iqtisodiy hududda, loyihaga ko'ra, katta port, ko'plab sanoat, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rish ko'zda tutilgan, hududda tashkil etilajak ishlab chiqarish korxonalariga Xitoy va Koreya ishchi kuchi, Rossiya xomashyo yetkazib berishlari ko'zda tutilgan.

TIFni erkinlashtirish (liberallashtirish) deganda eng avvalo TIA qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga solish ma'muriy uslublarining ma'lum qadar qisqarishi, mavjud to'siq va g'ovlarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlaqo muqarrar, ichki iqtisodiy munosabatlarni erkinlashuvi (liberallahuvi) ning mantiqiy oqibatlaridir. Samarali bozor mexanizmi faqatgina jahon bozor munosabatlari bilan uzviy aloqada tashkil qilinishi mumkin. Yana bunda, eng muhimi, turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma'lum darajada o'xshashlidir. TISni erkinlashtirish islohotlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'tish davrini tezlashtiradi.

Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari – xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirish, TIA larning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishiga (tashqi iqtisodi y operatsiyalar markazlashuviga) barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to'siqlarni olib tashlash, eksportning rivojlanishini faollashtirish (bojlar, litsenziyalar, kvotalar va imtiyozlarni qisqartirish orqali), milliy valutaning konvertatsiya qilinishini ta'minlashdir.

Bu shakllar, jahon tajribasi ko'rsatganidek, to'liq holda hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida ham qo'llanolmaydi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda davlat ma'lum cheklanishlarni o'rnatadi, bojxona tariflaridan keng foydalanadi, turli taqiqlarni kiritadi va hokazo. Bozor mexanizmi endi shakllanayotgan, mavjud ishlab chiqarish sharoitlariga hali to'liq moslashmagan o'tish davri iqtisodiyotida davlatning roli yana-da muhim.

Shuning uchun o'tish davri iqtisodiyotida TIA ni erkinlashtirish siyosati ichki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga zarar keltirmagan holda, mamlakatda bozor munosabatlarini tezkor rivojlanishi va uning jahon xo'jaligiga uyg'un qo'shilishini maqbul darajada ta'minlashi zarur.

Moliyaviy kapital bozorining ochiqlik darajasi alohida masala sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shak-shubhasiz, shunday ochiqlik darajasi talab etiladiki, u birinchi navbatda, investitsiyalarni bevosita jalb qilishni ta'minlashi zarur. Biroq, portfel investitsiyalar, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli kreditlarni jalb etish ancha murakkab masala. Yaqinda kuzatilgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy tanglik shuni ko'rsatadiki, hayiqish holati, ya'ni mamlakatdan kapitallarning birdaniga chiqib ketish jarayoni yuz berganda qisqa muddatli kapitallar erkin harakati iqtisodiyotni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birqalikda kreditlar va fond resurslari erkin harakatining mushkullashtirilishi, milliy xo'jalik imkoniyatlarini cheklaydi.

Valyuta bozorining liberallahushi milliy valutaning konvertatsiya qilinishi, avvalambor, xorijiy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiya qilinishini ta'minlashni bildiradi. Uning ta'minlanmaganligi – TIA lar rivojlanishi uchun jiddiy to'siqdir. Valyuta bozorining to'liq liberallahushi, albatta, kapital hisobi bo'yicha konvertatsiya qilinishini ham ko'zda tutadi. Biroq, moliyaviy tizim samarasi past bo'lgan mamlakatlar valutaning to'liq konvertatsiya qilinishiga shoshilmasliklari maqsadga molikdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kezlarida TIF ni amalga oshirishda na zaruriy institatlarga, na yetarli mutaxassisatlarga, na samarali o'rnatilgan aloqalarga ega edi va shuning uchun boshlang'ich bosqichda o'z TISini ishlab chiqish va yurgizishda katta qiyinchiliklarga duch keldi.

Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan liberallashtirish natijasida O'zbekiston tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me'yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmoqda: litsenziyalashtiriladigan tovarlar ro'yhati qisqardi; miqdoriy chekla-

nishlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda; erkin konvertatsiya qilinadigan valutaga o'zi ishlab chiqargan raqobat-bardosh tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa, katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzlusiz ravishda takomillashib bormoqda, investitsion qo'yilmalarni sug'urta qilish tizimi rivojlanmoqda, moliyalashtirishning eng murakkab sxemalarini qo'llash asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy infratuzilmalar tashqi iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar hali ham saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag'batlantirish – nafaqt erkin ayriboshlanadigan valutada daromadlar o'sishining muhim manbasi, jahon iqtisodiga integratsiyalashuvning asosiy vositasi, balki boshlangan iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydigan milliy valutani mustahkamlash, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi nima?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari.
3. Ochiq iqtisodiy hududlar va ularning mamlakat iqtisodiy rivojidagi o'rni.
4. Ochiq iqtisodiy hududlarning turkumlanishi.
5. Ochiq iqtisodiyotga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni nimada?
6. Rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilish tarixi.
7. Offshor hududlar va ularning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri qanday?
8. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy hududlarining tashkil etilish tarixi to'g'risida so'zlab bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T: «O‘zbekiston», 1997-y.
2. B.G.Svinuhov. Таможенно-тарифное регулирование ВЭД, М., Экономист, 2004 г.
3. E.F.Avdokushin. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
4. B.I.Fomichev. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г
5. Международные экономические отношения. Учебник, под ред. И.П.Фоминского, М., Экономист, 2004 г.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to‘g‘risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997-y.
3. Н.А.Микашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика, Ш-изд., М., Дело-Сервис, 2004 г.
4. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml?13/12-6) K.
5. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo‘mitasi vebssayti.
6. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebssayti.

**9-MAVZU. MINTAQALARARO SAVDO-IQTISODIY  
MUNOSABATLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
IQTISODIY MUNOSABATLARINING SAMARADORLIGI**

**REJA:**

- 1. Savdo-iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishida iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati.**
- 2. Yevropa Ittifoqi (YeI) doirasida integratsiya jarayonlari tajribasi.**
- 3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorligi.**

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlarining mavjudligini yodda tutamiz va ularga asoslanamiz (I.A.Karimov, 1999). Iqtisodiy hamkorlikka intilayotgan dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlarning boshlangich shart-sharoitlari turli darajada bo'lishi bunga asosdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bu borada O'zbekiston ham ochiq iqtisodiyot tarafdori sifatida, jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvida muayyan siyosatga egadir. Uning asosiy mohiyati I.A. Karimovning quyidagi fikrlarini o'z aksini topgan, ya'ni «O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajada – dunyo miqyosida va mintaqqa qo'lamida – integratsiya jarayonlarida, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi». O'zbekiston YeI kabi uyushma bilan bevosita aloqalarni rivojlantirish orqali bir vaqtning o'zida unga a'zo mamlakatlarining 375 mln. kishilik yirik bozoriga keng yo'l ochilishi tabiiy va O'zbekiston bunday bozorga o'z mahsulotlari bilan kirishda birinchchi navbatda manfaatdor bo'lishi kerak.

Yevropa Ittifoqini va u orqali bizning mamlakatimiz uchun butun Garbni, yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbai, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlari ramzi sifatida ko'rish mumkin. Bularning barchasi hozirda ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror rivojlanayotgan va buyuk davlat bo'lish maqsadida yangilanish, taraqqiyotni o'zining strategik vazifasi qilib olgan mamlakatimiz uchun zarurdir.

## **Asosiy natija va xulosalar.**

Kelib chiqish tabiatи, tarkibi, amal qilishiga ko'ra Yevropa Ittifoqi boshqa xalqaro tashkilotlardan farq qiladi. Uning supranatsional institutlari huquqiy o'zligi a'zo davlatlarnikidan farq qilgan holda siyosat yuritishga va qonunchilikka qulay tarmoqni ta'minlaydi. Hamjamiyat, Yevropada juda katta iqtisodiy talofatni keltirgan va qit'ani ikki super hokimiyatlar tomonidan boshqarilgan bir-biriga qarshi bloklarning ustivorligi holatida qoldirgan Ikkinchи jahon urushidan keyingi davrda shakllandi.

Yevropada yuz bergen va hozirda ham o'zining yangi qirralari bilan davom etayotgan integratsiya jarayonini taxlil qilish orqali quyidagi xulosalarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

1. Integratsion tajriba nafaqat ikki va undan ortiq davlatlar o'rtaсидаги bojxona tariflari, soliq imtiyozlari va huquqiy aktlarning uygunlashuvini, balki mamlakatlar orasida kapital, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlarning erkin oqib o'tishiga olib keluvchi kerak bo'lsa, ta'minlovchi o'zaro manfaatli mexanizmlarning amalga oshirilishini uz ichiga oladi. a) ya'ni, bu bilan biz aytmoqchimizki, agar davlatlar o'zaro iqtisodiy munosabatlarni ikki tomonlama savdo kelishivi asosida rivojlantirsa, bu xali integratsiyani anglatmaydi. v) u biror-bit davlat o'z hududining bir qismini, aytaylik, elektr-energiya bilan ta'minlash maqsadida boshqa bir aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatning energetika sohasiga o'z investitsiyalarini yo'naltirgan va buning oqibatida yetarli ijobjiy natijaga erishgan tarzdagina vujudga keladi.

2. Pirovard maqsadga erishish yo'lida ishlab chiqarilgan qoidalari integratsion jarayon qatnashchilarining barchasi tomonidan birdek qabul qilinadi.

3. Har bir davlat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan iqtisodiy manfaatlarga erishish uchun bunday xarakterga hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va siyosiy sohada o'zaro qarama-qarshiliklarga barham berishga to'g'ri keladi.

4. Integratsiya ixtisoslashuvi o'zaro to'ldiruvchilik xususiyatiiga ega bo'lishi kerak.

Integratsiya jarayoni tarkibida eng asosiy shu xususiyatlar ku-

zatilgan taqdirdagina iqtisodiyotlarning haqiqiy yaqinlashuvi ha-qida so‘z yuritsa bo‘ladi.

Integratsiya jarayonini tahlil qilishda, barcha xususiyatlarni umumlashtirilgan holda, Yevropa integratsiyasi avval yuzaki integratsiyani amalga oshirish orqali keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishdi, deyish mumkin. Bu orqali turli iqtisodiy yondashuvga ega bo‘lgan mamlakatlarning asosiy maqsad-lari savdodan, raqobatning hususiyatlari va keng qamrovli iqtisodiyotdan iloji boricha samarali foydalanish evaziga foyda ko‘rishdir.

Dastlabki bosqichda o‘zaro iqtisodiy munosabat ma’lum mah-sulot bozoriga asoslangan tarzda, ularni ochiq raqobat sharoiti-da ishlashini ta’minalash maqsadida amalga oshiriladi. Bu yerda oddiydan murakkabga tomon harakat yuz beradi. Iqtisodiy mu-nosabatlar qo‘lamli kengaya borgan sari davlatlar o‘rtasida ro‘y beradigan ham moliyaviy, ham iqtisodiy operatsiyalar salmogi ham oshib boradi. Bu esa o‘z navbatida iqtisod va moliya so-hasidagi standart va tuzumlarning asta-sekin uyg‘unlashib borishini taqazo etadi.

Yevropa davlatlarining iqtisodiy o‘sishida hukumatlararo dara-jada ro‘y berayotgan integratsion jarayonlar juda jiddiy ta’sir kuchiga ega. Xo‘jalik aloqalarining tobora rivojlanib, o‘sib borishi va iqtisodiy subyektlarning ko‘proq o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi iqtisodiy hayotning asosiy sohalarida yagona siyosatni olib borish zaruriyatini tug‘dirdi, qaysiki o‘z navbatida xo‘jalik hayotini tartibga solishning yagona mexanizmining yaratilishiga olib keldi.

Iqtisodiy integratsiya hodisa yoki jarayonning holatini belgilovchi, ilgari alohida bo‘lgan iqtisodiyotlarning yuksakroq tadbirlar borasidagi kombinatsiyani o‘z ichiga oladi. Unifikatsiya natijasidagi daraja va qo‘lamdan kelib chiqqan holda integratsiya turlarini belgilash mumkin bo‘ladi. Shu bois, to‘liq iqtisodiy integratsiya bilan tarif va savdo borasidagi umumiyl kelishuv va dunyoning qolgan qismiga nisbatan kamsitish elementi bilan harakterlangan regional integratsiya kabi institutlar o‘rtasida farqni belgilash mumkin. Iqtisodiy integratsiyaga erishishning yo‘llaridan biri bu, tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining er-kin oqib o‘tishini ta’minalash uchun to‘siqlarni olib tashlash va

masalalarni raqobat, bozor dastaklarining ixtiyoriga qoldirishdir. Shunday bo'lsa ham, bu o'z tabiatiga ko'ra asosan salbiy jarayon bilan birga kuzatilishi mumkin.

Iqtisodiy integratsiyaning eng sodda ko'rinishi preferentsial tarif kelishuvlari hollarida yuzaga keladi. Bu a'zo mamlakatlar bilan savdodagiga qaraganda tarifning pastroq bo'lishini taxmin qiladi.

Erkin savdo hududlarida kelishuvga kirgan tomonlar o'zaro mahsulotlar bilan savdodagi himoyani butunlay olib tashlashga kelishadilar, lekin ayni chog'da o'zida chetdan kelayotgan mahsulotlarga nisbatan himoya darajasini aniqlashda mustaqillikka egadirlar. Bunga o'zining asl mohiyatiga ko'ra Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (YeESA) yorqin misol bo'la oladi. Erkin savdo hududlari o'z mohiyatiga ko'ra qisman bo'lishi, shu ko'rinishdaki, ya'ni faqat belgilangan iqtisodiy sektorlarni o'z ichiga olishi mumkin. YeKPX shu nuqtadagi hodisa edi, chunki u faqat ikkita sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi va erkin savdo hududlari kategoriyasiga, dastlabki paytda uchinchi mamlakatlardan importga qarshi umumiy himoya darajasi bo'limganligi uchun to'g'ri keladi. Xuddi shuningdek YeESA ham qisman edi, chunki qishloq xo'jaligi savdosi ko'p jihatdan istisno qilingandi. Har holda shuni ta'kidlash kerakki, ichki savdoni erkinlashtirish shuningdek, kvota cheklanishlari va «notarif to'siqlar» NT deb nom olgan boshqa bir qator himoya shakllarini ham olib tashlashni taqazo etadi.

Iqtisodiy integratsiyaning ustunliklari haqida gap borganda, eng muhimi, bu butun integratsiya jarayonini harakatlantiruvchi goyadir, chunki integratsiya odatda o'z a'zolarining foydalari uchun xizmat qilib, ularni yuqori yashash darajasiga ega bo'lishga olib keladi. Ustivorlik borasida integratsiya bojxona ittifoqi bosqichida kontsentratsiya qilgan holda muloxaza va munozara qilish qulayroq, iqtisodchilar bojxona ittifoqini doim universal erkin savdoga o'rinnbosar va tomonlar uchun foydali deb hisoblasalar-da, bu borada hozirgi davrgacha argumentlar mavjud. Masalan, bojxona ittifoqi blok miyosidagi erkin savdoni, biroq agar kelgusida tegishli siyosatlar qabul qilinmasa, dunyoning qolgan qismiga nisbatan diskriminatsiyani anglatadi. Shuning uchun

ham uning savdoni yaratish va savdoni qaytarish effektlari foydali yoki foydasiz bo'lishi mumkin. Yelning shakllanishi va so'nggi o'rinda kengayishi jarayoni dunyoning qolgan qismiga nisbatan o'zaro a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo ulushining oshishi bilan hamohangdir. Shu tariqa, 1958-yildan 1972-yilga qadar dastlabki YeX a'zo davlatlariaro savdo 15 foiz o'sdi, a'zo bo'Imagan davlatlar bilan esa 8,5 foizni tashkil etdi. YeXni tuzishning savdosida samaralarini hisoblash yuzasidan qilingan harakatlar 1970-yilga qadar hamjamiyat ichra savdo 8-15 mlrd AQSH dollariga kengayganini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan savdoning o'rtacha 15-30 foizga oshganini aks ettiradi. Shuningdek, Robson (Robson, 1987) o'z hisobotida sanoat ishlab chiqarishdagi savdoni yaratish savdoni qaytarishga nisbatan bir necha barobar ko'p edi deb ta'kidlasa, bunga qarshi Balassa (Balassa, 1975) qishloq xo'jaligidagi savdoni qaytarish 1,3 mlrd AQSH dollarini tashkil etganini ko'rsatadi. Shunday bo'lsa ham, umumiy hisobda a'zo bo'Imagan davlatlar bilan savdoda, savdoni qaytarishdan ko'ra tashqi savdoning yaratilishi ijobiy ta'sirga ega bo'lgan. 1980-yilga qadar savdoni yaratish effekti natijasida keng qo'lamlı iqtisodiyotlardan kelgan foyda umumiy YaIMning 3-6 foizini tashkil etgan.

Savdoni yaratish va savdoni qaytarish effektlaridan kelib chiqqan holda, prefentsial bo'Imagan arifga e'tibor berish juda muhim ahamiyat kasb, chunki:

1. Yuqori harajatli mahsulotni taklif etuvchi foydasiga xizmat qiluvchi savdo diskriminatsiyasining mavjud bo'imasligi holatida hech qanday savdoni qaytarish yuzaga kelmaydi.

2. Bojxona ittifoqi tuzish natijasida savdoni yaratishdan keladigan foydani, faqat bitta kam harajatli hamkor davlat (Germaniya) dan emas, balki eng kam harajatli mahsulotni taklif etuvchi (bizning misolda AQSH) dan kelishi evaziga maksimal-lashtirish mumkin.

Bojxona ittifoqini tashkil etayotgan davlatlar umumiy tashqi tarifning maqbul darajasini o'rnatishga alohida e'tiborni qarashlari orqali savdoni qaytarishning oldini olishlari mumkin.

Savdoni yaratishdan keladigan foydani oshirishga erishish quyidagi sharoitlarning ta'minlanishini talab etadi:

1. A'zo davlatlar orasida tarif bilan himoyalangan faoliyatlarida ekstensiv o'xhashlik va bir-biriga bog'liqlik;

2. A'zo davlatlar o'rtasida himoyalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish harajatlaridagi keng farqlanish;

Shu o'rinda savdoni qaytarish effektlarini minimallashtirish uchun quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

1. Ittifoq a'zolari soni ko'p bo'lishi va shu tariqa savdosi qaytarilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar sonining kam bo'lishi;

2. Dastlab ishlab chiqarishga nisbatan savdoning past darajada bo'lishi;

3. Kelajakda bojxona ittifoqi doirasida hamkor bo'luvchi mamlakatlar urtasida savdoning ulushi yuqori bo'lishi. Boshqacha aytganda, bojxona ittifoki hozirgi vaqtida iqtisodiyotlari raqobatdosh biroq salohiyat jihatidan bir-birini to'ldiruvchi mamlakatlar o'rtasida shakllanishi kerak.

Umumiy bozor ishlab chiqarish omillarining erkin harajatini o'z ichiga oladi. Bunday holatda asosiy foyda omillar o'zlarining eng yuqori daromad keltiradigan va yuksak iqtisodiy farovonlikni ishlab chiqaradigan hududlariga erkin oqib o'tishi hususiyati ga egadir. Bunday holatda iqtisodiy integratsiya darajasini 1) davlatlararo ishlab chiqarish omillari bahosi va narxlarini solish-tirish; 2) a'zo mamlakatlar savdo holatlari va sharoitlarini baho-lash orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Umumiy bozorni tashkil etish dasturi Yel doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakatini ta'minlash natijasida Ittifoq YaMM 5 foizga o'sishini ko'zda tutgan edi. Ha-qiqatda esa, bu ko'rsatkich (1990-yil bozor narxlarida) 1992-yilda 1 % ni, 1993-yil – 0,6, 1994-yil – 2,8, 1995-yil – 2,5 va 1996-yil – 1,5 % ni tashkil etdi.

Dunyoda biron bir mamlakat o'z qobig'iga o'ralib, boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilmasdan, taraqqiyotga erish-gan emas. Ota-bobolarimiz qadimda buni yaxshi bilishgan. Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan Buyuk Ipak Yo'li ham doimiy tijorat va madaniy aloqalarga intilish tufayli yuzaga kelgan.

Har qanday davlatning taraqqiyot darjasini, muvaffaqiyati, eng avvalo, uning xalqaro aloqalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu-

gungi kunda O'zbekiston jahondagi 140 dan ortiq davlatlar bilan rasmiy diplomatiya munosabatlarini o'rnatgan hamda ular bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'ygan. O'zbekiston bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlarning to'laqonli a'zosidir.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlashda, Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliy korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiylari samara bermoqda. O'zbekiston xalq xo'jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori yildan-yilga ortib bormoqda. Keyingi yillarda ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxonalari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekistonda investitsion muhitni shakllantirish, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni vujudga keltirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayoni izchillik bilan davom ettirilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yurtboshimiz Islom Karimovning 11 yanvar 2001-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan, idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Bugun biz jahon iqtisodiyoti bilan tobora ko'proq integratsiyalashib bormoqdamiz. Iqtisodiyotimizda qo'shma korxonalarning ulushi, ularning mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i tobora ortmoqda, xorijiy kapital mammakatimizda mustahkam o'rin egallamoqda. Bizga sherik bo'lgan mamlakatlar va bizning bozorimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el firma va kompaniyalari bilan hamkorligimiz va kooperatsiya aloqalarimiz yildan yilga kuchaymoqda. Muxtasar qilib aytganda, biz dunyo bozoriga chiqib bormoqdamiz, sheriklik va hamkorlik munosabatlarimiz tobora mustahkamlanmoqda".

Dunyo miqyosida O'zbekistonning mavqeい mustahkamlana borishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyat tamoyillariga aniqlik kiritildi. Bugungi kunda "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, ushbu asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

— barcha davlatlar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik;

- tomonlarning tengligi;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha sheriklarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni halol va aniq bajarish;
- hamma tomondan e'tirof etilgan boshqa xalqaro me'yorlar, qoidalar va shartlarga og'ishmay rioya etish;
- davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Mustaqil tashqi iqtisodiy siyosat – qabul qilingan qonunlar va eng muhim tamoyillar negizida shakllanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, bojxona chegarasi orqali tovarlar, xizmatlar, valuta boyliklarini doimiy ravishda olib o'tish – odat tusiga kirdi hamda iqtisodiy o'sishning eng muhim omiliga aylandi. Ko'plab mamlakatlarda aynan shular milliy iqtisodiyotning ahvolini belgilaydi va bu tendentsiya istiqbolda kuchayadi. Bino-barin, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning eng muhim, asosiy yo'nalishi bo'lgan bojxona siyosatini yaratish O'zbekiston Respublikasining shakllangan va tobora murakkablashib borayotgan ichki va xalqaro bozor tamoyillari asosida dunyo xo'jaligi bilan xalqaro savdo aloqalariga kirib borishini ta'minlovchi samarali bojxona siyosatini shakllantirishni taqazo etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy integratsiya va uning asosiy bosqichlari.
- 2. Yevropa iqtisodiy integratsiyasining tarixi.
3. Yevropa iqtisodiy integratsiyasining hozirgi kundagi pirov-ard natijalari.
4. Iqtisodiy integratsiyaning eng sodda ko'rinishi.
5. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy omillari.
6. MDH davlatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarning holati.
7. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya qachon boshlangan?
8. O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T: «O‘zbekiston», 2000-у.
2. Международные экономические отношения. Учебник, М: Проспект, 2004 г.
3. Международные экономические отношения. Учебник, М: Инфра-М, 2004 г.
4. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
5. В.И.Фомичев. Международная торговля. М: Инфра-М, 2001 г.
6. В.К.Ломакин. Мировая экономика. П-изд., Учебник, М., ЮНИТИ, 2004 г.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Э.П.Бабин. Основы внешнеэкономической политики. Москва: Экономика, 1997 г.
2. И.И.Дюмулен. Всемирная торговая организация. М: Экономика, 2003 г.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г.
4. Н.Сиражиддинов, А.Абдураззаков. ЖСТ: создание, принципы и процедуры вступления. Ж: Экономическое обозрение №6 (46), 2003 г.
5. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml). 13/12-6 К.
6. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo‘mitasi vebayti.
7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebayti.
8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi vebayti.

## **10-MAVZU. JST/GATT – XALQARO SAVDO TASHKILOTI VA XALQARO SAVDONI TARTIBGA SOLISH TAMOYILLARI**

### **REJA:**

- 1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv va Jahon savdo tashkiloti.**
- 2. Jahon savdo tashkiloti – ko'p tomonlama savdo tizimi.**
- 3. O'zbekiston Respublikasida JST/GATTga a'zo bo'lish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlar.**

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) – xalqaro savdoning boj-tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng nufuzli tuzilmadir. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «Bu tashkilot jahon savdosining hozirgi tizmini boshqarishda markaziy urinni egallab turibdi».

GATT 1947-yilda Jenevada tuzilib, tovar aylanmasi xajmini kengaytirish maqsadida xalqaro savdoning barqaror qoidalarini qaror toptirish intilishlarini aks ettiradi.

Dastavval AQSH takliflari asosida xalqaro savdo tashkiloti tashkil etish ko'zlanib, uning nizomi ishtirokchi davlatlar tomonidan ratifikatsiya kilinmay, o'rniga boj siyosati asosiy qoidalari to'g'risida ko'p tomonlama kelishuv – boj va tariflar to'g'risidagi bosh kelishuv kuchga kirdi.

Bu kelishuv savdo erkinligi goyalarini, ya'ni ishtirok etuvchi taraflarning tengligini ifoda etadi. Bunday goyalar bir necha qoidalarda yanada aniq aks ettirilgan.

Birinchi va eng asosiy qoida diskriminatsiya qilmaslik tamiyili, «eng ko'p qulaylik berish» shaklini olib, bu tashqi savdo ishtirokchilari hammasining tengligini ta'minlash va ularni diskriminatsiya qilmaslik to'g'risidagi tezisdir. «Eng ko'p qulaylik berish» rejimi ishtirokchi davlatlarning o'zaro yetkazib berilayotgan tovarlarga nisbatan har qanday uchinchi tomon tovarlarga nisbatan boj stavkalaridan yuqori bo'Imagan boj stavkalarini qo'llash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis maxsus iqtisodiy guruhlar tashkil etadigan hollarda undan chekinishga ruxsat beradi.

Shuningdek rivojlanayotgan davlatlarning preferentsiya boj rejimlaridan bir taraflama foydalanishi huquqi ham alohida qayd etilgan.

Diskriminatsiya qilmaslik tamoyili «milliy rejim» tushunchasining asosida ham yotadi. Unga ko‘ra, a’zo davlat o‘zining va boshqa a’zo davlat tovar va xizmatlari urtasida diskriminatsiya rejimini o‘rnatmasligi kerak. Tovar va xizmatlar boshqa davlatning chegarasini kesib o‘tganidan boshlab ularga mahalliy ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga bo‘lgan munosabatda bo‘linishi talab etiladi. Bu, eng avvalo, soliqka tortish, tovarning sifati va sertifikatsiyalashtirilishiga nisbatan talablarga taalluqli.

Ikkinci tamoyil tashqi savdoni tartibga solish usullari qo‘llanilishining huquqiy asoslanganligi tamoyilidir. GATT shunday usul sifatida faqat bojlarni tan oladi. Tashqi savdoni tartibga solishning boshqa usul va shakllari qo‘llanilmasligi talab etilib, ular qo‘llanilgan holda ham amal qilish davri qisqa bo‘ladi, faqat istisno holatlarida joriy qilinishi mumkin. GATTga a’zo davatlarga kvotalardan foydalanish hamda eksport yoki import litsenziyalarini qo‘llash tavsiya etilmaydi. Biroq GATTda miqdoriy cheklashlarni joriy etish o‘rinli hisoblanib ularni asoslaydigan extimoliy istisno holatlari ro‘yxati keltirilgan. Shular qatoriga qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tartibga solish dasturlarini amalga oshirish yoki to‘lov balansi muvozanati buzilishi holatlari kiradi.

Va, nihoyat, GATT faoliyatining eng asosiy tamoyili qarorlarni qabul qilish va chora tadbirlarni amalga oshirish qoidalari aloqadordir, bu, eng avvalo, bir taraflama harakatlardan o‘zaro muzoqaralar va maslahatlar foydasiga voz kechishdir. Ish-tirokchi davlatlar tashqi savdoni cheklashga qaratilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi: barcha qarorlar faqatgina savdo masalalariga bag‘ishlangan o‘zaro muzokaralar doirasida qabul qilinadi.

Bugungi kunda dunyodagi 148 mamlakat JST (Jahon savdo tashkiloti) a’zosi bo‘lib, ular Uruguay raundi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ish ko‘radi. Hozirda yana 30 ta mamlakat JSTda kuzatish maqomini qo‘lga kiritgan va ular ham a’zolikka da’vogardir.

JSTga a'zo bo'lish ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar hukumatlari tomonidan JSTga kuzatish maqomini qo'lga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichida tashkilotga teng huquqli a'zo bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayonining ushbu bosqichi hukumatlar tomonidan JSTga maxsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi.

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasida-  
gi savdo-iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jihatlar o'z aksini to-  
padi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik  
shartlari atroflicha o'r ganib chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa  
mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha maxsus ish-  
chi guruhi tashkil etiladi. Ishchi guruhi majlislarida da'vogar  
mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va xizmatlar turi bo'yicha beri-  
lishi mumkin bo'lgan imtiyozi va majburiyatlar xususida JST-  
ga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama  
mu zoqaralar olib boradi. Mu zoqaralar jarayonida o'rnatilgan tar-  
tiblarning amalda ijro etilishi mamlakatlar uchun majburiy  
hisoblanadi va ularning istagan vaqtida o'zgartirilishi qat'ian man  
etiladi.

A'zolikka da'vogar mamlakatning savdo rejimini o'r ganish va  
uning bozoriga kirib borishi to'g'risidagi mu zoqaralar o'z yaku-  
niga yetganidan so'ng, ishchi guruhi tomonidan a'zolikka qabul  
qilish to'g'risidagi asosiy shart-sharoitlar ishlab chiqiladi. Majlis  
natijalariga ko'ra, maxsus bayon nomma tayyorланади va u Bosh  
yig'in yoki vazirlar anjumanida JST a'zolarining 3/2 qismi to-  
monidan qo'llab – quvvatlanilgan taqdirdagina imzolangan va  
tasdiqlangan deb topiladi. Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lganlaridan  
so'ng, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning bar-  
chasini qabul qilishlari va ularga amal qilishlari shart.

2003-yilning 10-14 sentyabrida Meksikaning Kankun shah-  
ida bo'lib o'tgan JSTning 5-Vazirlar Konferentsiyasida 148 mam-  
lakat savdo vazirlari o'rtasida yuzaga kelgan turli kelishmovchi-  
liklar sababli jahon savdo tizimini yanada erkinlashtirish borasi-  
da hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar o'z yechimini topa ol-  
madi. Biroq, mazkur vaziyat JSTning xalqaro miqyosdagi nu-

fuziga ta'sir ko'rsata olmaydi, albatta. Chunki, bu tizim millatlar uchun ma'lum bir ustunliklar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi tabiiydir.

JST tizimining ustunliklari unda yirik savdogar davlatlarning a'zo bo'lganligi bilan emas, balki uning erkin tovar almashinushi jarayonida mamlakatlar uchun turfa xil iqtisodiy manfaatdorliklarni ta'minlashi bilan izohlanadi. Bu tizim a'zo mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga, shuningdek, fuqarolar farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. JST savdo tizimi mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolida, shuningdek, alohida fuqarolar va umuman jahon hamjamiyati doirasida o'z ustunliklarini namoyon etadi.

Xususan, JSTning iste'molchilar manfaati va ahvoli faravonligini yuksaltirishdagi roli shu bilan izohlanadiki, bunda erkin savdo tamoyillaridan kelib chiqqan xolda, xalqaro savdodagi protektsiya to'siqlari minimal darajagacha kamaytirib boriladi. Tashkilotning 50 yillik faoliyati davomida savdodagi to'siqlar butun dunyo miqyosida bir necha barobarga kamaytirildi. Buning natijasida, nafaqat import qilinayotgan tayyor mahsulotlar va xizmatlar baholarining pasayishi, balki import qilinadigan xomashyolar va butlovchi qismlar hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovarlar narxlarining ham arzonlashishi kuzatiladi.

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida, davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklovlari va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma'muriy-iqtisodiy das-taklarning me'yorida ortiqcha qo'llanilishi oxir-oqibatda kutilgan natijalarga emas, balki kishilar farovonligi darajasining pasa-yishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, to'qimachilik mahsulotlari importiga qo'yilgan savdo cheklovlari oqibatida Buyuk Britaniyada iste'molchilarning kiyim-kechaklar uchun yiliga qo'shimcha 500 mln. funt sterling miqdoridagi oshiqcha mablag'lar sarf qilganligi qayd etildi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kundalik iste'molchilar uchun taxminan 780 mln. Kanada dollariga teng bo'lgan. Yevropa Ittifoqida esa, telekommunikatsiya sohasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan. 2005-yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari

va kiyim-kechaklar savdosi bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, aynan shu xildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari yana shu bilan izohlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor xorij mahsulotlaridan tashqari, import qilinadigan xomashyolar, butlovchi qismlar va jihozlar baholarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovar va xizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahalliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tovarlar almashinuvি jarayonining faollashuvi esa innovatsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Mahalliy mahsulotlar eksporti tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarining kuzatilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning qat'iy valutadagi daromadi ortadi. Buning natijasida, xazinaga kelib tushadigan soliqlar miqdori ham o'z-o'zidan ortadi va pirovard natijada, aholi farovonligi yuksalishi kuzatiladi.

Erkin savdo tizimining iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini aniq dalillarga tayanib asoslab berish qiyin, albatta. Xususan, savdo to'siqlarini kamaytirish orqali tovarlar va xizmatlar xalqaro almashinuvini kengaytirib borish, nafaqat davlat daromadlarining, balki xususiy sektor daromadlarining ham oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Urugvay raundiga asoslangan holda – xalqaro savdo shartnomalari yangicha tizimining amaliyotga joriy etilishi natijasida jahon daromadining 109 mlrd. dollardan 510 mlrd. dollarga ko'payganligi qayd etiladi.

Chunki, har qanday mamlakatda salohiyatli eksportchilar faoliyatining samarali tashkil etilishi, davlat daromadlarini bir necha barobarga ko'tarib, ularning qayta taqsimlanishi, kuchli xorijiy raqobatga duch keladigan mahalliy kompaniyalarни qo'llab-quvvatlash, sohalar raqobatbardoshligini oshirish, yangicha ishlab

chiqarish quvvatlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarish ko'lamini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Savdoning rivojlanishi, uzoq muddatli istiqbolda, asosan, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan sohalarida bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatga kapitalning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rirlari yaratiladi. Shuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahalliy korxonalarining amalda cheklab bo'lmaydigan xorijiy raqobat bilan to'qnash kelishi natijada mavjud ish o'rinalining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Fikrimizcha, jahon mamlakatlari tomonidan protektsionizm siyosatining faol qo'llanilishi, bu muammoni yanada chigallashiradi. Chunki, savdo to'siqlarining noo'rin qo'llanilishi oqibatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahalliy mahsulotlar sifatida keskin pasayish alomatlari kuzatilishi mumkin. Importni chegaralash jarayonida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bahosining ortib borishi sotuv hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa mavjud ish o'rirlari qisqarib boradi. Ay-nan shunday holat o'tgan asrning 80-yillarida Yaponiya avtomobilari importiga qat'iy cheklovlarning o'rnatilishi sababli, AQSHda kuzatilgan edi. Bugungi kunda AQSHning eksport tarmoqlarida kamida 12 millionga yaqin ishchi band bo'lib, bunga qarama-qarshi o'laroq, Yel bozorlarining erkinlashtirilishi oqibatida, hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shimcha 300 mingga yaqin ish o'rirlari yaratildi.

Himoya chora-tadbirlarining aql-idrok bilan qo'llanilishi va qo'shimcha davlat daromadlarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish har qanday mamlakatda savdoni erkinlashtirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishning muhim omili bo'la oladi. JST tamoyillarining amalda qo'llanilishi, shuningdek, amaldagi bojxona bojlari va boshqa savdo to'siqlari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki, dahlsizlik va iqtisodiyotning ochiqligi, ustuvor savdo shartlarining belgilab olinishi va ularning soddalashtirilishi hamkorlar e'tiborini tortadi. Shuningdek, mavjud

korxonalar harajatlarining kamayishi va savdo hamda investitsiyalar uchun qulay muhitning yaratilishi, mamlakat tovar aylanmasi hajmining oshishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston ham ko‘pchilik davlatlarning savdo munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvini ta’minalash maqsadida JSTga qo‘shilishga qaror qildi. Bunday integratsiyalashuv JSTga a’zo bo‘lgan davlatlar bilan savdoni kengaytirish, eksport tushumlarini ko‘paytirish, chet el investitsiyalarini ko‘proq jalb etish, ishlab chiqarish sohalarida bandlik yuqori darajasiga erishishni ta’minalaydi.

Ma’lumki, O‘zbekiston 1994-yilning iyun oyida JSTda kuzatuvchilik maqomini qo‘lga kiritgan edi. 1994-yilning dekabrida esa O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan O‘zbekistonning JSTga teng huquqli a’zo bo‘lib kirishi to‘g‘risida ariza topshirildi. 1995-yilning yanvarida esa O‘zbekistonning JSTga qo‘shilishi bo‘yicha maxsus Ishchi guruhi tuzildi. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy delegatsiyalari JSTning Singapur (1996 y.), Jeneva (1998 y.) va Sietl (1996 y.)da bo‘lib o‘tgan vazirlar darajasidagi anjumanlarida ishtirok etdi. 1998-yilning sentyabr oyida O‘zbekiston hukumati JST kotibiyatiga respublikaning tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi Memorandumni taqdim etdi va uning rasmiy taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu yuzasidan Avstraliya, Yevropa Ittifoqi, Yangi Zelandiya va AQSH hukumatlarining savolnomalari olindi va, shunga muvofiq, JST Kotibiyatiga javoblar tayyorlandi.

2002-yilning 17 iyulida esa Shveytsariyaning Jeneva shahrida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lib kirishi bo‘yicha tashkil qilingan ishchi guruhining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Bunda O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi Memorandumning yangi tahriri ko‘rib chiqildi. Mazkur majlis natijalari bo‘yicha bir qator mamlakatlar tomonidan Memorandum bo‘yicha yozma sharh va savolnomalar taqdim etildi. O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lib kirishi bo‘yicha ishchi guruhining birinchi majlisi davomida kelib tushgan savolnomalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizga qo‘yilgan asosiy talablar a’zolikka da’vogar mamlakatlarga qo‘yilgan umumiyl talablargacha to‘liq mos keladi.

JST bilan samarali faoliyat tashkil qilish maqsadida, mam-lakatda JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tuzildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 14 dekabrdagi 520-sonli Qaroriga muvofiq uning tarkibi tasdiqlandi. Unga Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralardan vakillar kiritildilar. JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya kotibiyati vazifasini bajarish Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi zimmasiga yuklatildi. JSTga kirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida respublikaning vazirliklari va idoralarida ishchi guruhlari tashkil etilib, ularning maqsadi:

- Savdoda qo'llaniladigan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar hamda texnik to'siqlar to'g'risidagi savolnomalar ro'yhatini tayyorlash;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalarini berish to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash;
- xizmatlar savdosiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash;
- intellektual mulk huquqi savdosiga tegishli bo'lgan axborotlarni tayyorlash;
- tovarlarga tarif chegirmalarini berish va xizmat majburiyatlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish;
- JST bitimi doirasida ko'zda tutilgan tartiblarga muvofiq milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish;
- JSTga a'zo bo'lishning iqtisodiyot sohalariga bo'ladigan ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borishga qaratildi.

Shu paytga qadar O'zbekiston Respublikasi tomonidan JST kotibiyatiga quyidagi bir qator masalalarni o'z ichiga oluvchi materiallar tayyorlab topshirildi:

- AQSH, Yel, Koreya tomonidan JSTga kirish bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi yakunlari bo'yicha O'zbekiston tashqi savdo rejimi to'g'risidagi memorandumga qo'yilgan yozma savollarga javoblar;
- JST bitimiga muvofiq savdodagi texnik to'siqlar, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar bo'yicha qo'yilgan turli savollar javoblar;

- Intellektual mulk huquqi savdosi masalalariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar.

Shuningdek, hozirgi paytda 2002-yilning 24 sentyabrida O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lib kirishi bo‘yicha tashkil qilin-gan Ishchi guruhining ikkinchi majlisiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga amalga oshirilmoqda va Ishchi guruhi tomonidan O‘zbekistonning JSTga kirishi bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi qo‘srimcha ma’lumotlar tayyorlanmoq-da:

- Tovarlar mavqeい bo‘yicha tariflarni tushirib borish yuzasi-dan boshlang‘ich ma’lumotlar.
- Xizmatlar savdosi sohasidagi siyosatni oljb borish bo‘yicha ma’lumotlar.
- Xizmatlar savdosi sohasidagi maxsus majburiyatlarning boshlang‘ich ro‘yhatini tuzish.

Jjahon savdo tashkilotining ustunliklari, unda yirik savdogar davlatlarning a’zo bo‘lganligi bilan emas, balki uning erkin tovar almashinushi jarayonida mamlakatlar uchun turfa xil iqtisodiy manfaatdorliklarni ta’minalash bilan izohlanadi. Bu tizim a’zo mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga, shuningdek, fuqarolar farovonligiga ham ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi. JST savdo tizimi mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolida, shuningdek, alohida fuqarolar va umuman jahon ham-jamiyati doirasida o‘z ustunliklarini namoyon etadi.

Xususan, JSTning iste’molchilar manfaati va aholi farovonligini yuksaltirishdagi roli shu bilan izohlanadiki, bunda erkin savdo tamoyillaridan kelib chiqqan holda, xalqaro savdodagi protektsiya to’siqlari minimal darajagacha kamaytirib boriladi. Tashkilotning 50-yillik faoliyati davomida savdodagi to’siqlar butun dunyo miqyosida bir necha barobarga kamaytirildi. Buning natijasida, nafaqat import qilinadigan tayyor mahsulotlar va xizmatlar baholarining pasayishi, balki import qilinadigan xomashyolar va butlovchi qismlar hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovarlar narxlarining ham arzonlashishi kuzatildi.

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida, davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklar va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma’muriy-iqtisodiy das-

taklarning me'yorida ortiqcha qo'llanilishi. Oxir-oqibatda kutilgan ijobiy natijalarga emas, balki kishilar farovonligi darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xususan, ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, to'qimachilik mahsulotlari importiga qo'yilgan savdo cheklovlar oqibatida Buyuk Britaniyada iste'molchilarning kiyim-kechaklar uchun yiliga qo'shimcha 500 mln funt sterling miqdoridagi oshiqcha mablag'lar sarf qilganligi qayd etiladi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kanadalik iste'molchilar uchun taxminan 780 mln Kanada dollariga teng bo'lgan. Yevropa Ittifoqida esa, telekomunikatsiya sohasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan. 2005-yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar savdosи bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, aynan shu xildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari yana shu bilan izohlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor xorij mahsulotlaridan tashqari, import qilinadigan xomashyolar, butlovchi qismlar va jihozlar baholarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovar va xizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahalliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tovarlar almashinushi jarayonning faollashuvi esa innovatsiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Mahalliy mahsulotlar eksporti tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarning kuzatilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning qat'iy valutadagi daromadi ortadi. Buning natijasida, xazinaga kelib tushadigan soliqlar miqdori ham o'z-o'zidan ortadi va pirovard natijada, aholi farovonligi yuksalishi kuzatiladi.

Erkin savdo tizimining iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini aniq dalillarga tayanib asoslab berish qiyin, albatta. Xususan, savdo to'siqlarini kamay-

tirish orqali tovarlar va xizmatlar xalqaro almashinuvini kengaytirib borish nafaqat davlat daromadlarining, balki xususiy sektor daromadlarining ham oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Urugvay raundiga asoslangan holda – xalqaro savdo shartnomalari yangicha tizimining amaliyotga joriy etilishi natijasida jahon daromadining 109 mlrd dollardan 510 mlrd dollargacha ko'payganligi qayd etiladi.

Chunki, har qanday mamlakatda salohiyatli eksportchilar faoliyatining samarali tashkil etilishi, davlat daromadlarini bir necha barobarga yuksaltirib, ularning qayta taqsimlanishi, kuchli xorijiy raqobatga duch keladigan mahalliy kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash, sohalar raqobatbardoshligini oshirish, yangicha ishlab chiqarish quvvatlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarish ko'lamini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Savdoning rivojlanishi, uzoq muddatli istiqbollarda, asosan, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan sohalarida bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatga kapitalning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rinnari yaratiladi. Shuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahalliy korxonalarining amalda cheklab bo'lmaydigan xorijiy raqobat bilan to'qnash kelishi, natijada mayjud ish o'rinnarining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.<sup>12</sup>

JST tamoyillarining amalda qo'llanilishi, shuningdek, amaldagi bojxona poshlinalari va boshqa savdo to'siglari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati BJSTga a'zo bo'lib kirishni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida qarab kelmoqda va mazkur tashkilotga teng huquqli a'zo bo'lib kirish borasida dadil qadamlar tashlamoqda.<sup>13</sup> JSTga a'zo bo'lib kirish mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib

<sup>12</sup> Yusupov A. «O'zbekistonning erkin savdo tizimiga integrallashuvi», BPK, 6-sod, 2004-y.

<sup>13</sup> Хачиев Г. Узбекистан: портрет на фоне мировой экономики, Деловой партнер, 5 января 2006 г., № 1.

borayapti. Xalqaro tajribaga muvofiq, JSTga a'zo bo'lish uzoq muddatli istiqbollarda har qanday milliy iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq qisqa muddatli istiqbollarda u milliy xo'jalik taraqqiyoti uchun ayrim muammolarni ham yuzaga kelтирishi mumkin. Eksportni rag'batlantiruvchi siyosat olib boradigan mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan nafaqat uzoq muddatli istiqbollarda, balki qisqa muddatli istiqbollarda ham katta foyda ko'radi. Bunga qarama-qarshi o'laroq, import o'rnini bosuvchi siyosat olib boruvchi mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan uzoq muddatli istiqbollarda manfaat ko'rsalar-da, qisqa muddatli istiqbollarda ular iqtisodiy jihatdan ma'lum darajada zarar ko'rishlari ham mumkin. Shu sababli, xalq xo'jaligi miqyosida erishiladigan foyda va kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish va iqtisodiy jihatdan baholash JSTga a'zo bo'lishning dastlabki bosqichlarida o'ta muhim hisoblanadi.

Ayni paytda, JSTga a'zo bo'lishning milliy iqtisodiyotga, shuningdek, uning alohida tarmoqlariga bo'ladigan ta'sirini baholamasdan turib, xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi mazkur tashkilotda a'zo bo'lish uchun zarur bo'lgan qat'iy chora-tadbirlarni ishlab chiqish qiyin, albatta.

Xususan, MDH doirasidagi JSTga a'zo bo'lib kirgan ayrim mamlakatlarda xalqaro savdo rivojlanishi va kutilishi mumkin bo'lgan tezkor iqtisodiy o'sish holatlarining aniq ko'zga tashlanmayotganligi kuzatilmoxda. Shuningdek, o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun BJSTga a'zo bo'lish jarayonida ochiqlik darsasing ning ortib borishi, amalga oshirilishi zarur bo'lgan iqtisodiy islohotlarni tezlashtiradi va o'z navbatida, bozor tarkibiy o'zgarishlarining istiqboli uchun zaruriy kafolat bo'lib hisoblanadi. Boshqa bir tomondan esa, baholar o'zgarishiga barham berish va mamlakatdagi cheklangan resurslardan oqilona foydalananish, ularni samarali taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi mamlakat hukumatni va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga jahon hamjamiyati va salohiyatli investorlar ishonchini yanada oshiradi va savdoning rivojlanishi, investitsiyalar oqimining ko'payishi, shuningdek, tezkor iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Iqtisodiyo-tni imkoniyat darajasida qayta qurish, tarmoqlarning qo'shilgan

qiymatni yaratish bilan bog'liq yuksak taraqqiyot darajasini ta'minlash JSTga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirib borishning kafolati bo'lib hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv qachon tuzilgan?
2. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvning asosiy tamoyillari qanday masalalarни yechishga qaratilgan?
3. Shu davrgacha GATT/JSTning nechta raundlari o'tkazildi?
4. Bu raundlarda qanday asosiy masalalar ko'rilgan?
5. Urugvay raundining eng ahamiyatli natijasi nimadan iborat?
6. Jahon savdo tashkiloti qachon tashkil topdi?
7. O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish istagini qachon bildirdi?
8. Jahon savdo tashkilotining asosiy kelishuvlari.
9. O'zbekiston Respublikasi JSTning qaysi kelishuvlariga qo'shildi?
10. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T: «O'zbekiston», 2005-y.
2. А.П.Киреев. Международная экономика. М: Международные отношения, 1999 г.
3. Международные экономические отношения. Учебник, М: Проспект, 2004 г.
4. Международные экономические отношения. Учебник, М: Инфра-М, 2004 г.
5. Е.Ф.Авдокушин. Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
6. В.К.Ломакин. Мировая экономика. П-изд., Учебник, М., ЮНИТИ, 2004-у.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

11. И.И.Дюмулен. Всемирная торговая организация. М: Экономика, 2003 г.
2. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г
3. Н.Сиражиддинов, А.Абдураззаков. ЖСТ: создание, принципы и процедуры вступления. Ж: Экономическое обозрение №6 (46), 2003 г.
4. И.В.Малкова. Мировая экономика в вопросах и ответах, М., Проспект, 2004 г.
5. Таможенное дело. Учебник, 2004 г. [www.professiya.ru/textbook-condetailhtml](http://www.professiya.ru/textbook-condetailhtml). 13/12-6 К.
6. [www.customs.uz](http://www.customs.uz). Davlat Bojxona qo'mitasi vebssayti.
7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya bojxona Akademiyasi vebssayti.
8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz). O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vebssayti.

## XULOSA

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) sohasidagi islohotlar barqarorlikka erishishning qisqa muddatli masalałari yechimiga emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalishga ega bo'lsa, bu shashubhasiz, iqtisod samaradorligining ko'tarilishiga imkon beradi. O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni quyidagi muammolarga qaratish lozim:

Birinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ishlarni davom ettirish juda muhim. Amaldagi qator qonunlarga, xususan, valutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga **qo'shimchalar** va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, vazirliliklar va davlat idoralari tomonidan qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari mazmunlarini aniqlashtiruvchi me'yoriy hujatlarni ishlab chiqish ijobiy rol o'ynashi mumkin.

Ikkinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'nalishdagi birinchi qadamlar (eksportni rag'batlantirish bo'yicha tashkil etilgan Respublika komissiyasi faoliyati) kerakli samara bergani yo'q. Ma'muriy-boshqaruvi apparati xodimlari sonini mexanik tarzda ko'paytirmasdan, amaldagi tashkiliy bo'g'inlar, muhim bo'linmalarning birlashishi, funksional qayta bo'ysunishi va shu kabilar orqali ularning vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan holda, respublika TIF boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish lozim. Bu o'rinda maslahatchi organlar faoliyatları xalqaro tajribasiga e'tiborni qaratish ahamiyatga molikdir.

Uchinchidan, respublika budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan (imkon kadar tadbirkorlar tizimi resurslarini jalb kilgan holda) va maxsus vakolatli tashkilotlar tomonidan boshqariladigan (Yaponiyaning DJYeTRO tashkiloti kabi) tashqi savdo faoliyatining axborot bilan ta'minlanishi uchun umumdaylat tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI

asrda mamlakat taraqqiyoti uchun xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bunday tizim amalda samarali qo'llanilishining muhim sharti, axborot-maslahat xizmati idoralarining keng tarmog'ini tashkil etishdir. Agarda O'zbekiston O'rta Osiyo mintaqasida axborot-moliyaviy markaz sifatida o'z o'rnini mustahkamlay olsa, unda mamlakat salmoqli foydani qo'lga kiritadi. Shuning uchun mamlakatda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish va axborot biznes sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarni transmilliylashtirishni qo'llab-quvvatlash zarur. Ushbu tizim reklama-ko'rgazma ishlarini tashkil qiluvchi, axborot-maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi, marketing ma'lumotlarini yiguvchi, tahlil qiluvchi turli tarmoqlarga bo'lingan bo'lishi kerak. Tashqi iqtisodiy aloqalar muammolari bo'yicha keng ilmiy izlanishlarni tashkillashtirish va amalga oshirish ham TIF samaradorligini ko'tarishga yordam beradi;

Nihoyat, to'rtinchidan, TIFning rivojlanishiga milliy operatorlarning manfaatlarini turli xildagi xavflardan himoya qiluvchi savdo va investitsiyalarni davlat tomonidan sug'urta qilishning diversifikatsion tizimi bevosita turtki bo'lishi mumkin. U o'zida savdoni umumiyligi sug'ortalash, valuta xavflarini sug'ortalash, import uchun avans to'lovlar, xorijiy investitsiyalar va hokazolarni sug'ortalashni mujassamlashtirishi mumkin.

Tanlangan ishlab chiqarish sohalarida iqtisodni modernizatsiyalashtirish va eksportga yo'naltirish kontsepsiyalariga ko'ra, davlat yangi texnologiyalarni qo'llash yoki yangi bozorlarni egalashda katta moliyaviy harajatlar talab etadigan yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish va bu sohada izlanishlar o'tkazishni qo'llab-quvvatlashi zarur.

## IZOHЛИ LUG'AT

**1. Avtarkiya (autarky)** – mamlakatning jahon bozoridagi ix-tiyoriy yoki majburiy tarzda maxdudlanish siyosati, davlatning xo'jalik jihatidan alohida yashashi. Olib kiriladigan tovarlarga yuqori cheklash bojlarining belgilanishi, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi shart-sharoitlarni yaratish avtarkiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.

**2. Advalor tarif (ad valorem tariff)** – import qilinadigan tovarlar qiymatiga foizlarda belgilanadigan boj.

**3. Akkreditiv** – hujjat, bir moliya-kredit muassasining boshqa shunday muassasaga tovar yoki xizmat uchun haq to'lashni yo-xud taqdim etuvchiga muayyan summani to'lashni topshirishi. Pul va tovar akkreditivlari mavjud.

**4. Aktiv sadvo balansi (favorale balance)** – mamlakat eksportining importidan oshib ketishi.

**5. Aksiz** – tovar yoki xizmat narxiga kiritiladigan bilvosita soliq turi.

**6. Aksiya** – aksiyadorlik jamiyatiga sarmoya quyilganligidan guvohlik beruvchi va foydaning bir qismini dividend ko'rinishida olish huquqini kafolatlaydigan qimmatli qog'oz.

**7. Auksion (kimoshdi)** – ochiq savdo, bunda sotilayotgan mol-mulkka egalik huquqi savdo paytida eng yuqori narxni taklif etgan xaridorga o'tadi.

**8. Balans** – o'zaro bog'liq bo'lган biror bir hodisa yoki jarayonni uning ayrim tomonlarini taqqoslash yo'li bilan tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimi; daromadlar bilan chiqimlar o'rtasidagi ayirma.

**9. Bilvosita soliqlar** – muayyan tovar va xizmatlarga doir soliqlar, tovar narxiga ustama qo'yish orqali undiriladi.

**10. Boj** – soliq turlaridan biri, chegara orqali kelib tushadigan (olib kelinadigan, olib chiqiladigan) tovarlardan undiriladi.

**11. Boj tarifi** – tovarlar guruhlari bo'yicha bir tizimga solingan bojlar ro'yxati.

**12. Bojxona boji** – chegara orqali o'tkaziladigan tovarlarga doir soliq. Olib kirish va olib chiqish uchun bojxona bojlari mavjud.

**13. Bezorning davlat tomonidan tartibga solinishi** – davlatning bozor mexanizmlari faoliyatiga aralashuvi, iqtisodiyotga ma'muriy (qonun hujjatlari va hokimiyat ijroiya organlarining ularga asoslangan harakatlari), iqtisodiy (valuta-moliya, pul-kredit, budjet-soliq va hokazo) usul va vositalar orqali ta'sir ko'rsatish.

**14. Valyuta nazorati (exchange control)** – milliy valutani olib chiqishni cheklashga yo'naltirilgan va to'lov balansining yemonlashuviga qarshi qo'llaniladigan hukumat siyosati. Odatta mahalliy valutaning kursi oshganda qo'llaniladi.

**15. Valyutaning konvertatsiyalanuvchanligi (convertibility of currency)** – mazkur mamlakat valutasining boshqa mamlakatlardan valutasiga erkin ayriboshlash va barcha operatsiyalarda cheklashlarsiz qatnashish qobiliyati. To'liq va cheklangan konvertatsiya-lanuvchanlik mavjud.

**16. Davlatning tashqi qarzi** – davlatning xorijiy fuqarolar, korxonalar va boshqa mamlakatlardan qarzi.

**17. Demping (dumping)** – tovarning tashqi bozorda tannarxi yoki ichki bahosidan past narxlarda sotilishi. Dempingning doimiy, sporadik va shafqkatsiz turlari mavjud.

**18. Dempingga qarshi boj (antidumping dutu)** – tovar dempingidan ko'rilgan talafotlarni qoplash maqsadida import qiluvchi mamlakatda joriy etiladigan vaqtincha yigim, u ichki va dunyo bozorlaridagi narxlar o'rtasidagi farq hajmida bo'ladi.

**19. Diversifikatsiya** – bevosita bir-biri bilan bog'lanmagan ko'plab ishlab chiqarishlarning bir vaqtdagi rivojlanishi; firma ishlab chiqarishining diversifikatsiyasi – firma tarkibida bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lmasan bir nechta ishlab chiqarishlarning rivojlanishi yoki unga kiritilishi.

**20. Yevropa valuta tizimi** – Yevropadagi bir qator mamlakatlarning valuta tizimi, uning vositasida o'z valutalari kursini bir-biriga nisbatan ushlab turadi.

**21. Yevropa Ittifozi** – alohida turdag'i xalqaro institut Yevropadagi 15 davlatning xalqaro iqtisodiy tashkiloti va siyosiy federatsiyasi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Iqtisodiy jihatdan olganda ularni iqtisodiy rivojlantirishga, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishga, yagona valutali va sarmoyalar, tovarlar va ishchi kuchi to'liq erkin harakatlanadigan a'zo mamlakatlarning yagona bozoriga asta-sekin o'tishiga yordam berishga da'vat etilgan.

**22. Yopiq iqtisodiyot (closed economy)** – xorijiy mamlakatlар bilan aloqasi bo'lmasan iqtisodiyot.

**23. Yosh tarmoqlarning himoyasi (infant industry argument)** – protektsionizm siyosati tarafdarlarining dalil-isbotlaridan biri, unga muvofiq yangi tarmoqlar jahon bozorida chinakam raqobatbardoshlikka erishgunga qadar tarif yordamida himoya qilinishinga muhtoj bo'ladi.

**24. Jahon bozori (World market)** – ishlab chiqarish omillarining xalqaro mehnat taqsimoti bazasida mavjud bo'lgan, mamlakatlar o'rtaqidagi barqaror tovar-pul munosabatlari sohasi.

**25. Jahon savdo tashkiloti (JST)** – unga kiruvchi davlatlar (1996-yilda – 123 mamlakat) o'rtaSIDA ko'p tomonlama bitim, qatnashchisi bo'lgan davlatlar o'rtaqidagi savdo munosabatlari me'yor va qoidalarini belgilaydi.

**26. Jismoniy shaxs** – huquqqa layoqatli shaxs sifatidagi kishi, xo'jalik faoliyati subyekti sifatida mustaqil faoliyat yuritadi.

**27. Joriy operatsiyalar hisobvaragi** — mamlakat to'lov balansining bo'limi, unda tovarlar va xizmatlar eksporti va importining hajmlari, investitsiyalardan olingan daromadlar va transfert to'lovlari hajmi qayd etiladi.

**28. Import (import)** — tovarlar va xizmatlarni chet elda sotib olish.

**29. Investitsiyalar (investment)** — milliy daromadning mamlakatda investitsiya tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan qismi.

**30. Iste'molchi oladigan ortiqcha foyda (consumer surplus)** — iste'molchi oladigan va u tovarlarni talab narxi bo'yicha emas, balki muvozanatli narx bo'yicha xarid qilishi tufayli yuzaga keladigan foyda.

**31. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi (production possibility frontier)** — barcha ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalananish va eng yaxshi texnologiyalarni qo'llash chog'ida turli mamlakatlarning ishlab chiqarish holatini aks ettiradigan egri chiziq.

**32. Ishlab chiqarish omillari (factor of production)** — tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslar yoki harajatlar.

**33. Ishchi kuchining migratsiyasi (labor force migration)** — iqtisodiy, siyosiy, diniy va boshqa sabablar tufayli mehnatga layoqatli aholining bir mamlakatdan boshqasiga o'tishi.

**34. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IXTT)** — mamlakatlarni unga muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan xalqaro tashkilot, ular o'rtaqidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ko'mak beradi.

**35. Kvota** — import(eksport)ning muayyan muddatga belgilanadigan miqdoriy cheklanishi.

**36. Kombinatsiyalangan (aralash) tarif** — advalor va xos tariflarni birlashtirish yo'li bilan belgilanadigan boj.

**37. Kredit** – iqtisodiyotdagi sheriklar o‘rtasidagi ssuda shaklini oladigan bitim, bunda bir sherik ikkinchisiga muddatlilik, qaytarishlilik va odatda, to‘lash shartlarida pul yoki mol-mulk taqdim etadi.

**38. Litsenziya** – muayyan iqtisodiy faoliyatni yuritish uchun davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma.

**39. Narxga doir kamsitish** – bir jinsdagi (bir xil) mahsulotga turli narxlarni belgilash amaliyoti, u tovarlar sifati yoki chiqimlar darajasiga bog‘liq bo‘lmaydi.

**40. Notarif savdo cheklovları** – tariflarni istisno etganda tovar va xizmatlarning xalqaro oqimlari harakati yo‘lidagi ko‘pdan-ko‘p cheklovlar (kvotalar, subsidiyalar, eksportni ixтиориј cheklash, demping, ekologik, sanitariya va boshqa me’yorlar).

**41. Notarif to‘sıqlar** – chet el tovarlarini olib kelishga qarshi yo‘naltirilgan ma’muriy chora-tadbirlar.

**42. «Nou-xau»** – texnik tajriba, ishlab chiqarish sirlari, axborot va hokazolarni taqdim etish. «Nou-xau» predmeti, garchi patent himoyasi bilan ta’minlanmagan bo‘lsa-da, ishlab chiqarishda foydalanilgan taqdirda ma’lum afzalliklar yaratadi.

**43. OPEK** – neft qazib oluvchi davlatlar tomonidan neft qazib olish va eksport qilish, unga narx belgilash bobida yagona siyosat yuritish maqsadida barpo etilgan tashkilot.

**44. Portfel investitsiyalari** – mahalliy valutada to‘lanadigan, xorijda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni xarid qilishga doir moliyaviy operatsiya. Portfel investitsiyalari xatar darajasini sarmoyali diversifikatsiyalash hisobiga pasaytiradi, lekin investorga harid qilingan mulk ustidan amaldagi nazoratni bermaydi.

**45. Proteksionizm** – ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida tovar va xizmatlar xalqaro oqimlari yo‘liga davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlardan tizimi.

**46. Resurslarni taqsimlash samaradorligi** – resurslarni shunday taqsimlash usuliki, bunda resurslarning mazkur hajmi va resurs tejovchi texnika hamda texnologiyalarni qo‘llash bilan iloji boricha mumkin bo‘lgan mahsulot hajmini ishlab chiqarish ta’minlanadi.

**47. Reeksport** – tovarni uni ishlab chiqargan mamlakatdan o‘z iste’moli uchun emas, balki sotish uchun uchinchi mamlakatlarga olib chiqish; ilgari mamlakatga olib kelingan tovarni olib chiqish.

**48. Rivojlanayotgan mamlakatlar tasnifi** – BMT, IXTT va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan tasniflar.

**49. Savdo balansi (trade balance)** – muayyan muddat, odatda bir yil uchun mamlakat eksporti va importining nisbati.

**50. Savdo siyosati (commercial policy)** – importni cheklash maqsadida tovar oqimlarini o‘zgartirishni nazarda tutadigan hukumat siyosati.

**51. Tarif (tariff)** – hukumat tomonidan belgilanadigan, xorijiy tovarlarning importi, eksporti yoki tranzitiga doir soliq.

**52. Tashqi savdo** – davlatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi, tovarlarni olib kirish va olib chiqishni o‘z ichiga oladi.

**53. Tashqi savdo balansi** – muayyan muddat uchun mamlakat eksporti va importi qiymatlari o‘rtasidagi nisbat.

**54. Tasdiqlovchi tarif (prohilitiva tariff)** – tarif stavkasining yuqori darajasi, u tovarlar importini iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo‘yadi.

**55. Fiskal siyosat** – iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish maqsadida soliq solish va davlat harajatlari tarkibini tartibga solish bobidagi siyosat.

**56. Fors-major** – oldindan kutilmagan hodisa; bitimda ishtirok etadigan taraflarning harakatlariga bog'liq bo'lmasligi, lekin shartnoma majburiyatlarining buzilishiga olib keladigan hodisa, masalan, tabiiy ofat, harbiy harakatlar va hokazo hollar.

**57. Fritradorlik** – davlatning savdo erkinligiga va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashmasligi qoidasiga asoslangan iqtisodiy nazariya va xo'jalik siyosatidagi yo'nalish.

**58. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) (International Monetary Fund – IMF)** – 1944-yili asos solingan xalqaro iqtisodiy tashkilot. Xalqaro valuta-moliya munosabatlarini tartibga soluvchi, xalqaro savdo va valuta hamkorligiga ko'mak beruvchi asosiy organ.

**59. Xalqaro mehnat taqsimoti** – alohida olingan mamlakatlardan o'rtaida ishlab chiqarishni muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish.

**60. Xarid qobiliyatining pariteti (purchasing power parity)** – inflyatsiya bilan turli mamlakatlar valutalarini ayirboshlash kurslari o'rtaсидаги узоқ мuddatli aloqani aks ettiradi. U mutlaq shaklda valutalarning ayirboshlash kursi ularning iste'mol savati qiymatida ifodalangan narxlar darajasi nisbatiga teng deb uqtiriladi. Xarid qobiliyati paritetining nisbiy shakli valuta kurslari ning foiz o'zgarishlari inflyatsiya milliy sur'atlari ayirmasiga tengligini ko'rsatadi.

**61. Shartnoma** – taraflarning huquq va majburiyatları, bitimni amalga oshirish shartlari, muddati va hokazolarni belgilaydigan asosiy xo'jalik, tijorat hujjati. Oldi-sotdi, kredit, sug'urta, pudrat, marketing ishlarini o'tkazishga oid va hokazo shartnomalar ayniqsa keng tarqalgan.

**62. Eksport subsidiyasi (export subsidy)** – savdoni notarif cheklash shakllaridan biri, bunda hukumat uz eksportini rag'batlantirish va importni yaxshilashga kamsitish maqsadida mamlakatning ishlab chiqaruvchilarini ochiqdan-ochiq yoki yashirin ko'rinishda subsidiyalaydi.

**63. Eksportni «ixtieriy cheklash»** – notarif savdo cheklovlar shakllaridan biri, bunda mamlakatlardan biri boshqa mamlakat eksportini «ixtiyoriy ravishda» cheklashga undaydi.

**64. Erkin savdo siyosati** – xalqaro savdoga asosan talab va taklifning erkin kuchlari ta'sirida rivojlanish imkonini beradigan siyosat.

**65. YuNKTAD** – BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha anjumani – BMT Bosh assambleyasi organi, uning ishi xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berishga, xalqaro iqtisodiy alo-qalarni tartibga solish qonun-qoidalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

# **YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR USLUBI VA AXBOROTLAR ALMASHUVI**

## **5-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING DAVLAT BOSHQARUVI VOSITALARI**

**(Namuna)**

Yangi ta’lim tizimiga o’tilayotgan hozirgi davrda har bir fanni o’qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

Chunki, bu holda talabalar tomonidan fanni egallash darajasini oshadi, ularda o’rganilayotgan fan bo'yicha ilmiy izlanishlar ko’nikmalari hosil bo’ladi. Bundan tashqari, ularda shu soha masalalarining optimal yechimlarini topish, real hayotiy masalalarni yechishda katta imkoniyatlarni hosil qiladi.

Ushbu mavzu 8 soatli ma’ruza, 6 soatli seminar darsga rejalashtirilgan.

### **Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:** ta’labalar bilan salomlashib, auditorianing umumiyl holati, talabalarning darsga tayyorgarligini nazorat qilish, yo’qlama qilish. Bu jarayon belgilangan soatga mo’ljallangan har bir ma’ruza darsining boshlanishida amalga oshiriladi.

**Asosiy qism:** Bu mavzu bo'yicha birinchi ma’ruza darsi mavzuning asosiy maqsadi, bu maqsadga erishish uchun talab etiladigan vostalar, ularning o’zaro bog’liqligi, ketma-ketligi to‘g’risida ma'lumotlar berilgandan so‘ng erishilajak natijalar to‘g’risidagi fikrlardan boshlanadi.

Shulardan so‘ng o’rganilayotgan mavzudagi masalalar bo'yicha talabalardagi bilimlar o’zaro savol-javob tariqasida o’rganiladi. Shundan so‘ng talabalarning javoblari umumlashtirilib, mavzuni o’rganish rejasi talabalarga taqdim etiladi.

### **Reja:**

**1. Xalqaro savdo va uni davlat tomonidan boshqarishning zarurtligi.**

**2. Xalqaro savdoning davlat tomonidan boshqarilishini o‘ziga xos xususiyatlari.**

**3. Davlat boshqaruvi vositalarini tasniflanishi va ulardan foydalanishning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy natijalari.**

**4. Xalqaro savdoni tartibga solishda qo'llaniladigan tarif (iqtisodiy) usullari.**

**5. Xalqaro savdoni davlat tomonidan boshqarish tizimida notarif usullari.**

**6. Xalqaro savdoni tartibga solishda tarif va notarif usullari dan foydalanishning ijobjiy va salbiy tomonlari (Xalqaro savdoni tashkil etish va boshqarishdagi rivojlangan davlatlar tajribasidan misollar keltirgan holda).**

**7. Xalqaro savdoni tartibga solish usullaridan foydalanishda xalqaro savdo tashkilotining asosiy tamoyillari va talablariga ri- oya etilishi lozimligi.**

**8. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Mavzular interfaol usulda o'tkaziladi.

**a) Interfaol degani** – bu o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish talabada mustaqil fikr lash ko'nikmasi, fikr-mulohaza, bahs orqali shakllantiriladi. Talaba qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi. Bu esa talabalarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi axborotni o'zlashtirishda tanqidiy-tahliliy yondosha oladi.

**b) Mavzu yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar talabarga beriladi:**

1. Mavzuning qisqacha tezisi.

2. Mavzuga doir chizmalar.

3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishning me'yoriy hujjatlari.

**d) Aqliy hujum** – muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladigan samarali usuldir. Bu usul talabalarni o'z tasavvurlari, mustaqil fikr yuritishlari, izlanishlari va ijodlaridan samarali foydalanishga undaydi.

**Iboralar:** Tashqi iqtisodiy faoliyat. Davlatning protektsionistik siyosati. Fredizm. Boj tarifi. Bojxona bojlari. Kvotalash. Litsenziyalash. Eksportni ihtiyyoriy chegaralash. Subsidiya. Kredit. Demping. Texnik to'siqlar. Sertifikatlash.

## **2. Seminar mashg'ulotda pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi**

Seminar mashg'uloti o'qituvchining ihtiyyorida zamonaviy texnika vositalari (prezentatsiya uchun multimedya, videoproektor, videomagnitofon va tegishli mavzu bo'yicha materiallar, masofadan turib ta'sviriy aloqa qilish vositalari va h.k.) mavjud bo'lishiga qarab turli darajada tashkil etilishi mumkin.

Seminar mashg'ulotlari an'anaviy tarzdan iborat bo'lib qolmasligi kerak.

1. Tanqid – himoya usuli. Bunda mavzudagi qarama-qarshi fikrlar mavjud holatlarda talabalar o'qituvchining ko'rsatmasi va bevosita nazorati ostida guruhlarga bo'linadi. "Taqnidchilar" bu fikrning asossiz va noto'g'ri tomonlarini keskin qoralasalar, "Himoyachilar" aksincha uni oqlashga harakat qiladi. Shu asosda muammoning to'g'ri yechimiga kelinadi.

2. "Yozma yumaloq stol" usulida darslarni tashkil etish birgalikda o'rganish usuliga asoslanadi. Bunda qog'oz va qalam doimiy ravishda 3 ta katta bo'limgan guruh atrofida surilib boriladi.

Masalan: ishtirokchilardan birontasi qandaydir fikrni yozib uni chap tomondagi guruhdoshiga uzatadi. U shu yozilgan fikrga yana yangi qo'shimchalar kiritib, qog'ozni keyingi guruhdoshiga uzatadi. Guruhdoshlar o'zlarining fikrlarini bayon qilish jarayonida turli rangdagi qalamlardan foydalanishlari lozim. Bu esa umumiyl fikrni shakllantirishda har bir guruhdoshni shu fikrga qo'shgan hissasini ko'rsatib beradi. Hamda o'qituvchiga har bir ishtirokchining shu fikrni shakllantirishdagi qo'shgan hissasini aniqlab beradi. Yozma yumaq stolda "Har bir ishtirokchi yozadi, shundan so'ng qog'ozni qo'shnisiga uzatadi".

3. Og'zaki yumaq stolda "Har bir ishtirokchi o'z fikrini bayon qiladi, keyin so'z navbatini guruhdoshiga beradi".

Uch bosqichli muloqot usulida ishtirokchilar bir-birlaridan yuqoridaq mavzuda intervyu oladi. Masalan: agar guruh uch kishidan iborat bo'lsa, A ishtirokchi B ishtirokchidan intervyu oladi, V ishtirokchi esa javobning tayanch fikrlarini yozib boraadi. Har bir intervyudan so'ng ishtirokchilarning roli almashtiri-

ladi, ya’ni har bir ishtirokchi intervyu olish rolini bajarishi kerak bo’ladi. Agar guruh 4 kishidan iborat bo’lsa, A ishtirokchisi B ishtirokchidan, V ishtirokchi esa G ishtirokchidan intervyu oladi. Keyin ular rollarini almashtiradi. Shundan so‘ng ularning har biri navbatma-navbat to’rtlikka ishtirokchilardan eshitgalarini ifodalab berishlari kerak. Hamma ishtirokchilar bir-birlari bilan fikr almashadilar.

Yuqorida bayon etilgan usullardan foydalanib, darslarni tashkil etish orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlan-tirishga va yo‘l qo‘yilgan har qanday muammoga ko‘plab yechim-larni topishga imkon beradi. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida eng avvalo amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masala talaba tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agar talaba oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga kelmagan bo’lsa, u biron bir narsa to‘g‘risida fikr yurita olmaydi. Chunki uning qarshisida hech qanday muammo paydo bo‘lmagan. Talaba hal qilishi shart bo‘lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to‘la ma’lumotga ega bo’lsa, uni oqilona yechish yo‘llari va vositalarini shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun muammoning yechimini ijobjiy hal qiluvchi shaxslar qo‘yilgan masala mazmunini avvalo tushunib olishlari, uning shartlarini tekshirib chiqishlari, muammoni yechishdagi ma’lum va noma’lum manbalarni aniqlashi shart. Shundagina ular sira shoshib qolmaydilar va hech ikki-lanmasdan topshiriq shartlarini o‘ylab topadilar.

**Xulosa** o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan pedagogik texnologiyalarning samarali qo‘llanilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘ziga, uning pedagogik mahoratiga, muammoga ijodiy yondashuviga, izlanuvchanlik va topqirlik kabi xislatlariga bog‘liq. Bu mavzu bo‘yicha darsni tashkil etishda noan’anaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash nisbatini har bir xususiy holatdan kelib chiqqan holda o‘qituvchining o‘zi belgilaydi.

Dars jihozlari: Prezident Farmonlari va qarorlari, qonun bukletlari, hujjatlardan namunalar, nizoli vaziyatlar.

Darsda qo‘llaniladigan vositalar: kompyuter, videoproektor.

Dars o‘tishda qo‘llaniladigan uslublar: og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, suhbat, intervyu.

Dars o'tish texnologiyasi: intervju, aqliy hujum, tanqid-himoya, yozma va og'zaki yumaloq stol.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xalqaro savdo va uning asosiy vazifalari.
2. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishning qanday shakllari sizga ma'lum?
3. Erkin savdo siyosati bilan proteksionizm o'rtasidagi farq.
4. O'zbekiston Respublikasi savdo siyosatining hozirgi holati qanday?
5. Savdo siyosatining asosiy vositalarini sanab o'ting.
6. Iste'mol ortiqchaligi nima?
7. Ishlab chiqarish ortiqchaligi qachon yuz beradi?
8. Erkin savdo siyosatining proteksionizmdan afzalligi nimada?

### Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Bizning asosiy maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" — T.: O'zbekiston, 2005 — 92 b.
2. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: O'zbekiston, 2005-y.
3. Свинухов, В.Г. Таможенное дело: учебник / В.Г.Свинухов. — М.: Экономист, 2005.-298 с.
4. Свинухов.В.Г. Таможенное тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. Издательство таможенная стоимость: Учебник/Свинухов В.Г.- М.: Экономист, 2005. — 271 с.
5. Свинухов В.Г. «Таможенно-тарифное регулирование ВЭД» М.:, Экономист 2004 г.
6. Миляков Н.В. «Таможенная пошлина» М:, Финансы и статистика 2004 г.
7. Дюмулен И.И. «ВТО» М:, Экономика 2003 г.
8. Авдокушин Н.А. «Международные экономические отношения»,- М., Экономика, 2003.
9. Xamidov I.A., Alimov A.M. «O'zbekiston Respublikasida Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari» T:, O'zbekiston 2002-y.

10. Назаренко В.Н., Назаренко К.С. «Таможенное обслуживание ВЭД». М.: Экзамен 2001г.
11. «Основы таможенного дела». - Т., “Мир экономики и права” под ред.У.Т.Камилова, 1998.
12. “Основы таможенного дела”.- М., под ред. В.Г.Драганова, 1998.
13. Основы таможенного дела». - Т., “Мир экономики и права” под ред.У.Т.Камилова, 1998.
14. Киреев А. П. «Международная экономика», - М. Международные отношения, Ч.1 1997.
15. Ноздрачев А.Ф. Административная организация таможенного дела: Учебно – практическое пособие. – М.: МЦФЭР, 2005. – 480 с. – (Приложение к журналу «Налоговые споры», 5-2005).
16. Дзюбенко П.В. Таможенно - тарифная политика в научном наследии Д.И.Менделеева: уроки для России: Учебное пособие. – М.: РИО РТА, 2003. – 304с.
17. Чекмарева Г.И. Основы таможенного дела: Краткий курс. – Москва: ИКЦ «МарТ», Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2003. – 192с.18. Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:  
<http://www.wto.org>; <http://www.agris.ru>; <http://www.imf.org>.  
<http://www.ec.org>. <http://www.sustoms.uz>, <http://www.sustoms.ru>,  
<http://www.un.org>.

**«TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA DAVLAT  
BOSHQARUVI» FANIDAN  
TEST SAVOLLARI**

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) tartibga solish usullarining qanday guruhlarini bilasiz?**

- a) miqdoriy;
- b) tarif, notarif;
- c) notarif, moliyaviy;
- d) moliyaviy.

**Kvotalash nima?**

- a) miqdoriy chegaralash;
- b) importni chegaralash;
- c) eksportni chegaralash;
- d) eksport va importni miqdoriy tomonidan chegaralash.

**Boj nima?**

- a) to'lov turi;
- b) bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lovlar;
- c) O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotgan bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lovlar;
- d) bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'im.

**O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kim tomonidan belgilanadi?**

- a) Prezident tomonidan;
- b) Oliy Majlis tomonidan;
- c) Davlat Bojxona Qo'mitasi tomonidan;
- d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

**Undirilish tartibiga ko'ra bojlar qanday turlarga bo'linadi?**

- a) advalor, xos, aralash;
- b) dempingga qarshi, mavsumiy;
- c) o'zgarmas, o'zgaruvchan;
- d) preferentsial, xos.

**Import bojining asosiy funktsiyalari:**

- a) protektsionistik, fiskal, muvofiqlashtiruvchi;
- b) protektsionistik, himoya;
- d) fiskal, qo'llab-quvvatlovchi;
- e) budjetni to'ldirish, himoya.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat nima?**

- a) davlatlararo iqtisodiy munosabatlar;
- b) jismoniy va yuridik shaxslar o'rtaсидagi iqtisodiy munosabatlar;
- d) davlatlarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi;
- e) bir mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining boshqa mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalari.

**TIFni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullari:**

- a) miqdoriy chegaralash, moliyaviy;
- b) tarif, notarif;
- d) moliyaviy, miqdoriy chegaralash, ko'zga tashlanmas iqtisodiy;
- e) bilvosita, bevosita, ma'muriy.

**TIFni davlat tomonidan tartibga solishning tarif usullari:**

- a) boj tarifi, bojlar;
- b) import bojlari, eksport bojlari;
- d) boj tarifi, tarif kvotasi;
- e) dempingga qarshi boj, kompensatsion boj.

**Miqdoriy chegaralash usullari qanday turlarga bo'linadi?**

- a) kvotalash, subsidiyalash;
- b) kvotalash, demping, kreditlash;
- d) kvotalash, litsenziyalash, eksportni «ixtiyoriy chegaralash»;
- e) subsidiyalash, litsenziyalash, kreditlash.

**Moliyaviy usullarning qanday turlarini bilasiz?**

- a) kvotalash, kreditlash, demping;
- b) kreditlash, subsidiyalash, demping;

- d) boj tarifi, subsidiyalash, demping;
- e) eksportni chegaralash, kreditlash, subsidiya.

### **Litsenziya nima?**

- a) ba'zi xo'jalik faoliyatini amalga oshirish;
- b) eksport resurslaridan unumli foydalanish;
- c) davlatning vakolatli organlari tomonidan ba'zi xo'jalik faoliyati va tashqi savdo operatsiyalarini bajarish uchun davlat organlari tomonidan beriladigan ruxsatnoma;
- d) tashqi savdo faoliyati va eksport resurslaridan unumli foydalanish.

### **Davlat tomonidan import tovarlariga nisbatan import bojining belgilanishi qanday iqtisodiy samaralarga olib keladi?**

- a) muvofiqlashtirish, taqsimlash;
- b) daromad, qiyoslash;
- c) qayta taqsimlash, yo'qotish;
- d) himoya, iste'mol.

### **Tarif eskalatsiyasi nima?**

- a) bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarga import bojini belgilash;
- b) boj qiymatining tovar turiga qarab o'zgarishi;
- c) boj stavkalarini aniqlash protsedurasi;
- d) tovarni ishlov berilganlik darajasiga qarab boj qiymatini oshirish.

### **Tarif kvotasi nima?**

- a) o'zgaruvchi bojxona bojlari;
- b) odatdag'i stavkadan ortiq boj stavkasi;
- c) import tovarini hajmining o'zgarishiga qarab stavkasi o'zgaradigan bojxona bojining bir turi;
- d) yuqori stavkali bojxona boji.

### **Iste'mol samarasi nima?**

- a) iste'molning kamayishi;
- b) tarif preferentsiyasi;

- d) ichki bozordagi tovar narxi;
- e) tovarning ichki bozordagi narxi oshishi natijasida iste'molning kamayishi.

**Taqsimlash samarasi nima?**

- a) daromadning taqsimlanishi;
- b) daromadning iste'molchilardan import bilan raqobatlasha oladigan tovar ishlab chiqaruvchilarga taqsimlanishi;
- c) import bilan raqobatlashuvchi tovar narxini oshishi;
- e) qo'shimcha daromad.

**Daromad samarasini deganda nima tushuniladi?**

- a) daromad miqdorining oshishi;
- b) import tarifini kiritilishi natijasida budjet daromadlarining oshishi;
- c) tarif kiritilishi natijasida importning kamayishi;
- e) iste'molchilar uchun yo'qotish.

**Himoya samarasining iqtisodiy mohiyati?**

- a) iqtisodiy yo'qotish;
- b) ichki ishlab chiqarish miqdori;
- c) qo'shimcha tovar ishlab chiqarish;
- e) ko'p harajatlar bilan qo'shimcha miqdordagi tovarlar ishlab chiqarish.

**Import tarifi kiritilishi natijasida katta davlat savdo sharoitining yaxshilanishi deganda nima tushuniladi?**

- a) katta davlat daromadlarining oshishi;
- b) ichki bozordagi narxning tushishi;
- d) jahon bozoridagi tovar narxining tushishi natijasida davlat daromadini oshishi;
- e) mahalliy ishlab chiqaruvchilar daromadlarining oshishi.

**Kvotalashning qanday turlarini bilasiz?**

- a) import, kompensatsiya, mavsumiy;
- b) eksport, import, global, individual;

- d) mavsumiy, chegaraviy, optimal;
- e) ratsional, obyektiv, preferentsial, advalor.

**Litsenziya turlari?**

- a) bir marotabalik, lokal, global;
- b) bosh, avtomatik, global, bir marotaba beriladigan;
- c) mavsumiy, xos, aralash;
- d) avtomatik, optimal, advalor.

**Bosh litsenziya bilan global litsenziya bir-biridan nima bilan farq qildi?**

- a) tovar soni bilan;
- b) tovarlarni olib kirish va chiqish vaqtini bilan;
- c) tovar turi bilan;
- d) tovar miqdori bilan.

**Bosh litsenziya bo'yicha tovarni olib kirish va chiqish vaqtini qanchaga teng?**

- a) bir oyga;
- b) ikki yilga;
- c) bir yilga;
- d) yarim yilga.

**Global litsenziya bo'yicha olib kirilayotgan va chiqilayotgan tovar nimasi bilan chegaralangan?**

- a) vaqtin, soni;
- b) miqdori, qiymati;
- c) assortimenti, miqdori;
- d) qiymati, vaqtin.

**Savdo siyosatining ko'zga tashlanmas usullari nimalardan iborat?**

- a) texnik to'siqlar, ichki soliqlar;
- b) davlat hududi bo'yicha siyosat mahalliy komponentlarning birligi;
- c) texnik to'siqlar, soni;
- d) miqdori, mahalliy komponentlarning borligi.

### **Subsidiya nima?**

- a) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga va importni diskriminatsiya qilishga qaratilgan to'lovlari;
- b) mablag';
- c) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;
- d) importni cheklash.

### **To'lanish xarakteriga ko'ra subsidiyalar qanday turlarga bo'linadi?**

- a) to'g'ri, bevosita;
- b) to'g'ri, bilvosita;
- c) ichki, tashqi;
- d) to'g'ri, tashqari.

### **Eksport subsidiyasi nima?**

- a) moliyaviy notarif usul;
- b) milliy eksportchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan moliyaviy notarif usuli;
- c) importga nisbatan to'siq;
- d) bahoni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbir.

### **Import tovarlarining ichki bozordagi narxining o'zgarishi bo'yicha import tarifi bilan eksport subsidiyasi o'rtaidagi farq nimada?**

- a) import tarifi tovarning ichki bozordagi narxini pasaytiradi;
- b) oshiradi;
- c) eksport subsidiyasi eksport tovarlarining ichki bozordagi narxini oshiradi;
- d) kamaytiradi.

### **Eksport kreditlarining turlari:**

- a) qisqa muddatli, uzoq muddatli;
- b) qisqa, o'rta, uzoq muddatli;
- c) o'rta muddatli;
- d) muddatsiz.

**Demping TIFni tartibga solishning qanday usullariga kiradi?**

- a) miqdoriy;
- b) tarif;
- c) notarif;
- d) notarif-moliyaviy.

**Demping turlari?**

- a) sporadik, doimiy, o'zaro kelishilgan;
- b) teskari, oldindan belgilangan;
- c) normal, teskari;
- d) doimiy, optimal.

**O'zbekiston Respublikasida TIF quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:**

- a) xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- b) tashqi savdo;
- c) chet el investitsiyalarini jalb etish;
- d) Respublikaning tashqaridagi investitsiya faoliyati.

**TIF subyektlari:**

- a) jismoniy va yuridik shaxslar;
- b) TIFni amalga oshirayotgan O'zbekiston respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari;
- c) chet el investorlari;
- d) qo'shma korxonalar.

**TIF obyektlari:**

- a) oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti hisoblangan tovarlar, har qanday mol-mulk;
- b) ishlar va xizmatlar;
- c) qimmatli qog'ozlar, valyuta boyliklari;
- d) elektr, elektr energiyasi.

**Tashqi savdo nima?**

- a) xalqaro tovarlar ayirboshlash sohasidagi tadbirkorlik faoliyati;
- b) tovarlarni eksport va import qilish;

- d) ishlar va xizmatlarni eksport qilish;
- e) intellektual mulk obyektlarini import qilish.

**Eksport deb nimaga aytildi?**

- a) tovarlar va xizmatlarni olib chiqib ketish;
- b) tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga, ularni qayta olib kirish majburiyatini olmasdan olib chiqib ketilishi;
- c) xizmatlar, transport vositalarini olib chiqib ketish;
- d) elektr energiyasini va intellektual mulk obyektlarini olib chiqish.

**Import deb nimaga aytildi?**

- a) chet el investitsiyalarini olib kirish;
- b) tovarlarni bojxona hududiga, ularni qayta olib chiqib ketish majburiyatini olmasdan, olib kirish;
- c) tovarlar va xizmatlarni olib kirish;
- d) transport vositalarini, xizmatlarni olib kirish.

**TIFni tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi?**

- a) Davlat bojxona qo'mitasi;
- b) Soliq Qo'mitasi;
- c) Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi;
- d) Moliya vazirligi.

**Eksport va import nima maqsadda taqiqlanadi va cheklanadi?**

- a) milliy xavfsizlikni ta'minlash;
- b) mamlakat fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- c) mamlakat to'lov balansini saqlab turish;
- d) mamlakat xalqaro majburiyatlarini bajarish.

**Bojxona tizimi nima?**

- a) bojxona siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat tuzilmalari;
- b) bojxona qonunlari;

- d) bojxona rasmiy lashtirish hujjalari;
- e) bojxona to'lovlari.

**Bojxona rejimi nima?**

- a) bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari;
- b) bojxona chegarasi orqali bojxona maqsadlarida olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini belgilovchi qoidalar majmui;
- c) transport vositalarini maqomi;
- d) tovarlar maqomini belgilovchi qoidalar majmui.

**Xalqaro savdo davlat tomonidan tartibga solish qanday bo'lishi mumkin?**

- a) bir tomonlama, alohida holda;
- b) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama;
- c) xalqaro shartnomalar asosida;
- d) savdo sheriklari bilan kelishilgan holda.

**Xalqaro savdoni tartibga soluvchi xalqaro savdo tashkiloti:**

- a) Merkosur;
- b) NAFTA;
- c) OATT/VTO;
- d) BMT.

**Butunjahon savdo tashkiloti qachon tashkil etilgan?**

- a) 1946 yili 10 mart;
- b) 1948 yili 1 yanvar;
- c) 1995 yili 1 yanvar;
- d) 1947 yili 2 fevral.

**Butunjahon savdo tashkiloti qachondan boshlab oATT-VTO deb atala boshladi?**

- a) 1954 yil;
- b) 1998 yil;
- c) 1995 yil;
- d) 1953 yil.

**O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosatining asosiy yo‘nalishlari:**

- a) importning o‘rnini bosuvchi;
- b) importning o‘rnini bosuvchi savdo siyosatidan eksportga qaratilgan savdo siyosatiga o‘tish;
- d) tarifli boshqarish savdo siyosati;
- e) notarifli boshqarish savdo siyosati.

**O‘zbekiston respublikasi Butunjabon savdo tashkilotiga a’zomi?**

- a) ha;
- b) yo‘q;
- d) kuzatuvchi sifatida a’zo;
- e) to‘laqonli a’zo.

**O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi qonuni qachon qabul qilingan, yangi tahririyatichi?**

- a) 1991-yil, 1998-yil;
- b) 1991-yil, 2000-yil;
- d) 1992-yil, 2002-yil;
- e) 1993-yil, 2000-yil.

**Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullarining sinflanishi:**

- a) tarif, iqtisodiy, ma’muriy usullar;
- b) notarif, paratarif usullar;
- d) tarif, notarif usullari;
- e) iqtisodiy, ma’muriy usullar.

**Import bojining qanday stavkalarini bilasiz?**

- a) advalor, bir ustunli, xos;
- b) advalor, xos, aralash;
- d) ko‘p ustunli, aralash, ko‘zga tashlanmas;
- e) xos, aralash.

**Tarif eskalatsiyasi nima?**

- a) tovarni ishlanganlik darajasiga qarab boj tarifining stavkasini oshirish;
- b) boj tarifini tabaqlashtirish;

- d) import tarifini sinflash;
- e) tovarlarni import bojiga tortish.

**Import bojlarini qo'llashdan maqsad:**

- a) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish;
- b) eksportga ko'prok tovar ishlab chiqarish;
- c) tashqi bozorni, davlat budgetini manfaatlarini himoya qilish;
- d) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni, ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish.

**Import bojlari milliy narx darajasiga va dinamikasiga qanday ta'sir etadi?**

- a) milliy narx darajasini oshishiga olib keladi;
- b) milliy tovarlar narxini oshiradi;
- c) tovarlarni ishlab chiqarish dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- d) milliy narx darajasiga va dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Undirilish tartibiga ko'ra bojlar qanday turlarga bo'linadi?**

- a) advalor, xos, aralash;
- b) dempingga qarshi, mavsumiy;
- c) o'zgarmas, o'zgaruvchi;
- d) preferentsial, xos.

**Import bojining asosiy funktsiyalari:**

- a) protektsionistik, fiskal, muvofiqlashtiruvchi;
- b) protektsionistik, himoya;
- c) fiskal, qo'llab-quvvatlovchi;
- d) budjetni to'ldirish, himoya.

**Kvotalashning qanday turlarini bilasiz?**

- a) import, kompensatsiya, mavsumiy;
- b) eksport, import, global, individual;
- c) mavsumiy, chegaraviy, optimal;
- d) ratsional, obyektiv, preferentsial, advalor.

**Litsenziya turlari?**

- a) bir marotabalik, lokal, global;
- b) bosh, avtomatik, global, bir marotaba beriladigan;
- c) mavsumiy, xos, aralash;
- d) avtomatik, optimal, advalor.

**Bosh litsenziya bilan global litsenziya bir-biridan nima bilan farq qiladi?**

- a) tovar soni bilan;
- b) tovarlarni olib kirish va chiqish vaqtini bilan;
- c) tovar turi bilan;
- d) kelishuvlar soni bilan.

**Bosh litsenziya bo'yicha tovarni olib kirish va chiqish vaqtini qanchaga teng?**

- a) bir oyga;
- b) ikki yilga;
- c) bir yilga;
- d) yarim yilga.

**Global litsenziya bo'yicha olib kirilayotgan va chiqilayotgan tovar nimasi bilan chegaralangan?**

- a) vaqtini, soni;
- b) miqdori, qiymati;
- c) assortimenti, miqdori;
- d) qiymati, vaqtini.

**Davlat soliq tiziminining tarkibi:**

- a) to'g'ri soliqlardan iborat;
- b) bilvosita va doimiy soliqlardan iborat;
- c) to'g'ri va egri soliqlardan iborat;
- d) o'zgaruvchan va bevosita soliqlardan iborat.

**Bojxona tizimi nima?**

- a) bojxona siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat tuzilimalari;
- b) bojxona qonunlari;

- d) bojxona rasmiylashtirish hujatlari;
- e) bojxona to'lovlari.

**Bojxona rejimi nima?**

- a) bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari;
- b) bojxona chegarasi orqali bojxona maqsadlarida olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini belgilovchi qoidalar majmui;
- d) transport vositalarini maqomi;
- e) tovarlar maqomini belgilovchi qoidalar majmui.

**Bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qanday?**

- a) aynan bir xil tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash;
- b) import qilinayotgan tovarlarni shartnoma qiymatidan keilib chiqqan holda;
- d) tovarlarning bir-biriga o'xshashligiga qarab;
- e) qiymatlarni chegirib tashlashdan kelib chiqqan holda.

**Bojxona statistikasining asosiy vazifasi nima?**

- a) kontrabandaga qarshi kurashish;
- b) bojxona organlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisobga olish va tahlil qilish;
- d) bojxona rasmiyatchiliklari;
- e) TIFni tartibga solish.

**Alkogol ichimliklar va tamaki mahsulotlardan tashqari aksizga tortiladigan tovarlardan aksiz solig'i qanday hisoblanadi?**

- a)  $O = (S \times 100) / (100 - A)$ ;
- b)  $As = O \times A + S \times A$ ;
- d)  $As = S \times A / 100$ ;
- e)  $As = O \times A / 100$ .

**AQSHda qaysi yili kongress tomonidan birlamchi boj-tarif tizimi ma'qullangan?**

- a) 1789-yilda;

- b) 1889-yilda;
- d) 1989-yilda;
- e) 1689-yilda.

**AQSH territoriyasi qancha zonaga bo'lingan va shtab kvar-tirasi qayerda joylashgan?**

- a) 7 – Boston;
- b) 8 – Chikago;
- d) 9 – Los-Anjeles;
- e) 10 – Sietl.

**Tarif preferentsiyasi nima?**

- a) Uzbekiston Respublikasining bojxona siyosatini amalga oshirishda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarga boj to'lashga nisbatan bir tomonlama tartibga imtiyoz berilishi;
- b) aksizdan ozod qilish;
- d) KKS dan ozod qilish;
- e) ilgari to'langan bojni qaytarmaslik.

**Muqobilangan tizimning har bir pozitsiyasiga necha raqamli nomer beriladi?**

- a) 4 raqamli;
- b) 3 raqamli;
- d) 5 va 6 raqamli;
- e) 4 va 2 raqamli.

**Davlat soliq siyosatining asosiy tamoyillari**

- a) ijtimoiy odillik, aniqlik tamoyillari;
- b) qulaylik, aniqlik, odillik tamoyillari;
- d) Samaradorlik, qulaylik tamoyillari;
- e) Ijtimoiy odillik, aniqlik, qulaylik va samaradorlik tamoyillari.

**Bojxona tulovlarini tarkibi?**

- a) bojxona bojlari, soliqlar va bojxona yig'imlari;
- b) aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i;

- d) bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona ko‘zatuviga olganlik uchun yig‘imlar;
- e) Bojxona bojlari va bojxona yig‘imlari.

**Qo‘shilgan qiymat solig‘i Uzbekiston Respublikasida qanday tovarlardan undiriladi?**

- a) import, tranzit, eksport tovarlaridan;
- b) eksport va tranzit tovarlaridan;
- c) import tovarlaridan;
- d) mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan tovarlardan.

**Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazganlik uchun yig‘im qaysi me’yoriy-huquqiy hujjatga asosan undiriladi?**

- a) Vazirlar Mahkamasining 154-son qaroriga asosan;
- b) Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-apreldagi 204-son qaroriga asosan;
- c) Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-maydagi 189-son qaroriga asosan;
- d) Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrdagi 244-son qaroriga asosan.

**Bojxona organlari qanday faoliyat turiga litsenziya beradi?**

- a) bojxona omborini ochish uchun;
- b) tovarlarni bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o‘tkazish uchun;
- c) bojxona, erkin omborlarni tashkil etish va boj olinmaydigan savdo do‘konini tashkil etish uchun;
- d) erkin bojxona omborini va boj olinmaydigan savdo do‘konini tashkil etish uchun.

**Tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun yig‘im miqdori qancha?**

- a) 200 km gacha 50 yevro;
- b) 200 km gacha 50 yevro, undan oshganiga 120 yevro;
- c) masofani kattaligidan qat’iy nazar 150 yevro;
- d) 100 kilometrga 100 yevro.

**Bojxona to'lovlari qanday sinflanadi?**

- a) bevosita bojxona organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar;
- b) bojxona organlarining faoliyati bilan bilvosita bog'liq bo'lgan to'lovlar;
- d) undirilish tartibiga ko'ra to'lovlar sinflanadi;
- e) to'lovlar stavkalarini kattaligiga qarab sinflanadi.

**Iqtisodiy integratsiya deganda nimani tushunasiz?**

- a) mamlakatlarning siyosiy yaqinlashuvi;
- b) mamlakatlarning madaniy yaqinlashuvi;
- d) mamlakatlarning sport sohasidagi yaqinlashuvi;
- e) mamlakatlarning intelektual yaqinlashuvi.

**TIFni leberallashtirish deganda nimani tushunasiz?**

- a) mamlakatning siyosiy maydonga erkin chiqishi;
- b) mamlakatning eksport imkoniyatlarini oshirish;
- d) xalqaro savdoda aktiv qatnashish;
- e) mamlakat TIFni jahon andozalaridan kelib chiqib sod-dalashtirish.

**Uzbekiston Respublikasining eksport siyosati deganda nimani tushunasiz?**

- a) importni taqiqlash;
- b) ekportga mahsulot chiqarmasdan ichki ehtiyojimizni ta'minlash;
- d) sifatli tovar ishlab chiqarib respublikamizni eksport salohiyatini oshirish;
- e) mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish.

**TIFni erkinlashtirish strategiyasi deganda nimani tushunasiz?**

- a) ma'lum turdag'i tovarlarga imtiyozlar berish;
- b) xalqaro shartnomalarga qatnashish;
- d) samarali TIF strategiyasini ishlab chiqish;
- e) bojxona ishiga oid xalqaro konventsiyalarga qatnashish.

**TIFni leberallashtirishda bojxona organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

- a) importni taqiqlash;
- b) eksportni cheklash;
- c) bojxona boj stavkalarini oshirish;
- d) TIF ishtirokchilariga bojxona rasmiyatçiligidini soddalash-tirish.

**Iqtisodiy integratsiya qanday shakllarda amalga oshiriladi?**

- a) savdo;
- b) ishlab chiqarish;
- c) texnika, texnologiya;
- d) iqtisodiyotning barcha jarayonlari.

**Markaziy Osiyo respublikalari bojxona hamkorlik tashkilotining tashkil etish zarurati va uning asosiy vazifalari:**

- a) respublikalarni eskicha yashashini davom ettirish;
- b) respublikalar bir-birini qo'llab quvvatlash;
- c) bojxona ishi bo'yicha hamkorlik olib boorish;
- d) to'g'ri javob yoq.

**Uzbekiston Respublikasining Butunjahon bojxona tashkilotiga a'zo bo'lishidan asosiy maqsad nima?**

- a) a'zo mamlakatlarga berilgan imtiyozlardan foydalanib jahon bozoriga o'z o'rniiga ega bo'lish;
- b) importni taqiqlash;
- c) mamlakat siyosiy maydonda o'z mavqeiga ega bo'lish;
- d) eksportga tovar ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarini qo'llab-quvvatlash.

**Erkin savdo hududlari nima?**

- a) mamlakatlarga qulaylik yaratilgan hudud;
- b) ikki mamlakat chegara hududida boj to'lovlarini to'lamasdan savdo qilinadigan maxsus joy;
- c) savdo qilish eng qulay joy;
- d) xizmatlar savdosini bilan shug'ullanadigan maxsus joy.

«Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 1993-yil;
- b) 1994-yil;
- c) 1995-yil;
- d) 1996-yil.

O‘zbekiston Respublikasining eksport siyosati bu:

- a) importni taqiqlash;
- b) ekportga mahsulot chiqarmasdan ichki ehtiyojimizni ta’minlash;
- c) sifatli tovar ishlab chiqarib respublikaning eksport salohiyatini oshirish;
- d) mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa o‘rnatish.

Import tovarlarini ichki bozordagi narxining o‘zgarishi bo‘yicha import tarifi bilan eksport subsidiyasi o‘rtasidagi farq nimada?

- a) import tarifi tovarning ichki bozordagi narxini pasaytiradi;
- b) oshiradi;
- c) eksport subsidiyasi eksport tovarlarining ichki bozordagi narxini oshiradi;
- d) kamaytiradi.

Eksport kreditlarining turlari:

- a) qisqa muddatli, uzoq muddatli;
- b) qisqa, o‘rta, uzoq muddatli;
- c) o‘rta muddatli;
- d) muddatsiz.

TIFni tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organi:

- a) Davlat Bojxona Qo‘mitasi;
- b) Soliq Qo‘mitasi;

- d) Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi;
- e) Moliya Vazirligi.

**Eksport va import nima maqsadda taqiqlanadi va cheklanadi?**

- a) milliy xavfsizlikni ta'minlash;
- b) mamlakat fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- c) mamlakat to'lov balansini saqlab turish;
- d) mamlakat madaniy merosini saqlash.

**Bojxona tizimi nima?**

- a) bojxona siyosatini amalga oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat tuzilmalari;
- b) bojxona qonunlari;
- c) bojxona rasmiylashtirish hujjatlari;
- d) bojxona to'lovlari.

**Bojxona rejimi nima?**

- a) bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari;
- b) bojxona chegarasi orqali bojxona maqsadlarida olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari maqomini belgilovchi qoidalar majmui;
- c) transport vositalarini maqomi;
- d) tovarlar maqomini belgilovchi qoidalar majmui.

**Bojxona bojlarining asosiy funktsiyalari?**

- a) protektsionistik, fiskal, chegaralash;
- b) protektsionistik, fiskal, ragbatlantiruvchi, taqiqlovchi;
- c) rag'batlantiruvchi, fiskal, protektsionistik, mo'tadillashtiruvchi;
- d) protektsionistik, fiskal, mo'tadillashtiruvchi.

**Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish qanday bo'lishi mumkin?**

- a) bir tomonlama, alohida holda;
- b) bir tomonlama, ikki tomonlama, ko'p tomonlama;
- c) xalqaro shartnomalar asosida;
- d) savdo sheriklari bilan kelishilgan holda.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.</b> .....	3
<b>1-mavzu.</b> Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF): mohiyati, ahamiyati va maqsadlari .....	10
<b>2-mavzu.</b> Xalqaro savdo – tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli .....	26
<b>3-mavzu.</b> TIF ni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati.....	41
<b>4-Mavzu.</b> TIFning optimal tizimini shakllantirish. ....	54
<b>5-mavzu.</b> Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvi vositalari .....	65
<b>6-mavzu.</b> Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi. Tashqi savdoni tarif orqali boshqarishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri .....	81
<b>7-mavzu.</b> Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat boshqaruvida notarif usullar .....	93
<b>8-mavzu.</b> Xalqaro savdo siyosatining takomillashuvi va davlat iqtisodiy xavfsizligi muammolari .....	104
<b>9-mavzu.</b> Mintaqalararo savdo-iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy munosabatlarining samaradorligi .....	115
<b>10-mavzu.</b> JST/GATT – Xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro savdoni tartibga solish tamoyillari .....	124
Xulosa .....	138
Izohli lug'at .....	143
Yangi pedagogik texnologiyalar uslubi va axborotlar almashuvi .....	148
«Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat boshqaruvi» fanidan test savollari .....	154

**A.A. ALIYEV**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI DAVLAT  
TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH**

**KASB-HUNAR KOLLEJLARI  
UCHUN O'QUV QO'LLANMA**

Nashr uchun mas'ul *M. Tursunova*

Muharrir *R. Yorlagabov*

Musahhih *H. Zokirova*

Sahifalovchi *Z. Boltayev*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.  
100029, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Terishga berildi 19.08.2007. Bosishga ruxsat etildi 11.09.2007.  
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x90 '/<sub>16</sub>. Shartli bosma tabog'i 12,0.  
Nashr bosma tabog'i 11,0. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 34

«AVTO-NASHR» SHK bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., 8-mart ko'chasi, 57-uy.

3844-66

65.5  
ASCOO

ISBN 978-9943-319-35-6

A standard barcode representing the ISBN number 978-9943-319-35-6.

9 789943 319356